- axborot-informatsiya va ommaviy kommunikatsiya vositalarining beqiyos rivojlanishi;

- ijtimoiy taraqqiyotning keskin tezlashuvi, planeta masshtabida butun inson faoliyatini xalqaroqlashtirib borishi;

- ekologik muammolarni kelib chiqishi tufayli "jamiyat–tabiat" tizimini ilmiy boshqarish zaruriyati va boshqalar.

Xulosa o'rinda shuni aytish lozimki, insonning materiyani tobora chuqur o'rganishi, nanoob'ektlarni sun'iy ravishda yaratishi, bizning olam haqidagi tasavvurlarimizga keskin ta'sir ko'rsatuvchi yangi reallik dunyosini barpo etadi. Nanofan ilmiy muomalaga tushunchalarning yangi tizimini kiritdi, tadqiqot ob'ektini, ilmiy bilish strategiyasini o'zgartirdi. Shubhasiz, tabiatshunoslikning aksariyat fundamental prinsiplarini o'zgartirib yuboradigan yangi ilmiy paradigmalarni shakllantirmoqda.

Adabiyotlar ro'yhati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. –T.:2020.

2. Tulenova K.J, Rustamova M.A. Fanning falsafiy muammolari (metodik qo'llanma). –T.: Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, 2009.

3. Shermuhamedova N.A. Gnoseologiya — bilish nazariyasi. –T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2011.

4. Xalq soʻzi /2014 yil 9-may, № 90.
5. Toʻraev B.O va boshq.Sinergetika: mohiyati, qonuniyatlari va amaliyotda namoyon boʻlishi.-T.: “Navroʻz”, 2017. 288-b.
6. Yelenin G.G. Nanotexnologiya, nanomaterialы, nanoustroystva // Novoe v sinergetike. Vzgl'yad v trete tysyacheletie // M.: Nauka, 2002. S 155.
7. Dreksler E. “Mashiny Sozidaniya”. Elektronnyy resurs:
<http://www.Ladoshki.com>
8. Kobayasi N. Vvedenie v nanotexnologiyu / per. S yaponsk. -2 -ye izd. –M.: BINOM. Laboratoriya znaniy, 2008. -5 s. : il.-(Nanotexnologiya).
9. Shermuhamedova N.A. Gnoseologiya — bilish nazariyasi. –T.: “Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2011.

09.00.00 - Falsafa

FALSAFIY ANTROPOLOGIYA MUSTAQIL BILIM SOHASI SIFATIDA.

G.T. Kabulniyazova

O'zMU falsafa va mantiq kafedrasi f.f.d., prof.v.b.

Annotatsiya: Zamonaviy falsafiy fanlar qatorida yangi fan bo'lgan falsafiy antropologiya fanining predmeti, egallagan o'rnini ochib berish ushbu maqolaning asosiy maqsadlaridan biridir. Bu maqolada falsafiy antropologiyaning predmeti doiralarini aniqlash, uning mashhur vakillarining asosiy g'oyalarini qisqacha yoritib berishga xarakteristik qilingan.

Kalit so'zlar: Falsafiy antropologiya, antropologik Renessans, inson tabiatining biologik jihatlari, antropogenez ta'limoti, inson tabiatining ijtimoiy jihati, insonning ijtimoiy rivojida madaniyatning roli, nemis diniy antropologiyasi, insonga irratsional yondashuv, inson tabiatini ratsional tushunish, inson kompensator mavjudot sifatida.

**ФИЛОСОФСКАЯ АНТРОПОЛОГИЯ КАК НЕЗАВИСИМАЯ ОБЛАСТЬ
ЗНАНИЯ**

Аннотация: Одной из основных целей данной статьи является раскрытие предмета и места философской антропологии, как новой дисциплины среди современных философских наук. В статье предпринята попытка определить предметные области философской антропологии и кратко осветить основные идеи её известных представителей.

Ключевые слова: Философская антропология, антропологический Ренессанс, биологические аспекты человеческой природы, теория антропогенеза, социальные аспекты человеческой природы, роль культуры в социальном развитии человека, немецкая религиозная антропология, иррациональный подход к человеку, рациональное понимание человеческой природы, человек как компенсаторное существо.

**PHILOSOPHICAL ANTHROPOLOGY AS AN INDEPENDENT FIELD OF
KNOWLEDGE**

Abstract: One of the main aims of this article is to reveal the subject and position of philosophical anthropology as a new discipline among modern philosophical sciences. The article attempts to define the scope of philosophical anthropology and briefly highlight the main ideas of its prominent representatives.

Keywords: Philosophical anthropology, anthropological Renaissance, biological aspects of human nature, theory of anthropogenesis, social aspects of human nature, the role of culture in social development of humans, German religious anthropology, irrational approach to humans, rational understanding of human nature, human as a compensatory being.

Hozirgi davrda insonlar hayotida, fan taraqqiyotida, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotda misli ko'rilmagan tarixiy voqealar bo'ldi. Bular barchasi insonning dunyoga bo'lgan munosabatini o'zgartirib, dunyoni yangicha chuqurroq o'rganish va bilimni hayotga tatbiq qilishga undaydi. Ayni vaqtda insonning tutgan o'rnini, mohiyatini, o'zligini va ichki dunyosini to'laroq o'rganishga imkon yaratildi. Tabiatshunoslik rivoji shunchalik ilgarilab ketdiki, mikro va makrodunyoni tadqiq qilish, kosmosga odam uchirish kabi masalalar insonni hayratga solarli darajaga yetdi. Shu bilan birga tabiatshunoslikning rivoji yangi-yangi muammolarni ham keltirib chiqardi. Bular ichida inson muammosi, xususan, uning ichki dunyosi, borlig'i,

mohiyati va uning falsafiy tahlili kabi masalalar dolzarbligi bilan faylasuflar diqqat-e'tiborini jalb qilmoqda.

Inson ko'plab fanlar o'rganadigan predmetdir. Biologiya uni Homo sapiens turi sifatida qaraydi. Pedagogika uchun u tarbiya ob'ekti, sotsiologiya uchun - turli munosabatlar sub'ekti, kulturologiya uchun - madaniyatning ob'ekti va sub'ekti, iqtisodiy nazariya uchun - asosiy ishlab chiqarish kuchi va hokazo. Tabiiy fanlar orasida an'anaviy (biologiya, antropologiya, meditsina va boshqalar) bilan bir qatorda nisbatan yangi fanlar (oliy nerv tizimi faoliyati fiziologiyasi, somatologiya, seksologiya va hokazo) paydo bo'ldi. Ijtimoiy bilim sohasida ham «eski» fanlar (psixologiya, sotsiologiya, tilshunoslik, etika) qatorida «yangi» fanlar (aksiologiya, germenevtika) kabilar faoliyat ko'rsatishadi. XX asrda ilmiy bilimning shiddatli rivoji, parallel tarzda boruvchi fanlarning faol differentsiatsiyasi va integratsiyasi tabiiy-ilmiy va ijtimoiy fanlar chegarasida bir qator yangi fanlarning: bioetika va tibbiyot etikasi, sotsiobiologiya, psixofiziologiya va boshqalarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Bu hol falsafaning inson muammolarini ko'rib chiqishdagi metodologik roli haqidagi masalani yanada dolzarb etib qo'yadi.

Antropogenezning hozirgi zamon ilmiy nazariyasi endilikda tor tarmoq sohasi emas, balki tabiiy va ijtimoiy fanlarning tutashuv chegarasidagi majmuaviy fanlararo tadqiqotlardan iborat. Bugungi kunga kelib fan odamning kelib chiqish jarayonini muayyan darajada tiklash imkonini beruvchi ko'p sonli ma'lumotlarni to'plagan. Ushbu muammoni hal etishda arxeologiya va antropologiyadan tortib to molekulyar biologiya hamda atom fizikasigacha bo'lgan ko'plab fanlar ishtirok etmoqda. Hozirgi zamon tasniflari ma'lumotlariga ko'ra, odam turiga, umurtqalilar kichik turiga, sut emizuvchilar sinfiga, primatlar guruhiga, gominoidlarning katta oilasiga, gominidlar oilasiga, Homo turiga mansubdir. Odamning hayvondan kelib chiqqanligini tasdiqlovchi dalillar qiyosiy anatomiya, fiziologiya, embriologiya, paleontologiya, genetika fanlari bergan ma'lumotlarga suyanadi. Barcha tirik organizmlarda hujayra tuzilishi, odam va hayvonlarning skeletlarining hamda a'zolarining o'xshashligi, odamdagi rudimentar a'zolar (kopchik umurtqalar, ohirgi jag' tishlar, ko'richak va hokazo hammasi bo'lib 90dan ortiq), atavizmlar (jabra yorig'i, tananing to'liq jun bilan qoplanishi va boshqalar), inson embrionida hayvonot dunyosiga xos evolyusiya bosqichlarining takrorlanishi va hokazo.

Hozirgi zamon inson haqidagi ta'limotlarning orasida falsafiy antropologiya fani alohida o'rin tutadi. Maks Sheler va nemis falsafiy antropologiyasining boshqa yirik vakillari inson ma'naviy hayotining to'fonlarini inson borlig'i va uning ruhiyatidan qidirish kerak, deb ko'rsatadilar. Ular insondagi ruhiy jarayonni falsafiy tahlil qilib, insonning ichki dunyosidagi holatlarini ochib berishdi. Natijada ularning ta'limotlari XX asr falsafasiga juda katta ta'sir ko'rsatdi.

Falsafiy antropologiya fani XIX asr oxiri va XX asr boshlarida vujudga keldi. Uning asoschisi nemis faylasuflari Maks Sheler va uning izdoshlari Gelmut Plesner, Arnold Gelen, Erix Rotxakerlar bo'lib, ular falsafiy antropologiya fanining irratsional va ratsional yondashuvlariga asos solishdi. XX asrning o'rtalariga kelib, ekzistensializm, neofreydizm ta'limotlari insonning ichki dunyosidagi holatlarini o'rganishga katta e'tibor qaratib boshlaydi.

Ular insonning ong ostidagi jarayonlarini ham falsafiy, ham psixik tomondan aniqlar edilar. Ekzistensializm va neofreydizm ta'limotlari bilan bir qatorda falsafiy antropologiya fani ham inson masalasini markazga qo'yadi.

Mustaqillik davridan boshlab G'arb falsafasini o'rganish keng ko'lamda olib borilyapti. Ushbu mavzuga bag'ishlangan maqolalar konferensiya materiallarida, gazeta va jurnallarda chop etilmoqda. Jumladan, falsafiy antropologiya fani ham o'rganila boshlandi. Hozirgi davrning talabi, bu fanni ob'ektiv holatda o'rganishdan iborat bo'lib, falsafiy antropologiya

fanining g'oyalarini hech qanday ideologik stereotiplarga solmasdan asl holatda tahlil etishni talab qiladi. Sharq va G'arb madaniyatini birlashtiruvchi yagona bir ko'prik bu inson muammosidir. Uni o'rganish hozirgi davrda eng dolzarb muammolardan biridir. Shuning uchun aynan inson masalasini e'tibor markaziga olgan falsafiy antropologiya fani insonni o'rganuvchi kompleks fanlardan biri bo'lib uni asosiy g'oyalarini talabalarga yetkazib berish g'oyat dolzarb masalalardan biridir.

Respublikamizning ma'naviy hayotida inson masalasini o'rganish har xil shaklda olib borilmoqda. 2003 yilda dotsent S.A.Yo'ldoshev boshchiligidagi «Yangi va eng yangi davr G'arb falsafasi» deb nomlangan o'quv qo'llanma chop etildi. Bu qo'llanmada falsafiy antropologiya faniga ham bir bo'lim bag'ishlangan edi. 2016 yilda professor. G.M.Ro'zmatovning «Falsafa tarixi: Zamonaviy G'arb falsafasining dolzarb muammolari» deb nomlangan o'quv qo'llanmasida ham nemis falsafiy antropologiyasiga bir bo'lim ajratilgan bo'lib, Maks Sheler, Gelmut Plesner, Arnold Gelen, Erix Rotxaker, Gans-Eduard Xenstenberg va Feliks Xammer qarashlarini tahlilga katta e'tibor qaratilgan.

Falsafiy antropologiya fanini o'rganishda kompleks, tizimli usullardan foydalanish zarur bo'lib ularning ichida qiyosiy taqqoslash uslubi ham alohida o'rin egallaydi. Masalan, zamonaviy biologiya, psixologiya, sotsiologiya fanlarida inson muammosiga tegishli bo'lgan manbalar falsafiy jihatdan tahlil qilinadi va insonning ruhiy hayotiga tegishli bo'lgan g'oyalar yoritiladi. Ushbu fanlarda insonga tegishli bo'lgan g'oyalar, tushunchalar kompleks tarzda qiyosiy tahlil qilinadi. Maks Sheler tomonidan ishlab chiqilgan inson ta'rifining irratsional yondashuviga binoan inson tabiatida eng muhim jihatlari ruhiy tabiatga ega bo'lib ular ichida Sheler kiritgan ruhiy yurak tushunchasi markaziy tushunchalardan biridir. Bu tushunchani Sheler xristian falsafasining mashhur namoyondasi Avreliy Avgustin ta'limoti ta'sirida ishlab chiqqan. Bu tushuncha bilan boshqa bir qator tushunchalar bir biriga bog'lanib Sheler antropologiyasida o'ziga xos bo'lgan tizimni shakllantiradi.

Arnold Gelen, Gelmut Plesner va Erix Rotxaker ta'limotlarida esa inson biologik jihatdan nomukammal mavjudot sifatida ta'riflanadi va uning bu kamchiligi madaniyatning yaratilishi orqali to'ldiriladi.

Zamonaviy falsafiy antropologiya vakillaridan biri Odo Markvard esa insonni «Homo compensator» deb ataydi va uning fikricha inson hayvonot olamidan ajralib chiqqan nomukammal biologik zot bo'lib u o'zining aqli tufayli o'zining kemtikliklarini to'ldirishga harakat qiladi. Mixael Landman esa insonning faoliyatida ob'ektiv ruhning ta'siri va harakatini ko'radi, uning fikricha inson tabiatida ruhiy jihatlari asosiy rol o'ynaydi, inson bu ruhiy va biologik jihatlarning ierarxiyasidan iborat.

Diniy antropologiya vakillari Gans-Eduard Xenstenberg va Feliks Xammerlarning fikricha inson tabiatida ruh muhim rol o'ynaydi, bu olimlar ruh tushunchasini insonning psixik faoliyatidan alohida o'rganishdagi ruhning faoliyatini ilohiy kuch bilan bog'lashadi.

Falsafiy antropologiya predmeti haqida gapirar ekan, V.Bryuning bu tushunchani ikki ma'noda ishlatish mumkin deb hisoblaydi: tor va keng ma'noda. Keng ma'noda falsafiy antropologiya faniga inson haqidagi barcha falsafiy ta'limotlarni kiritish mumkin, bu keng ma'noda tushunilgan falsafiy antropologiya predmetiga ularning ontologik, gnoseologik yoki metodologik masalalar bilan qiziqishi befarqdir. Tor ma'noda esa falsafiy antropologiyaga, insonni kelib chiqishini, inson tabiatining biologik, ijtimoiy va ruhiy mohiyatini o'rganuvchi fanlar kiritiladi. P.S.Gurevich «Falsafiy antropologiya» kitobida falsafiy antropologiya fanining predmetiga quydagicha ta'rif beradi: «Falsafiy antropologiya fani bu insonni mavjudlikning alohida bir turi sifatida o'rganadigan falsafiy fan, inson tabiati, mohiyati va borlig'i anglab yetiladi, inson mavjudligining o'ziga xos xususiyatlari tahlil etiladi, olamning antropotsentrik manzarasining ichki imkoniyatlari aniqlanadi». Darhaqiqat, falsafiy antropologiya fanini inson falsafasi yoki inson antropogenezi masalalari bilan aynanlashtirib qo'yish ehtimoli katta.

Maks Sheler g'oyalarini A.Gelen, G.Plesner, E.Rotxaker, G.-E.Xengstenberg, M.Landmanlar rivojlantirishdi. Faylasuf nafaqat haqiqatni ochadi, u koinotning logosini kashf etishda qatnashadi. Koinotni o'rganar ekan faylasuf borliqni ham biladi, koinotni bilish esa uni o'zgartirish bilan tengdir. Agar koinot xato tushunilgan bo'lsa mutafakkir uni vayron etadi, shuning uchun faylasuf o'z taqdiri va olamning taqdiri uchun ma'suldir. Falsafiy fanlar o'z predmeti sifatida borliq logosini o'rganishadi, ijtimoiy falsafa jamiyatning logosini o'rgansa, falsafiy antropologiya fani inson borlig'ining logosini o'rganadi, logos sirli tabiatga ega bo'lsa ham inson aqli uni o'rganadi, chunki inson aqli ham ana shu logosning ko'rinishidir. Falsafa inson tafakkurini yashindek porlashidan paydo bo'ladi va tafakkur zanjirining keyingi rivojida muhim bir xalqa vazifasini bajaradi.

Nemis falsafiy antropologiyasi asoschisi Maks Shelerning ijodi shu qadar ko'p qirraliki uning nazariyasidagi asosiy fikrni ajratib olish bir muncha qiyindir. Lekin ishonch bilan aytish mumkinki uning ta'limotining asosiy mavzusi bu insonning ruhiy borlig'idir. Sheler ijodining barcha bosqichlaridauning inson tabiatini tushunishi xristianlik falsafasidagi qarashlar bilan chambarchas bog'liqdir. Sheler falsafiy antropologiyasining asosiy uslubi xristianlik dunyoqarashiga asoslanadi. Inson o'zining tor tabiiy chegaralaridan chiqib ketib olamning mohiyati bo'lgan xudoni anglashga, u bilan qo'shilishga qodir, natijada inson uni yaratgan xudoning timsoliga aylanadi. Inson koinotdan farq qiladi, lekin shu bilan bir qatorda inson koinot bilan bir yaxlitlikni tashkil etadi. Inson falsafasi inson haqidagi metafizik bilimlarni konkret fanlardagi bilimlar bilan birlashtirishi kerak. Lekin Sheler bu vazifani bajara olmadi, buning sabablaridan biri shundaki Sheler antropologiyasi ikki bir biriga qarama qarshi kutbni, ya'ni xristianlik bilan nissheanlikni birlashtirishga harakat qildi.

Ilohiy ruhga bo'lgan ishonch kosmik tabiatga ega bo'lgan iroda tushunchasi bilan mutanosiblik, garmoniya holatiga kelmadi. Falsafiy antropologiya fanining tadqiqotchisi B.Grigoryanning fikricha, Sheler inson haqidagi ta'limotni rivojlantirishda konkret fanlarning ahamiyatini tan olgan bo'lsada, uning shaxs haqidagi qarashlari diniy tabiatga ega. Sheler konkret fanlardagi bilimlarni insonni hayvondan tubdan farq qilishini isbotlash uchun ishlatadi. Katolitsizm dinidan Sheler panteistik qarashlarga o'tadi. Shu davrdan boshlab uning ijodining oxirgi qismi boshlanadi, lekin uning diniy qarashlari butun falsafasi davomida yo'qolmadi. Masalan, uning ta'limotidagi inson tabiatining ilohiy mohiyati diniy qarashlardagi insonning xudoning timsoli bo'yicha yaratilganligi haqidagi fikrlarga o'xshaydi. Inson mohiyatini uning o'zidan kelib chiqib tushuntira bo'lmaydi, insonning mohiyatini anglash uchun uni xudoning timsoli ekanligini anglash zarur. Inson shaxsi uning hayvoniy darajadan haqiqiy ilohiy darajaga o'tishida ochiladi. Biologiya va psixologiya fanlari inson mohiyati haqida hech narsa ayta olmaydi, chunki bu mohiyat ilohiy. Intellect va tanlash imkoniyati insonni hayvondan farqlash uchun yetarli emas. Insonni hayvondan farqi uning ilohiy darajaga ko'tarila olishida. Inson o'zini o'zgartira oladigan mavjudot, chunki u xudoga ibodat qilmaydi, uning o'zi tirik ibodatdir, insonning ruhiy yuragida xudoga bo'lgan e'tiqod yashaydi, mana shu e'tiqod tufayli inson xudoning tirik timsoli. Inson xudoni axtarmaydi, chunki xudo uning qalbida yashaydi va inson qalbi orqali inson xudoga qo'shiladi. Inson botiniy olamida xudo yashar ekan, uning mohiyati mana shu ilohiy ibtidoning namoyon bo'lishida ochiladi. Ijodining ilk bor davrida Sheler insonni xudoni anglashga intiluvchi mavjudot sifatida ko'rsatsa, so'nggi davrda inson faylasuf sifatida namoyon bo'ladi, chunki falsafa orqali xudoni inson qalbida mavjudligi ochiladi. Falsafa orqali inson koinot bilan ko'shib butun borliqni yaratadi.

Shunday qilib biz zamonaviy falsafiy fanlar ichida yangi fan bo'lgan falsafiy antropologiyaning predmeti, uning asoschilari va yirik vakillarining asosiy g'oyalarini qisqacha ko'rib chiqdik. Hozirgi global muammolar bilan bir qatorda inson muammosi va uning falsafiy yechimi katta ahamiyatga ega ekanligini ochib berdik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Yoʻldoshev S., Usmonov M., Karimov R., Qobulniyozova G., Roʻzmatova G. Yangi va eng yangi davr Gʻarbiy Yevropa falsafasi (XVII-XX asrlar). – T.: Sharq, 2002y.
2. Roʻzmatova G. Falsafa tarixi: Zamonaviy Gʻarb falsafasining dolzarb muammolari. – T.: Yangi nashr, 2016y.
3. Sheler M. *Formy soznaniya i obrazovanie*// Sheler M. *Izbrannyye proizvedeniya*. – M.: Gnozis, 1994. – 38 s.
4. Marquard O. *Kompensation*. – Stuttgart: Schwabe, 1976. – 912–918 p.
5. Grigoryan B.T. *Burjuaznaya filosofskaya antropologiya*. – M.: Nauka, 1986g. – 196–204 c.
6. Bryuning V. *Filosofskaya antropologiya. Istoricheskie predposylki i sovremennoe sostoyanie*. // *Zapadnaya filosofiya: itogi tysyacheletiya*. – Ye.: Delovaya kniga, 1997. – 209–410 c.
7. Gurevich P.S. *Filosofskaya antropologiya*. – M.: Omega-L, 2010. – 11–12 c.
8. Grigoryan B.T. *Filosofskaya antropologiya: kriticheskiy ocherk*. – M.: «Мысль», 1982. – 13 s.

10.00.00 – Filologiya

**FRANSUZ VA O‘ZBEK TILLARIDA TIBBIYOT TERMINLARINING TARKIBIY
XUSUSIYATLARI**

Abrayeva Shahnoza Esonovna

Toshkent tibbiyot akademiyasi, O‘zbek va xorijiy tillar kafedrası

Katta o‘qituvchisi

E-mail: abrayevashaxnoza1990@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Fransuz va o‘zbek tillarida tibbiyot terminlarining leksik semantik tasnifini tahlil qilganmiz. Bundan tashqari zamonaviy tibbiyot terminologiyasining tarkibiy va semantik xususiyatlarini o‘rganib, o‘z fikr va xulosalarimizni qisqacha yozib o‘tganmiz. Tibbiyot terminologiyasi leksikologiyaning o‘ziga xos qatlamlaridan biri bo‘lib, u o‘zining semantik, morfologik va tarkibiy xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Kalit so‘zlari: lotincha va yunoncha so‘zlar, tizim, element, termin, tibbiy atama, sinonimik morfema, fransuz tili.

Аннотация: В статье мы проанализировали лексико-семантическую классификацию медицинских терминов во французском и узбекском языках. Кроме того, мы изучили структурные и семантические особенности современной медицинской терминологии и кратко записали наши мнения и выводы. Медицинская терминология - один из уникальных пластов лексикологии, отличающийся своими семантическими, морфологическими и структурными особенностями.

Ключевые слова: латинские и греческие слова, система, элемент, термин, медицинский термин, синонимическая морфема, французский язык.

Annotation: In the article, we analyzed the lexical semantic classification of medical terms in French and Uzbek. In addition, we studied the structural and semantic features of modern medical terminology and briefly wrote down our thoughts and conclusions. Medical terminology is one of the specific layers of lexicology, which is distinguished by its semantic, morphological and structural features.

Key words: Latin and Greek words, system, element, term, medical term, synonymous morpheme, French language

Kirish. Tibbiyot bilim va inson faoliyatining eng qadimgi sohalaridan biri bo‘lishiga qaramay, uning terminologiyasi uzoq vaqtdan beri shakllangan degan xulosaga kelish mantiqan to‘g‘ri. Tillarning turli semantik tuzilmalari turli mantiqiy paradigmalar orqali o‘rganilgan. Tabiiy tillardagi lingvistik iboralar ushbu sun‘iy lingvistik birliklar nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi va kengaytirilgan holda talqin qilinadi. Tibbiy terminologiyaning keng tarqalishi va rivojlanishi uning ya‘ni Fransuz va o‘zbek tillarida tibbiyot terminlarining leksik semantik tasnifining tarkibiy va semantik xususiyatlarini chuqur tahlil qilishni talab qiladi. Bu mavzu kontseptual va tizimli determinizm bilan ajralib turadi.

Semantika, biror tilning so‘zlarining ma‘nolari va ularning tushunchalaridagi o‘zgarishlar, to‘g‘ri tarjimalar va qo‘llanilish sohaları bo‘yicha o‘rganishning asosiy qismlaridan biri hisoblanadi. Bu tarjimalar, iboralar, frazalar va so‘zlar orasidagi o‘zgarishlarni tushunish, shuningdek, so‘zlar va ularning ma‘nolari orasidagi munosabatlarni tahlil qilish va tasavvur qilishni o‘z ichiga oladi.

Fransuz va o‘zbek tili semantikasi so‘zlarning ma‘nolari, ularning tarixiy rivojlanishi, ularning qo‘llanilish sohalaridagi farqli kontekstlar va ularning boshqa tilda, ayniqsa ingliz tili, rus tili va boshqa tildagi o‘zgarishlari va tarjimalari to‘g‘risidagi tadqiqotlar va tushunchalarni

o'rganadi. Bu ikki til semantikasi, so'zlar va ularning ma'nolari, uslubiy xususiyatlar, frazalar, iboralar, qo'llanish bo'limlari va boshqa til asoslari bo'yicha o'rganishdan iboratdir. Semantika, fransuz tilini o'rganishning muhim qismidir, chunki u insonlar o'rtasidagi kommunikatsiyada so'zlar va ularning ma'nolari haqida tushuncha beradi.

Fransuz va o'zbek tillarida tibbiyot terminlarining leksik semantik tasnifining tarkibiy va semantik xususiyatlari, tibbiyot so'zlarining aniq ma'noni ifodalash, ularning taxlil qilinishi va ularning tibbiyot sohasida hamkorlikda qo'llanilishi uchun mo'ljallangan. Semantik xususiyatlar tibbiyot so'zlarining ma'noni va ularning ana shu so'z bilan bog'liq bo'lgan so'zlar bilan birga qanday foydalanilishi va ularning tibbiyotda qanday ma'no beringanligi haqida ma'lumotlarni ifodalaydi.

Tabbiyot terminologiyasi tibbiyot sohasidagi maxsus so'zlar va ifodalar to'plamidir. Bu terminologiya, tibbiyot sohasidagi fikrlarni, davolarni, kasalliklarni, anatomiya va fiziologiya haqida ma'lumotlarni ifodalashda va tushunchalar o'rtasida o'z ma'nolarini o'zlashtirishda ishlatiladi.

Quyidagi ko'rinishda, bir qancha umumiy tibbiyot terminologiyasi misollarini keltiramiz:

Anatomiya: Inson yoki hayvonning tuzilish tizimi. Misol uchun, jigar, bosh, qo'l, oyoq kabi tuzilish qismlari.

Fiziologiya: Organizmning normal faoliyati va funksiyalari. Misol uchun, qanday qilib oksigen qabul qilinadi va uni qanday qilib qon tizimiga yetkaziladi.

Kasalliklar: Tashqi yoki ichki sabablar tufayli sodir bo'lgan o'zgarishlar yoki og'irliklar. Misol uchun, qabzlik, gripp, diabet kabi kasalliklar.

Davolash: Kasallikni davolash jarayoni. Misol uchun, dori ichish, operatsiya, terapiya va boshqa usullar.

Simptomlar: Kasallik yoki vaziyatning ko'rsatishlari. Misol uchun, qon bosimi, og'riq, bosh aqiliq kabi simptomlar.

Tanishtirish: Kasallikni aniqlash jarayoni. Misol uchun, laboratoriya testlari, rentgen, MRI skanlari va boshqa diagnostik usullar.

Farmakologiya: Dori va kimyoviy vositalar haqida ma'lumotlar. Misol uchun, antibiotiklar, analgetiklar, antidepresantlar kabi.

Epidemiologiya: Kasallikning tarqalganlik darajasini va uning sabablarini o'rganish. Misol uchun, pandemiyalar, epidemiyalar, jinsiy yuqumlar kabi.

Profilaktika: Kasalliklarni oldini olish usullari. Misol uchun, aql-salomat hayotning o'rgangan shartlari, to'g'ri ovqatlanish va tibbiy belgilarni ko'rib chiqish.

Reabilitatsiya: Kasallik, jarohat yoki boshqa sabablardan tortib kelgan shaxsga yordam berish jarayoni. Misol uchun, fizioterapiya, terapevtik mashqlar, psixologik yordam va boshqa usullar.

Bu so'zlar va ifodalar tibbiyot sohasida fikrlarni yoritish va ma'lumot almashishda juda muhimdir. Taraqqiyot o'rtasida, yangi so'zlar va fikrlar paydo bo'lishi mumkinligi bilan, terminologiyada ham yangilanishlar bo'lishi mumkin. Tibbiyot sohasida ishlatiladigan terminlar, o'ziga xos ma'nolari va turli xil shakllari bilan bir biriga chambarchas bog'liqdir. Bu terminlarni o'rganish uchun tibbiyot sohasidagi maxsus bilim va tajribaga ega bo'lish talab qilinadi. Tibbiyot terminlari ularning ma'nolari va kelishuv shakllari bo'yicha boshqa so'zlardan farqli bo'ladi. Tibbiyot terminlarining semantik xususiyatlari, tibbiyot sohasidagi terminologiya va tushunchalarning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi. Bu terminlar, tibbiyot sohasida ishlatiladigan maxsus so'zlar, ularning ma'nolari, kelishuv shakllari va ularning o'zaro aloqalari haqida ma'lumot beradi. Uzoq vaqt davomida tilshunoslarning tibbiy lug'at zaiflashmadi, aksincha, maxsus sharoitlar tufayli tibbiyot tilining faoliyati va rivojlanishi tobora yangilanib bormoqda deb fikrlar bildiradilar.

Fransuz va o'zbek tillarida tibbiyot terminlarining leksik semantik tasnifining tarkibiy va semantik xususiyatlari, tibbiyot so'zlarining aniq ma'noni ifodalash, ularning tahlil qilinishi va ularning tibbiyot sohasida hamkorlikda qo'llanilishi uchun mo'ljallangan. Semantik xususiyatlar tibbiyot so'zlarining ma'noni va ularning ana shu so'z bilan bog'liq bo'lgan so'zlar bilan birga qanday foydalanilishi va ularning tibbiyotda qanday ma'no berilganligi haqida ma'lumotlarni ifodalaydi.

Semantik xususiyatlar tibbiyot terminologiyasida juda muhimdir, chunki ular tibbiyot so'zlarining ma'noni, ularning bir-biriga bog'liqlik darajasi va ularning tibbiyot sohasida qanday shaklda foydalanilishi haqida ma'lumot beradi. Tibbiyot terminlari, tibbiyot so'zlarining aniq va ma'noli tushunchalarini ifodalash uchun ishlatiladi. Bu terminlar, tibbiyot so'zlarining ma'nolari, ularning xususiyatlari va ulardan foydalanish usullari haqida ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Tibbiy terminlar, tibbiyot sohasida ishlatiladigan maxsus so'zlar, ularning ma'nolari, turli shakllari va ularning o'zaro aloqalari haqida ma'lumot beradi.

Tibbiyot terminlari orasida bir-biriga o'zaro aloqalar mavjud. Bu aloqalar, ularning ma'nolariga va turli xil shakllariga bog'liq bo'ladi. O'rganilayotgan tibbiy atamalar turli xil leksik va semantik guruhlariga tegishlidir. Hosil bo'lgan tibbiy atamalarning ko'p qismi ot so'z turkumini o'z ichiga oladi. Tadqiqotlar natijasida tibbiyot terminlarining nazariy asoslari aniqlandi va hozirda ularni amaliyotga qo'llash chora tadbirlari amalga oshirilmoqda. Unga ko'ra tibbiy atamalar tibbiy terminologik sifatida nutqning barcha qismlari bilan ifodalanadi. Tibbiy atamalarni semantik taqqoslash bizga so'z ma'nosining o'zgarishi va o'zgarimasligi bilan bog'liq bo'lgan almashinish qobiliyatini aniqlashga yordam berdi. Tibbiyot terminlarining semantik xususiyatlari, ularning ma'nolari va turli shakllari bilan bog'liqdir. Hozirgi zamon tibbiy atamashunosligi tom ma'noda keng va murakkab atamalar tizimi hisoblanib, bir necha yuz ming so'z va so'z birikmalarini o'z ichiga oladi. Fransuz va o'zbek tillarida tibbiyot terminlarining leksik semantik tasnifi keng ochish, hamda lotin tili vositalarining murakkab va xilma-xil tizimiga ega ekanligi amaliy aniqlashtirishdan iborat. Tilning barcha darajadagi vositalari - fonetik, morfemik, leksik-semantik va sintaktik vositalar yordamida yangi leksik birliklar yaratilishini mazmuniy isbotlashdan iborat.

Xulosa. Tilda so'z yasash tilning lug'at boyligini rivojlantirishning asosiy, eng muhim usuli hisoblanadi, chunki so'z yasash sohasida til rivojlanish qonuniyatlari ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Tibbiyot terminlarining semantik xususiyatlari, ularning ma'nolari va ishlatilishiga oid qoidalarni o'rganishdan iboratdir. Fransuz va o'zbek tillarida tibbiyot terminlarining leksik semantik tasnifining tarkibiy va semantik xususiyatlari, tibbiyot so'zlarining aniq ma'noni ifodalash, ularning tahlil qilinishi va ularning tibbiyot sohasida hamkorlikda qo'llanilishi uchun mo'ljallangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Агафонов, А.Н. Этимология и семантика некоторых медицинских терминов / А.Н. Агафонов // Вестник Смоленской государственной медицинской академии. – 2015. – Т. 14. – № 3. – С. 97– 102.
2. Авербух, К.Я. Проблема вариантности терминологии и неполные термины / К.Я. Авербух // Лексика, терминология, стили. – Горький, 1977. – Вып. 6. – 187 с.
3. Авербух, К.Я. Стандартизация терминологии: некоторые итоги и перспективы / К.Я. Авербух // НТИ / К.Я. Авербух. – 1985. – Сер. 1. – № 3. – 104 с.
4. Азизова, М.Х. Функционирование медицинских терминов в таджикском и английском языках (на материале названий болезней): дис. ... канд. филол. наук: 10.02.20 / Азизова Мастона Хамидовна. – Душанбе, 2016. – 162 с.

5. Алексеева, Л.М. Проблемы термина и терминообразование. Пермь, 1998. – 325 с.
6. Багана, Ж., Величкова, С.М. Проблемы медицинской терминологии (на материале немецкого языка) / Ж. Багана, С.М. Величкова // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Лингвистика. – 2013. – № 2. – С. 23 – 28.

10.00.00 – Filologiya

**OLIY O‘QUV YURTLARIDA RUS TILINI O‘QITISHDA KOMPLEKS
YONDASHUV**

Mirrahimova Gulbahor Shuhratovna,

Toshkent tibbiyot akademiyasi, O‘zbek va xorijiy tillar kafedrası

Annotatsiya: Maqolada oliy ta’lim muassasalarida talabalarga sifatli ta’lim berish, mamlakatimiz ta’limini modernizatsiya qilish bo‘yicha izchil chora-tadbirlar, bu borada xalqaro ta’lim standartlarini joriy etish, oliy o‘quv yurtlari talabalarini o‘qitish uslublaridan foydalanish va atrofdagilar bilan kasbiy muloqot madaniyatini yuksaltirishdan iboratdir. Maqolada bu borada qilinayotgan say-harakatlar va keyingi yillarda amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim, o‘qitish metodikasi, zamonaviy talablar, kasbiy tayyorgarlik, tibbiyot ta’limi, modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalar.

Аннотация: В статье качественное образование студентов в высших учебных заведениях, последовательные меры по модернизации образования нашей страны, внедрение международных стандартов образования в этой связи, использование методов обучения студентов вузов и окружающей среды направлены на повышение культуры профессионального образования. В статье анализируются усилия, предпринятые в этом направлении, и работа, проведенная в последующие годы.

Ключевые слова: высшее образование, методика преподавания, современные требования, профессиональная подготовка, медицинское образование, модернизация, современные технологии.

Annotation: The article discusses the provision of quality education to students in higher education institutions, consistent measures to modernize our country's education, the introduction of international educational standards in this regard, the use of teaching methods for students of higher education institutions, and the improvement of the culture of professional communication with those around them. The article analyzes the efforts being made in this regard and the work being carried out in recent years.

Keywords: higher education, teaching methodology, modern requirements, professional training, medical education, modernization, modern technologies.

Kirish. Bugungi kunda dunyoda bo‘lajak tibbiyot xodimlarida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish ilmiy zarurat sifatida e’tirof etilmoqda. O‘quv adabiyotlarining tuzilishi, mazmuni va mazmunini xalqaro talablar bilan uyg‘unlashtirish chet tilini o‘qitish samaradorligining muhim omilidir. Bu borada barcha ta’lim muassasalari faoliyatida kutilgan natijalar, sifat va samaradorlikka erishish muhim ahamiyatga ega. Til savodxonligini yuqori standartlarga olib chiqish uchun xorijiy tajribani o‘rganish, hamkorlikda izlanishlar olib borish zarurligini tushuntiradi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ta’lim tizimini isloh qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda va bu ezgu maqsaddir. Har qanday davlat va jamiyat taraqqiyoti yosh avlod kamoloti, intilishlari va jasorati bilan uzviy bog‘liqdir. Shu o‘rinda alohida ta’kidlash joizki, ta’lim tizimi va ta’lim sohasidagi qonunlar hamda davlat dasturlarida yuqori malakali kadrlar tayyorlash, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlash, yoshlarni milliy va milliy g‘oyalar ruhida tarbiyalash kabi muhim vazifalar muvaffaqiyatli hal etilmoqda. umuminsoniy qadriyatlar.

Barcha darajadagi xalqaro aloqalar va hamkorlikni kengaytirish, O'zbekistonning Yevropa va jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv siyosati hayotimizning barcha sohalari, jumladan, ta'lim ham kamida ikkita xorijiy tilni bilishni nazarda tutuvchi xalqaro standartlarga mos kelishini anglatadi. Natijada, chet tillarini bilish insonning shaxsiy va professional muloqoti sohasida juda muhim mahoratga aylanadi va xalqaro yo'naltirilgan shaxsni shakllantirishga yordam beradi. Mamlakatimizdagi zamonaviy ta'limda ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'quvchilarda zarur fazilatlarni shakllantirish imkonini beruvchi vositalar, shakl va texnologiyalarning keng tanloviga ega. Chet tili o'qituvchilari uchun ko'p tilli o'qitish ana shunday texnologiyaga aylandi. Birinchi chet tili asosida ikkinchi chet tilini o'rgatishda talabalar bir vaqtning o'zida bir nechta chet tillarini o'zlashtirish jarayonida duch keladigan asosiy muammolarni o'rganish hamda ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Shubhasiz, ikkinchi chet tilini o'rganish nafaqat ona tilini, balki chet tilini ham hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Shuningdek, o'rganilayotgan tillarning yaqinligi va ularning o'zaro kirib borish tendentsiyalarini hisobga olish kerak. Rus tilini ingliz tili asosida o'qitishning uslubiy usullari sifatida interferensiyaning ijobiy xususiyatlaridan foydalanishga arziydi.

Tilshunoslikda har bir ta'lim bosqichida shaxsni shakllantirish tamoyillarini o'rganish, hayotiy ehtiyojlarni ilmiy jihatdan tadqiq etish, milliy-ma'naviy qadriyatlarni asrab-avaylash va kelajak avlodlarga yetkazish, muloqot qilishning iqtisodiy va iqtisodiy vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Chet tillarni o'rganishning mavjud tizimini o'zgartirish, har bir bosqich uchun xalqaro standartlarga mos o'quv-uslubiy majmualar yaratish, ta'lim tizimini muntazam takomillashtirish vazifalari chet tillarni o'rganishning prinsipial yangi yo'llarini belgilab berdi. Bugungi globallashtirish jamiyatida ma'lum bir chet tilini bilish juda muhim, bu tillarning qanchalik muhimligini ko'rsatadi. Bugun mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatish va o'rganishga har qachongidan ham ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Xususan, rus tilini mukammal o'rganish Rossiya va MDH davlatlari bilan hamkorlikni yanada mustahkamlash, iqtisodiy va diplomatik aloqalarni mustahkamlash imkonini beradi.

Bugungi kunda jahon hamjamiyati ta'lim sifati va samaradorligini oshirish uchun ta'lim jarayonida zamonaviy ta'lim masalasini hal qila boshladi. Xorijiy tillarni zamonaviy usul va vositalardan foydalangan holda tez, oson va sifatli o'rgatish ta'lim sifati, maqsad va natijalarning izchilligi, belgilangan maqsadlarga erishish demakdir. Xorijiy tillarni bilish har bir mutaxassisning o'z faoliyat yo'nalishi bo'yicha ilg'or usullardan foydalana olishi va yetuk mutaxassis sifatida samarali dars bera olishi uchun mutaxassisligidan qat'iy nazar, muhim mezonlardan biridir. Xususan, tibbiyot xodimlari xorijiy tillardan birini mukammal bilishi, nufuzli xalqaro seminar va treninglarda ishtirok etishi, o'z fikr-mulohazalarini bildirishi, o'quv adabiyotlarini kasbiy nuqtai nazardan tarjima qilishi va ular ustida ish olib borishi mumkin. Oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan navqiron avlod zamon talablari darajasida yetuk mutaxassisdir. Asosiysi, o'qituvchining faoliyati shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga asoslanishi kerak, bu kommunikativ va faol xarakterga ega bo'lib, o'zaro tushunish va samarali hamkorlik muhitini yaratadi, bunda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari yuqori hissiy jihatdan ma'lumot almashadilar. Va bu, amaliyot shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish uchun qo'shimcha manbadir. Ishga joylashishning asosiy mezonlari: o'z-o'zini tayinlash, asosiy bilim, chet tillarini bilish va ish tajribasi. Biroq, chet tillarini bilish asosiy mezonlardan biri bo'lib, xodimlar xizmatlari tomonidan katta talabga ega. Chet tilini bilish muvaffaqiyatli martabaning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, bo'lajak mutaxassisning shaxsiy o'sishiga yordam beradi va uning aqliy faoliyatini faollashtiradi.

Xulosa. Yuqorida aytilganlarning barchasidan xulosa qilishimiz mumkinki, universitetlarda, xususan, tilga oid bo'lmagan universitetlarda bunday ko'p qirrali vazifani hal qilish uchun xorijiy tillarni o'qitishning mavjud tizimini qayta ko'rib chiqish zarur. Birinchi va

ikkinchi chet tillarining grammatik va sintaktik xususiyatlaridagi o'xshashlik va farqlarning aniq namoyon bo'lishi grammatik materialni yanada samarali o'zlashtirishga yordam beradi, o'rganilgan grammatik tuzilmalarni nutq faoliyatida ongli ravishda qo'llashga yordam beradi va qo'shimcha ravishda chet tilini o'rganishga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Боев О.В., Коростелева Е.Н., Чучалин А.И. Проектирование магистерских программ на основе планирования компетенций специалистов. / Под ред. проф. А.И. Чучалина: Томск: Изд-во ТПУ, -2007. - 63 с.
2. Гаврилова О.В. Современные проблемы обучения бакалавров в неязыковом вузе // Вестник Оренбургского государственного университета. - 2014. - №2. - С. 40-43.
3. Шагбанова Х.С. Формирование языковой компетентности в сфере бытового и профессионального общения у студентов вузов // Вопросы гуманитарных наук. - 2007. -№ 3 (30). - 395 с.
4. Международный журнал экспериментального образования. - 2016. - № 3-2. - С. 312-315;
5. Рысбаева Г.А., Медетбекова Н.Н. Иностранный язык как средство формирования адаптации к профессиональной деятельности

10.00.00 – Filologiya

**FRANSUZ VA O‘ZBEK TILLARIDA XARAKTER IFODALOVCHI OTLI
FRAZEOLGIK BIRLIKLAR**

Primova Munisa Majlimovna

ALFRAGANUS UNIVERSITY NOTT,

Farmatsevtika va kimyo kafedrasining katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada tilshunoslik sohasida olib borilayotgan tadqiqotlarning aksariyat qismida til va madaniyat birligi to‘g‘risidagi g‘oyalar yetakchilik qilmoqda. Darhaqiqat, ikki tilda so‘zlashayotgan kishilar o‘rtasidagi muloqotni nafaqat til vositasida axborot almashish sifatida, balki, ikki xalq madaniyati o‘rtasidagi muloqot deb baholash to‘g‘ri bo‘ladi. Aynan shu sababli keyingi vaqtlarda olimlar o‘rtasida frazeologizmlarning madaniy axborot almashish funksiyasini, ya‘ni frazeologizmlarning semantik strukturasi bir necha avlodlarning dunyoqarashi va dunyoni bilish sohasidagi tajribalarini aks ettirish vazifalarini o‘rganishga qiziqish ortib bormoqda.

Kalit so‘zlar: frazeologik birikmalar, o‘zgaruvchan birikmalar, til birliklari, leksemalar, fransuz va o‘zbek tillari, yetakchi komponent.

Аннотация: В статье большинство исследований, проводимых в области языкознания, руководствуются идеями о единстве языка и культуры. На самом деле общение между людьми, говорящими на двух языках, правильнее оценивать не только как обмен информацией посредством языка, но и как общение культур двух народов. Именно по этой причине ученые все больше интересуются изучением функции культурно-информационного обмена фразеологии, то есть задач отражения в семантической структуре фразеологии мировоззрения и опыта нескольких поколений в области познания мира.

Ключевые слова: фразеологические сочетания, вариативные сочетания, языковые единицы, лексемы, французский и узбекский языки, ведущий компонент.

Abstract: The article argues that in most of the research conducted in the field of linguistics, the ideas of the unity of language and culture dominate. Indeed, it would be more correct to assess the communication between people speaking two languages not only as an exchange of information through language, but also as a dialogue between the cultures of two peoples. That is why recently there has been a growing interest among scientists in studying the function of phraseologisms as a means of exchanging cultural information, that is, in the semantic structure of phraseologisms, reflecting the worldview and experience of several generations in the field of knowledge of the world.

Keywords: phraseological units, variable combinations, linguistic units, lexemes, French and Uzbek languages, leading component.

Kirish. Frazeologizmlar yasalişini o‘rganish frazeologik birikmalar tarkibiy qismlarini har tomonlama va chuqur tadqiq qilishni taqozo etadi. Frazeologik birikmalar katta qismining tarkibi so‘z-komponentlarni o‘z ichiga oluvchi o‘zgaruvchan birikmalardan tashkil topadi. O‘zgaruvchan birikmalar va frazeologik birikmalar yasaliş mohiyatini ushbu til birliklari tarkibiga kiruvchi leksemalarning tarkibi va semantik tabiatining asosiy qirralarini o‘rganish orqali tushunish mumkinligiga G.G. Sokolova ishora qilgan [Sokolova, 1987: 22].

Har bir tilning frazeologik birikmalari o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, ular ko‘p jihatdan muayyan tilning leksik-grammatik va stilistik tabiatiga bog‘liq bo‘ladi. Frazeologik

birliklarning o'ziga xosligi ularning ma'nosida, grammatik tuzilishida, leksik tarkibida namoyon bo'ladi.

Fransuz va o'zbek tillari frazeologik birikmalarini tipologik qiyosiy o'rganishdan maqsad ularning asosiy grammatik va struktur turlarini aniqlashdan iborat. Shu nuqtai nazardan fransuz va o'zbek tillari frazeologik birikmalarini quyidagi belgilarga qarab klassifikatsiya qilishimiz mumkin:

1. Tuzilish prinsipiga ko'ra – mustaqil ma'noga ega so'zlar miqdoriga ko'ra. Frazeologik birliklar tuzilishiga ko'ra sodda va murakkab turlarga bo'linadi. Sodda frazeologik birliklar aniqlovchi va aniqlanmishdan tashkil topgan bo'lsa, murakkab tuzilishli frazeologik birliklar uch va undan ortiq mustaqil ma'noli so'zlardan tashkil topadi. Ular komponentlarning kengayib borishi bilan ajralib turadi.

2. Frazeologik birliklarni tashkil etuvchi yetakchi komponentning morfologik jihatdan qaysi turkumga mansubligiga ko'ra. FBning yetakchi komponenti bu grammatik jihatdan mustaqil, muayyan so'z turkumiga mansub va gap bo'lagi vazifasida keluvchi va shu bilan frazeologik birlikning mavjudligini belgilovchi bo'lak hisoblanadi. Biz o'rganayotgan inson xarakterini ifodalovchi frazeologik birliklarning ot, fe'l va sifat komponentli turlari mavjud.

3. Frazeologik birlik tobe bo'lagining yetakchi bo'lakka nisbatan oldin yoki keyin kelishiga ko'ra.

4. Sintaktik funksiyasiga ko'ra.

5. Frazeologik birliklar komponentlari o'rtasidagi sintaktik munosabatlarga ko'ra egalik va noegalik turlar ajratiladi. Egalik frazeologik birliklar o'zbek tilida moslashuv yordamida, noegalik frazeologik birliklar esa boshqaruv va bitishuv yordamida hosil bo'ladi

Frazeologik birikmalarining ifoda plani erkin birikmalar yoki gaplardan farq qilmasligini O.Nazarov xam ta'kidlaydi. Uning ta'kidlashicha, erkin sintaktik birikmalar strukturasiidan farqlanuvchi, frazeologizmlarning o'zigagina xos bo'lgan struktur tuzilish bo'lishi mumkin emas. Tildagi barcha frazeologizmlar ular mansub bo'lgan muayyan tilda mavjud bo'lgan erkin sintaktik qurilmalar namunasida yasalgan bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, frazeologizmlar o'z tuzilishiga ko'ra odatdagi so'z birikmalari tuzilishidan farq qilmaydi [Nazarov, 1973: 163-164].

Shundan kelib chiqib, frazeologiyada quyidagi birliklar farqlanadi:

1. Tuzilishiga ko'ra so'z birikmasiga teng bo'lgan frazeologizmlar;
2. Tuzilishiga ko'ra gapga teng bo'lgan frazeologizmlar (Shanskiy N.M., 1963; Raxmatullaev Sh., 1966; Molotkov A.I., 1977.).

Bu maqolamizda so'z birikmasiga teng bo'lgan frazeologizmlarni tadqiq qilamiz va ularni quyidagi mezonlar asosida guruhlariga ajratamiz:

1. Asosiy komponentning morfologik ifodalanishiga ko'ra. Morfologik nuqtai nazardan FBlar u yoki bu so'z turkumiga bog'langan bo'ladi. Shu sababli ularni asosiy komponentning grammatik shakliga ko'ra guruhlariga bo'lish maqsadga muvofiq. FBning asosiy komponenti deganda grammatik jihatdan mustaqil, muayyan so'z turkumiga oid bo'lib, u yoki bu gap bo'lagi vazifasida kelgan komponent tushuniladi.

Fransuz va o'zbek tilarida xarakter ifodalovchi frazeologik birliklarning struktur tahlili shuni ko'rsatdiki, qiyoslanayotgan tillarda quyidagi tuzilishdagi birliklar mavjud:

1. Otli frazeologik birliklar;
2. Fe'lli frazeologik birliklar;
3. Sifat (ravish) asosli frazeologik birliklar.

Otli frazeologik birikmalarga ot so'z turkumidagi so'zlar bilan bir xil vazifani bajaruvchi va asosiy komponenti otdan tashkil topgan birikmalar kiritiladi.

Fransuz tilida substantiv frazeologik birikmalarining aksariyat qismi ot so'z turkumi bosh bo'lak sifatida keladigan predikativsiz birikmalardan iborat. Qisman predikativ va predikativ bog'lanish asosida yasalgan frazeologik birikmalar ozchilikni tashkil etadi.

Soʻz birikmalari komponentlarining oʻzaro birikish usuliga koʻra izofaning uch xil koʻrinishi mavjud.

Birinchi tip izofali birikmalarning komponentlari hech qanday grammatik belgilersiz bitishuv yoʻli bilan qoʻshiladi, yaʼni bunday birikmalarning oʻzaro bogʻliqligi «soʻz tartibi va birlashtiruvchi intonatsiya bilan belgilanadi» [Doniyorov, 1977: 99]. Masalan: *latta yurak, poʻstak kalla, tovuq miya, tosh yurak, qovoq kalla*, Bunday strukturali frazeologik birikmalar oʻzbek tilida kam uchraydi.

Ikkinchi tip izofali birikmada birinchi komponent bosh kelishik shaklida, ikkinchi komponent esa egalik qoʻshimchasi bilan keladi [Doniyorov, 1977: 99].

Uchinchi tip izofada har ikkala komponentning grammatik belgisi boʻladi. Birikmaning strukturali «ot + qaratqich kelishigi qoʻshimchasi + ot + egalik qoʻshimchasi» modelida ifodalanadi. Bunday tipdagi izofali birikmalar ikkinchi tipdagi izofadan grammatik jihatdan qaratqich kelishigining formal ifodalanishi bilan farq qiladi. Masalan, ammamning buzogʻi, miltiqning oʻqi, shaytonning urgʻochisi, yigitning xoʻrozi – yigitlar ichida eng zoʻri. Bunday frazeologik birliklar gapda ot soʻz turkumiga xos funksiyalarda keladi. Masalan:

Bektemirdan koʻnglim toʻq, -dedi Ali tajang, -kallasi ishlaydi. Ammo Safar choʻtir, u ham qoʻrqoq, ham **ammamning buzogʻi**. (Oybek, Qutlugʻ qon).

Bu gapda ammamning buzogʻi iborasi ot kesim funksiyasida kelmoqda. Tadqiqotimiz davomida ushbu modeldagi iboralarda asosiy qismi aniqlovchi orqali ifodalanadigan frazeologik birliklar ham borligi aniqlandi. Masalan, *itning keyingi oyogʻi* (ish-faoliyat va shu kabilarda qatordagilardan (boshqalardan) eng oxirda ekanlikni bildiradi) [<https://savodxon.uz>] birikmasida «oyogʻi» soʻzi aniqlovchi vazifasidagi «keyingi» soʻzi orqali yoyilishi kuzatiladi.

Koʻrinadiki, oʻzbek tili frazeologik qatlamida uchala tip izofali birikmalar uchraydi. Ularning ichida ikkinchi tip izofali terminlar eng mahsuldor hisoblanadi.

1. Adj+Subs modelida yasalgan frazeologizmlar. Frazeologik birikmalarning bunday modeliga biz ot funksiyasini bajaruvchi birliklarni kiritdik. Shunday tipda yasalib, aniqlovchi vazifasida keluvchi birliklarni biz sifat tarkibli birikmalarga kiritdik. Adj+Subs modelida yasaluvchi frazeologik birikmalarda tobe boʻlak bosh boʻlakdan oldinda turadi va ular bir-biri bilan moslashuv orqali bogʻlanadi. Masalan, muloyim supurgi – muomalasi yumshoq, muloyim, ammo oʻzi qattiq yoki quv odam [OʻTIL J.III, 2006: 589]. Boshqa misollar: yot tovuq, katta ogʻiz, tirik murda, ikki oyoqli boʻri.

2. Subs +Adj modelida yasalgan iboralarda tobe boʻlak bosh boʻlakdan keyin keladi va ular bitishuv yoʻli bilan bogʻlanadi. Masalan, bagʻri butun, musichai beozor, mulla quruq. Ushbu modelda yasalgan iboralarda komponentlarning oʻzaro almashinib kelishini kuzatdik. Masalan:

- bagʻri butun, bagʻri qon, bagʻri keng;
- yuragi qon, dili qon, bagʻri qon;
- koʻngli toza, koʻngli oq; koʻngli ochiq, koʻngli qattiq;
- istarasi issiq, istarasi sovuq, soʻxtasi sovuq.

Shunday qilib, fransuz va oʻzbek tillarida inson xarakterini ifodalovchi otli frazeologik birliklarni qiyosiy tahlili bizga quyidagilarni aniqlash imkoniyatini yaratdi:

1. Inson xarakterini ifodalovchi otli frazeologik birliklar komponentlari fransuz tilida moslashuv, boshqaruv va bitishuv vositasida, oʻzbek tilida esa koʻproq moslashuv va bitishuv vositasida bogʻlanadi. Oʻzbek tilida komponentlar bogʻlanishida bitishuv dominantlik qilsa, fransuz tilida esa moslashuv asosida bogʻlanish ustunlik qiladi.

2. Fransuz tilida 80% frazeologik birliklarda tobe boʻlak bosh boʻlakdan oldin kelsa, oʻzbek tilida frazeologik birliklarning eng katta qismida tobe boʻlak bosh boʻlakdan keyin kelishi aniqlandi. Oʻzbek tilida bu koʻrsatkich 62% tashkil etadi.

3. Fransuz tilida otli frazeologik birliklarning tobe bo‘lagi bosh bo‘lak bilan jins va sonda moslashadi. O‘zbek tilida tobe bo‘lak bosh bo‘lak bilan son va kelishikda moslashadi. O‘zbek tilida jins kategoriyasi mavjud emas.

4. Inson xarakterini ifodalovchi otli frazeologik birliklar qiyoslanayotgan har ikki tilda ega, aniqlovchi va ot kesim vazifasida keladi.

Xulosa. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida boshqa fanlar qatori tilshunoslik fani tobora taraqqiy etib kelmoqda. Uning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan frazeologiya ilmi xususida ham xuddi shunday fikrni aytish mumkin. Frazeologik birliklar o‘zida xalqning til va nutq xususiyatlarini aks ettirishi bilan doimo tilshunos olimlarning e’tiborini tortib kelgan. Bugunga qadar turli tillarning frazeologiya masalalari atroflicha o‘rganilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdullaeva R.Yu. O‘zbek tilida xarakter ifodalovchi birliklar semantikasi: Filol. fanlari bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) ... dis. avtoref. – Namangan, 2021. – 24 b.

2. Азимова М.А. ФЕ со структурой простого предложения в современном немецком и узбекском языках (опыт сравнительно-сопоставительного анализа): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тбилиси, 1981. – 32 с.

3. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. – Л., 1963. – 208 с.

4. Алеева Г.Х. Сопоставительный анализ фразеологических единиц, характеризующих внешность человека в английском и турецком языках: Дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 1999. – 165 с.

5. Балли Ш. Французская стилистика. – М., 1961. – 394 с.

10.00.00 – Filologiya

ISTIQLOL DAVRI ROMANLARI GENEZISI

Yaqubov Islomjon Ahmedjonovich

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU professori, filologiya fanlari doktori

E-mail: islamjon.yakubov.61@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyingi davrda yaratilgan romanlarning shakllanish bosqichlari, ularning badiiy tafakkur taraqqiyotidagi o‘rni hamda adabiy jarayondagi tutgan mavqei o‘rganiladi. Mustaqillik davri romanlarida tarixiy haqiqat, milliy o‘zlik, ijtimoiy-ma’naviy muammolar, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar badiiy talqin etilgan. Shuningdek, maqolada bu romanlar genezisining ijtimoiy-siyosiy omillar bilan bog‘liqligi, adiblar qalamiga mansub asarlardagi syujet, obraz, mualliflik pozitsiyasi hamda janr jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari mustaqillik davri adabiyotining yangi bosqichini ilmiy asosda anglash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: istiqlol davri, roman, genezis, milliy o‘zlik, tarixiy haqiqat, adabiy jarayon, syujet, obraz, mualliflik pozitsiyasi, badiiy tafakkur.

ГЕНЕЗИС РОМАНОВ ПЕРИОДА НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация. В данной статье рассматривается генезис узбекских романов периода независимости. В ней обосновано, что гармония культур народов мира явилас фактором возникновения новых формально-стилистических исследований не только в общественной и культурной, но и в литературной жизни. Автор объяснил это на примере того, что узбекские романисты периода независимости учились у таких древних философов, как Сократ (Сократ), Платон (Плато), Аристотел (Аристотел), а также произведений, созданных в европейских философских направлениях. 19 века. Сегодня проблема эстетического восприятия мира, его описания, задачи художественного творчества значительно расширились.

Если мы посмотрим на нынешние узбекские романы, то увидим, что невозможно прекрасно понять и интерпретировать события, основанные на восточных религиозных основах, западным сознанием и свободой воли. Нет сомнения, что эффективное использование методов и средств, соответствующих поэтике конкретного художественного текста восточных и западных философско-эстетических воззрений, даст положительные результаты. «Люди любви» (О. Мухтар), «Птица в степи Фано», «Пахлан Мухаммад» (А. Дилмурод), «Божий колодец» (Э. Самандар), «Последнее путешествие Ясави» (С. Сиёев), «Равновесие», «Бунтар и повиновение», «Сабо и Самандар» (У. Хамдам) доказывают наше мнение.

Представляется, что особенности художественного творчества следует изучать на основе наследования, опираясь на источники потребления. При этом нашему современному литературоведению уместно подходит к художественному тексту на основе эстетических критериев, изучать и интерпретировать его духовные, духовно-эстетические корни.

Ключевые слова. Роман, герой, писатель, генезис, направление, текст, литературоведение, поэтика, культурная жизнь, литературный процесс, литература периода независимости.

THE GENESIS OF THE NOVELS OF THE INDEPENDENCE PERIOD

Abstract. This article examines the genesis of Uzbek novels of the independence period. It substantiates that the harmony of cultures of the peoples of the world was a factor in the emergence of new formal-stylistic studies not only in social and cultural, but also in literary life. The author explained this using the example of the fact that Uzbek novelists of the independence period learned from such ancient philosophers as Socrates (Socrates), Plato (Plato), Aristotle (Aristotle), as well as works created in European philosophical trends. 19th century. Today, the problem of aesthetic perception of the world, its description, the tasks of artistic creativity have expanded significantly.

If we look at the current Uzbek novels, we will see that it is impossible to perfectly understand and interpret the events based on Eastern religious foundations with Western consciousness and free will. There is no doubt that the effective use of methods and means corresponding to the poetics of a specific artistic text of Eastern and Western philosophical and aesthetic views will give positive results. "People of Love" (O. Mukhtar), "Bird in the Steppe of Fano", "Pahlvan Muhammad" (A. Dilmurod), "God's Well" (E. Samandar), "The Last Journey of Yasawi" (S. Siyoev), "Balance", "Rebel and Obedience", "Sabo and Samandar" (U. Hamdam) prove our opinion.

It seems that the features of artistic creativity should be studied on the basis of inheritance, relying on sources of consumption. At the same time, it is appropriate for our modern literary criticism to approach the artistic text on the basis of aesthetic criteria, to study and interpret its spiritual, spiritual-aesthetic roots.

Keywords. Novel, hero, writer, genesis, trend, text, literary criticism, poetics, cultural life, literary process, literature of the independence period.

Insoniyat tarixida shunday jarayonlar borki, dunyo xalqlari madaniyatining uyg'unlashuvi yangi hodisalarni yuzaga chiqarganligi kuzatiladi. Masalan, ellinlar madaniyatining sharqdagi mahalliy xalqlarning madaniyati bilan birikuvi o'sha davrdagi tarixiy vaziyatning, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy munosabatlarning mahsuli edi. Sharqning yunon va makedon madaniyati bilan, aksincha ularning Sharq madaniyati bilan tanishuvi Bolqon yarim orollari, Egey dengizidagi orollar, Kichik Osiyo, Misr, Old Osiyo, O'rta Osiyoning janubiy tumanlari, Markaziy Osiyoning bir qismi yaxlit makonga aylanishi tufayli sodir bo'ldi. Demakki, yaxlitlik nafaqat iqtisodiy, balki madaniy taraqqiyotning ham muhim omili.

Ellinizm [6] davrida adabiyot va san'at ijtimoiy-siyosiy jangavor ruhdan chinakam san'at yo'nalishiga, ko'ngil izhoriga, insoniy munosabatlar tasviriga o'tdi. Alohida odamning kayfiyatini ko'rsatish muhim sanala boshlandi. Adabiyot va san'at baland didli kitobxon saviyasiga yuksaldi. Menandr (*Afina*) dramalarida ruhiy-psixologik teranlik; shoir Kallimax (*Shimoliy Afrika*) ijodidagi qisqalik, aniqlik, o'tkirlik, klassik adabiyot an'alaridan qochish, epigrama, epilliya, gimn janrlariga murojaat etish; Feokrit idilliyalaridagi ko'tarinki romantik ruh; nasriy asarlardagi folklorga yaqinlashish singari belgilar keyingi davr yunon va Rim adabiyotiga poydevor vazifasini o'tadi. San'at sohasida mahalliy an'analarga, buyuk san'at ustalariga ergashib ish ko'ruvchi oqimlar yuzaga keldi. Tasviriy san'atda haykal va portret; rassomlikda mozika, manzara, natyurmort janrlariga ahamiyat ortdi. Ellinizm san'ati Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida mahalliy san'atning qadimiy an'analari bilan uyg'unlikda rivojlandi.

Demak, tarixiy vaziyat, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy munosabatlardagi globallashuv fikr-tuyg'uning makoniy kengayib, zamoniylar chegaralardan o'zib, yanada boyib borishi, dunyo xalqlari madaniyatining uyg'unlashuvini, yangi hodisalarning paydo bo'lishini ham taqozo etadi. Bu fikr o'zbek romannavislari antik falsafaning Suqrot (*Sokrat*), Aflotun (*Platon*), Arastu (*Aristotel*) va boshqa vakillari fikrlariga tayanishlari, XIX asr Yevropa falsafiy

yoʻnalishlarida yaratilgan asarlardan oʻrganishlari, shuningdek, tasavvufiy qarashlarga mayl bildirishlarining obʻektiv asoslari ham mavjud ekanligini koʻrsatadi.

Ijod ahli fikrlash madaniyatida gumanistik tamoyillar ustivor boʻla borishi madaniy merosning turli davr maxsullariga boʻlgan qiziqishni kuchaytirdi. Yevropa Renessansi yoxud Sharq Uygʻonish davrida kuzatilganidek, antik falsafa namoyondalarining asarlarini oʻrganishga boʻlgan uchli intilishni yuzaga chiqardi. Zotan erkin fikr yuritish kuni kecha oʻzgarmas deb qaralgan haqiqatlardan voz kechishga, botiniy isteʼdod va qobiliyatni roʻyobga chiqarish, ilmiy-falsafiy merosni oʻziga xos tadqiq qilish orqali insonning eng oliy qadriyat ekanligini isbotlashga imkon beradi. Zamondosh ijodkorlarimizda fikr teranlashgani, koʻngil ingichkalashgani uchun ham bugungi oʻzbek adabiyotida insonning botinini tadqiq etishga eʼtibor ortdi.

Adabiyotshunosligimizda Gʻarb estetikasi va badiiyati tamoyillari bilan zamonaviy adabiy jarayon hodisalarini bogʻlashga kuchli intilish mavjud. Shubhasiz, biz bu harakatning ijobiy jihatlari inkor etmaymiz. Ammo jonli adabiy jarayon tajribalarini oʻrganish, romanchiligimiz yetakchi tamoyillarini milliy va jahoniy asoslarda tadqiq etish adabiy-nazariy izlanishlarimizning asosini tashkil etadi. Adabiy jarayon ijodiylikka asoslangani bois, plyuralistik yangicha ijodiy tafakkur badiiy ijod tarzida ham koʻp tarmoqlilikni keltirib chiqardi. Bu esa yondoshuv usullari ham poetik hodisaning murakkab milliy tabiatiga mutanosib boʻlishini, birinchi navbatda romanda muallif nigohi orqali tasavvur qilingan borliqni tahlil qilishni talab etadi.

Illo, yozuvchining insonni tushunish va ifodalash yoʻli milliy-adabiy anʼanalar zaminiga ijodiy yondoshuv orqaligina oʻtadi. Chunki yozuvchi millat kishisining maʼnaviyati qirralarini tekshiradi, uning ruhiyatidagi koʻz ilgʻamas sezimlarni oʻz ichki ehtiyojidan kelib chiqib tadqiq etadi. Bu jarayonda fikrlash, anglash, taʼsirlanish hamda tushuntirish tamomila milliy asosda va mutlaqo individual tarzda kechadi. Zero milliy istiqlool davrida oʻzbekning olam hodisalarini qabul kilish va unga yondoshish tarzida sezilarli siljish sodir boʻldi. Oʻzbek romani oʻz taraqqiyotining oldingi bosqichlariga nisbatan teranroq darajada milliylashdi.

Chunki ijtimoiy va badiiy ong sogʻlomlashdi, fikrlar plyuralizmi tufayli adabiy hodisalar qayta idrok etila boshlandi. Millat nazaridan yashirin boʻlgan koʻplab asarlarning estetik olami inkishof etildi. Natijada olamni estetik idrok etish, tasvirlash, badiiy ijodning vazifalari bobidagi qarashlar ancha kengaydi. Adabiyotning maʼrifatchilik va jadidchilik bosqichlari bilan vorisiy aloqadorligi chuqurlashdigina emas, umumoʻzbek adabiyoti yaxlit bir jarayon sifatida anglandi. Milliy maʼnaviyatimiz ildizlari va islom tasavvufi asoslari bilan chuqurroq tanishish imkoni yuzaga chiqdi. Tasavvuf nazariyasi va tarixi, tasavvuf va badiiy ijod muammolari, tasavvufiy adabiyotning shakllanishi, taraqqiyoti hamda tasavvuf estetikasi, mumtoz poetika asoslari masalalari oʻrganilmoqda.

Minglab qoʻlyozmalar ilmiy isteʼmolga kiritildi. Ular orasida qadimgi mif va afsonalardan tortib «Avesto», «Xuastuanift», «Irq bitigi», «Oltin yoruq» dostonigacha; Imom Ismoil al-Buxoriyning «Al-jomeʼ as sahih», Zayniddin Muhammad Gʻazzoliyning «Kimyoi saodat», Mavlono Jaloliddin Rumiyning «Masnaviyi maʼnaviy», Xoja Ahror Valiyning «Risolai volidiya», Husayn Voiz Koshifiyning «Futuvvatnomai sultoni», Soʻfi Ollohyorning «Maslaku-l-muttaqin», Isʼhoq Bogʻistoniyning «Tazkirai qalandaron» asarlari; Fitrat, Choʻlpon Qodiriy bitiklarigacha uchratish mumkin. Shuning uchun ham umuman oʻzbek adabiyoti, xususan, milliy romanchilik taraqqiyotini F.M.Dostoeskiy, F.Nisshe yoxud Z.Freyd umuman olganda, yevropacha estetik qarashlar taʼsiri doirasidagina izohlash uning milliy-estetik hodisa ekanligiga birmuncha putur yetkazadi.

Dostoevskiyning «Bechora odam» (1846) romanida xoʻrlangan, ijtimoiy adolatsizlikka duchor boʻlgan «kichkina odamlar»ning ulkan qismati, odam haqida kuyunchaklik, ulugʻ insonparvarlik «Stepanchikov qishlogʻi va uning aholisi» (1859), «Xoʻrlanganlar va haqoratlanganlar» (1861), «Oʻlik xonadondan maktublar» (1861–1862) asarlarida jaholat

botqog'iga botib, insoniy qiyofasini yo'qotgan ruslar hayoti hikoya qilinadi. Yozuvchining «Jinoyat va jazo» (1866), «Telba» (1868) romanlarida ham rus xalqining ma'naviy muammolari qalamga olinadi. «Jinlar» (1871–1872), «O'smir» (1875) romanlarida esa rus «oqsuyaklari» tabaqasi, amaldorlar orasidagi ma'naviy qashshoqlik, amalparastlik, ochko'zlik va xudbinlik kabi illatlar chuqur ildiz otgani ko'rsatilgan. «Og'a-ini Karamazovlar» (1879–1880) romanida esa jamiyat va shaxs o'rtasidagi chuqur ziddiyat, ruhiy inqiroz fojiasi o'z ifodasi topgan.

Ko'rinadiki, F.M. Dostoevskiy XIX asrdagi realistik roman janrini o'ziga xos jihatlar bilan boyitgan. U yaratgan to'laqonli badiiy obrazlarda nafaqat voqealar oqimi, insonlar taqdiri, qalb kurashi, balki jamiyat ma'naviy hayotidagi fojiaiy konfliktlar ham aks etgan. Yozuvchi har bir ayrim kishining kamoloti va baxt-saodatiga asoslangan ijtimoiy uyg'unlik haqidagi gumanistik g'oyalarni ilgari surdi. Xudbinlik, surbetlik, nifoq solish, sotqinlik singari inson ruhiyati va jamiyatdagi axloqiy tubanliklarni dard-alam bilan his etdi. Shu bois ham uning ijodida shaxsning ruhiy-axloqiy mushkulotlari bilan bog'liq bo'lgan muammolar yetakchilik qildi. Odam bolasi o'z amallariga javobgarlikni his qiladigan erkin iroda egasi sifatida idrok etildi.

F.M. Dostoevskiyning axloqiy tamoyillariga ko'ra har qanday hayotiy vaziyatda ham odam bolasi odam bo'lib qolmog'i, har qanday baxtsizlik qarshisida ham ruhan baland turmog'i lozim. Insonni nafaqat mavjud vaziyatga, hatto aql-farosat izmiga ham butkul bog'lab qo'ymaslik jihatidan F.M. Dostoevskiy qarashlari ma'rifatchilik nuqtai nazarini rad etadi. Chunki yozuvchining fikricha, shaxsning erkinligi faqat yaxshilik manbai bo'lmay, yomonlik manbai hamdir. Yomonlik esa kishilarning normal holati emas. Cheksiz erkinlik yoki vujudga kelgan munosabatlarga qarshi individualistik isyon zulmga olib keladi, shaxsni ma'naviy halokatga yetaklaydi. Inson xokisorlik, sabr-bardosh orqaligina ruhiy uyg'unlikka erisha oladi [1. 231].

Xullas, adibning sof dramatik janrga xos keskinlik va liro-publitsistik pafosi bilan ajralib turuvchi intellektual romanlarida fikrlarning keskin kurashi, g'oya va dunyoqarashlarning fojiaiy to'qnashuvi mahorat bilan tasvirlangan. Shuning uchun ham uning romanlari jahon adabiyoti, adabiyotshunosligi, xususan o'zbek romanchiligi va romanshunoslik ilmiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. U badiiy shakl borasida ulug' novator sifatida maydonga chiqdi. Badiiy tafakkurning batamom yangi – polifonik tipini yaratdi. Garchand, adibning qarashlari romanlarida aks etgan bo'lsa-da, ularni aynan shu romanlar miqyosi bilangina cheklash mumkin emas. Zero F.M. Dostoevskiy Yevropa estetikasining Sharqona adabiy an'analardan uncha yiroq bo'lmagan ayrim asosiy tamoyillarini, aytish mumkinki, olam va odamni anglashning yangicha modelini yaratdi [1. 79].

Romanning tabiatini mavzu dolzarbligi, tasvir yo'siniga xos sarguzashtlilik, voqe-hodisalar qamrovi, hatto til badiiyati ham to'la belgilay olmaydi. Umuman badiiy ijod, xususan roman tabiatida qat'iy va turg'un belgilar emas, balki muallifning qahramonni tushunish va aks ettirishdagi qarashlar tizimi mohiyati – individual konsepsiyasi muhim omil vazifasini o'taydi. Chunki konkret roman ortiqcha tafsilotlardan tiyilish, alohida inson shaxsining nechog'lik teran tadqiq va tahlil etilganligi bilan qimmat kasb etadi. Shuning uchun ham u yoki bu muallif shaxs ichki olamini qay miqyosda tekshirishni maqsad qilganligi bugungi o'zbek romanchiligidagi shakliy-mundarijaviy izlanishlarni tushunishga kalit beradi.

Nemis faylasufi, irratsionalizm namoyondasi, *“hayot falsafasi”* ning asoschilaridan biri Fridrix Nisshe (1844 – 1900) falsafasida *“hayot”* tushunchasi markaziy o'rin egallaydi. Nisshe uni faqat intuitiv yo'l bilan bilish mumkin bo'lgan reallik deb izohlaydi va mohiyatan irratsional mazmunga ega bo'lgan hayotiy reallikni bilishning obrazli-simvolik usullarini ilmiy bilishga qarama-qarshi qo'yadi. Boshqacharoq aytganda, san'at asarlarini hayotni to'g'ri in'ikos ettirish va ifodalash vositasi deb bilgan Nisshe falsafasida bilishning aqliy (*ratsional*) usullari o'rnini estetik intuitsiya va olamni badiiy-estetik o'zlashtirish usullari egallaydi. Uning ta'kidlashicha,

san'at asarlari ma'naviy madaniyatning muhim unsuri sifatida insoniyat taraqqiyoti ilk davrlarida fanga nisbatan birinchi darajali rol o'ynagan. Faylasuf barcha hayotiy jarayonlarni, jumladan inson aqlini ham turli tizim va jamiyatlarni yaratishdan nariga o'ta olmasligi, nisbiy haqiqat sanalmish g'oyalar ifodasi sifatida tasvirlashga urinadi. Chunki u Charlz Darvinning yashash uchun kurash qonuni hamda Artur Shopengauerning olam mohiyatini olamda hukm suruvchi insoniy iroda bilan bog'lab tushuntiruvchi falsafiy qarashlaridan kuchli ta'sirlangan. Shu boisdan ham olim estetikasida jamiyat qonunlarigina emas, balki ilmiy bilishning mukammalligi ham inkor qilinadi. Nisshening fikricha hayot har qanday formula va tizimlarni chetlab o'tadi. U inson intellektining irodasiga bo'ysunmas darajada beqiyos murakkab va cheksiz yashirin imkoniyatlarga to'liqdir.

Ong evolyusiyasining aqldan yuqori (*supramental*) va aqldan quyi ko'p pog'onalari mavjuddir. Nisshе falsafasida bilishning aqliy sohasi cheklangan deb hisoblangani bois, noaqliy bosqichlar mazmuni tahlil qilinadi. Uning estetikasi iroda, intuitsiya, ongsizlik kabi ruhiy faoliyat turlari birlamchi sanalishi jihatidan tabiatan Yevropa psixoanalizmi va Sharq mistikasiga, tasavvuf ta'limotiga yaqin turadi.

Shaxsning psixoanalitik konsepsiyasini yaratishga ulkan hissa qo'shgan avstriyalik olim Zigmund Freyd (1856–1939) ham inson psixikasini moddiy sharoitlardan ajratib, ong doirasidan tashqaridagi holat deb hisoblaydi. Inson hatti-harakati me'yorlari va patologiyasini ilg'ab olish qiyin bo'lgan motivlar belgilaydi. Ongsizlikning turli motivlari va ichki psixik ziddiyatlar natijasida hatti-harakatdagi xatoliklar zohir bo'ladi. Inson borlig'ini vujudga keltirgan asoslarni aniqlash, uning xulq-atvori, xarakterining yuzaga kelish sabablari, alohida odam turmush tarzi tamoyillarining hosil bo'lishini tushuntirish mumkin. Uning shaxsida bo'ladigan o'zgarishlar borliqning o'ziga xos, muhim xususiyat va xossalarga ega bo'lgan shaklidir.

Mistikada ham voqeiy olamni bilish mushkul, tabiiy hodisalar va ruhiy jarayonlarni inson tomonidan boshqarish qiyin, ular yashirin mohiyatning timsoli deb qaraladi. Ruhiy poklanish bo'lgan tasavvuf nazariyasida esa Allohning vasliga yetish botiniy yo'l (*intuitsiya va ishroq*) bilan amalga oshiriladi. Bu qadimgi grek estetikasida san'atning insonga estetik ta'sirini tavsiflovchi "*katarsis*" tushunchasini eslatadi.

Angashiladiki, Fridrix Nisshе olam va odam haqidagi nodir falsafa namoyondalaridan biri sifatida fikrlash kengligini katta miqyoslarga ko'targan. U odam bolasini maxluqlikdan qutqarib xoliqlikka ya'ni jaydari odamdan yuqoriroq daraja – barkamol ("*sverxchelovek*" – "*a'lo odam*") likka ko'tarishni maqsad qilgan. Ozodlikni, axloqiylik va g'ayriaxloqiylikni Yevropa falsafasi miqyosida hamma narsani yengib o'tuvchi va tengsiz uyg'unlik topuvchi "*buyuk sog'lomlik*" sifatida tushuntirgan.

Nisshе falsafasining alohida inson fitratiga xos kurashchanlik, ezgulik sari intiluvchanlik, bedorlik, matonat, olamga tiyran nigoh bilan boqish, olomondan boshqacharoq anglash, qalb va diyonatli ruh ozodligi, sezimlar ingichkalashuvi, o'zlikni topmoq, poklanmoq singari ko'plab ijobiy jihatlari mavjud. Unda toza hamda sarin havolarga intilish, hur makon – ichki olam xilvatgohi shiddatining ulug' suroni, tor ko'ngillik qavmning masxarabozliklaridan uzoqlashmoq hikmati, didlar turfalashuvi va ruhiy osudalikning muattar iforlari kabi tuyg'ular mas'umlighi bor. Odamni o'zidan o'zdirishga, fikran va qalban o'z-o'ziga qozilik qilishga da'vat, "*a'lo odam*" tavalludiga umidvorlik, maqsad yo'lida tuproqqa aylanish ya'ni ona huzurida sokin bo'lmoq ilinji mujassam.

Nisshе oyog'i yerdan uzilmagan insonni ulug'laydi. Vorislikdan emas, balki necha ming yilliklardan beri idrok yetmagan inson va zamin so'qmoqlaridan yurishdan qanoat tuyar ekan, hayvonlik sifatlaridan voz kechgan "*a'lo odam*" irodasi haqidagi mo'ljallarini bayon etib: "*Barcha xudolar o'ldilar, endi biz faqat a'lo odam yashashini istaymiz*" [7. 46] deydi va bu yo'lni har bir kimsa alohida – alohida holda bosib o'tish orqali o'zini topishini istaydi. Darhaqiqat, Nisshе "*Odamlar teng emas. Ular teng bo'lolmasliklari ham kerak*" [7. 18], -

degan tezisga asoslanar ekan, ruhning darajalari bo'lishi, ulug'vor ruh odamlari ko'payishi lozimligini nazarda tutadi.

Faylasuf inson irodasining bunyodkorligini fikr yetadigan, oddiy ko'z bilan ko'riladigan, his qilinadigan hudud bilan chegaralaydi. Shu uchun ham uning nazdida Xudo tusmol bo'lib ko'rinadi. Aql bilan bilib bo'lmaydigan, yagona va o'zgarmas narsa-hodisalar yo'q. Xususan ilohlar fikrdagina mavjud bo'lib, bunday ta'limot inson uchun yovuz va g'addordir, -degan xulosa chiqaradi. Odamlarni yangi iftixor va irodaga o'rgatishni tilagan olim: *“boshingizni samoviy narsalarning qum-to'zoniga tiqmang, undan baland tuting”* [7. 19], - deya da'vat etar ekan, samoviy xaloskor haqidagi fikr-qarashlarni qashshoq, bemor va ko'rnamak kimsalar o'ylab topgan shirin og'ular hisoblaydi. Isyonkor ong vakili o'laroq borliqning asosiga Yaratuvchini emas, balki har narsaning o'lchovi va qimmatini bo'lmish *“men”*ligini qo'yadi. *“Men Yevropaning Buddasiman!”*, - degan Nisshe *“shakkok”*ligida insoniy erk, ezgulik va xaloskor iroda, barcha razolatlardan ustidan mag'rurona kulgi bo'lsa-da, uni mashhur shayx Mansuri Xalloyning *“Analhaq !”* lik da'vosi bilan tenglashtirish mumkin emas.

Mansuri Xalloy irfoniy ma'rifat sohibi, Yaratganning vasliga yetgan solih banda. Hol hamda vajd paytida haq jamolini ko'rgandek bo'lib o'zini unutgan Mansuri Xalloy ana shu holatdagi sirni fosh etgan, o'zidagi ruhoniy qudratni qalbiga sig'dira olmay faryod chekkandi. Bu o'rinda yaralganlarda yaratuvchining in'ikos etishi – narsalar mutlaq moyaning zarrachalaridir, -degan panteistik ta'limot amal qiladi. Demak, rabboniy olim ikki olam sarvariga itoatda. Uning fikrlari negizini islomiy ma'rifat, farz va sunnatlarni sobitlik bilan bajarish, bu yo'lda jonfidolik ko'rsatish tashkil etadi. Nisshe esa insoniyat nizomi va ehtiyojiga xizmat qiladigan zaminini ezguliknigina sevadi. U ongning isyonkorligiga xos orzu va ishonchga asoslangan tangriyonalikni keskin inkor etadi. Bu o'rinda ayrim umumiy jihatlar bilan bir qatorda qalb va hol yo'nalishidagina emas, fikr-qarashlarda, nuqtai nazarlarda ham ziddiyat mavjud.

Bugungi o'zbek romanlarining *“Ishq ahli”* (O.Muxtor), *“Fano dashtidagi qush”*, *“Pahlvon Muhammad”* (A.Dilmurod), *“Tangri qudug'i”* (E.Samandar), *“Yassaviyning so'ngi safari”* (S.Siyoev), *“Muvozanat”*, *“Isyon va itoat”*, *“Sabo va Samandar”* (U.Hamdard) kabi namunalirini kuzatishning o'ziyoz Fridrix Nisshe estetikasini tadbiiq qilish orqali milliy roman badiiy matni mohiyatiga to'la yetib bo'lmashligini ko'rsatadi. G'arbona ong va iroda erkinligi bilan mohiyatan sharqona e'tiqodiy asoslarga tayanuvchi, ba'zan mistik xarakter kasb etuvchi adabiy hodisalarni mukammal tarzda anglash va anglatish mumkin emas. Bu o'rinda Sharq G'arb falsafiy-estetik qarashlarining konkret badiiy matn poetikasiga muvofiq keladigan usul va vositalaridan samarali foydalanish ijobiy natijalar beradi [8. 230].

Demak, badiiy ijod tamoyillariga xos xususiyatlar iste'moldagi manbalarning barchasiga tayangan holda, vorisiylik asosida tadqiq etilmog'i lozim. Chunki estetik qadriyatlar, xususan badiiy adabiyot odam va qismat, shaxs va uning taqdirbitigi o'rtasidagi munosabatni milliy ma'naviyat asosida ifoda etgani uchun ham birinchi navbatda milliydir. Aynan shu jihati bilan u jahon adabiyotining tabiiy bir bo'lagi bo'la oladi. Bugungi o'zbek romani esa o'z-o'ziga qismat tayin etmoqchi bo'lib, pirovardida qanoatga keluvchi insonni badiiy ifodalayotgani, adabiyotshunosligimiz bo'lsa uning zamiridagi adabiy-estetik ma'noni topishga intilishi bilan tamomila milliydir. Zotan, zamonaviy adabiyotshunosligimizning yetakchi belgilari badiiy matnga estetik me'zonlar asosida yondoshib, uning ma'naviy-ruhiy va estetik ildizlarini tadqiq va talqin qilish yo'liga o'tishda ko'rinadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Baxtin M. Проблемы поэтики Достоевского. Издание четвертое. – Москва, 1979. – 318 с.
2. Matyokubova T. Philosophical-Aesthetic Conception: Community And Individuality // Texas Journal of Multidisciplinary Studies. 2024. № 29. – Pp. 120-122

3. Matyokubova T. The Expression Of The Poet's Feelings In Gafur Gulam's Poetry // American Journal of Advanced Scientific Research. 2024. № 1. – Pp. 62-64
4. Matyokubova T. G 'afur G 'ulom she'riyatining poetik jozibasi (Shoirning "Kuzatish" va "Sog 'inish" she'rlari tahlili misolida) // Uzbekistan: yazyk i kultura . 2024. № 2. – B. 88-98
5. Ranovich A.B., Ellinizm i yego istoricheskaya rol. M –L., 1950.- 381 c.
6. Tara V., Ellinisticheskaya sivilizatsiya. Per.s angl., M., 1949. – 375 c.
7. Fridrix Nisshe. Zardo'sht tavallosi. Ibrohim G'afurov tarjimasi. // Jahon adabiyoti , 2004. № 1. – B. 12 - 46.
8. Yakubov I. Mustaqillik davri o'zbek romanlari poetikasi: filol. fanlari dok... diss. – T., 2018. – 248 b.
9. Yakubov I. Socio-Genetic Factors Of Changes In The Character Of The Main Character // Texas Journal of Multidisciplinary Studies. 2024. № 29. – Pp. 123-126
10. Yoqubov I. Erkin A'zamning "Zabarjad" kinoqissasida qahramon botinidagi evrilishlar tasviri // Uzbekistan: yazyk i kultura . 2024. № 2. – B. 66-77
11. Yokubova S.I. Jadid she'riyatida peyzaj bilan bog'liq poetik obrazlar tasviri // O'zbekiston:til va madaniyat. – Toshkent, 2022, № 3. – B. 42-54.
12. Yokubova S.I. Jadid she'riyatida ramzlar: semiotik va germeneytik talqin // O'zbekiston: til va madaniyat. – Toshkent, 2023, № 3. – B. 79-90.

10.00.00 - Filologiya

HAMZA - JADID SHE'RIYATINING ISTE'DODLI KUYCHISI

Sevinchoy Yoqubova

Toshkent amaliy fanlar universiteti kata o'qituvchisi, filologiya
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-pochta: sevinchoy.yakubova@mail.ru

Annotatsiya: Hamza zamonaviy adabiyotning buyuk avtorlaridan biri bo'lib, bu uning she'riyatida yaqqol ko'rinadi. Shoirning “Yig'la, Turkiston” (“Yig'la, Turkiston”), “Ko'zini oching, qarindoshlar” (“Ko'zini oching, qarindoshlar”), “Darmon istariz” (“Darmon istaymiz”), “Millat deganlarning oqargan ko'z yoshi” (“Millat deganlarning oqargan ko'z yoshi”), “Yaxshi holin yo'qotgan oqibatsiz Turkiston” (“Yomon ahvolga tushgan Turkiston”), “Yashanglar, yashaylik, Turon” (“Yashanglar, yashaylik, Turon”) kabi o'nlab she'rlar bizning fikrimizni tasdiqlaydi. Ushbu she'rlar milliy uyg'onish g'oyalarini aks ettirib, musiqiylik, boy obrazlar va ramzlar bilan ajralib turadi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy ma'rifatparvar va modernistlarning safini to'ldirib, millat ongini, tafakkurini va insonlar hamda dunyoga munosabatni yangilash tarafdori bo'ldi. Uning e'tiqodi adabiy va estetik qarashlarida, ayniqsa she'riyatida yorqin namoyon bo'ladi.

Shoirning lirika qahramoni o'z zamonasining farzandi sifatida kibr va jaholatga qarshi kurashadi, adolatli jamiyat va ma'rifatli insonlarni orzu qiladi. Shu bois, u umrini bilimlarni yoyishga bag'ishlagan. Shoir she'rlarida milliy va jamoat ongining uyg'onishi, xalqni birlashtirish g'oyalari ilgari surilgan.

Maqolada taniqli o'zbek shoiri Hamzaning “Xalq she'rlari, xalq qo'shiqlari” to'plamiga kirgan she'rlari tahlil qilinadi. Shoirning she'riyati Ma'rifat davri g'oyalarini ifodalaydi va zamonaviy she'riyatga qo'shgan hissasi ta'kidlanadi. Shuningdek, maqolada Hamzaning she'rlarida millatchilik, erkinlik va ozodlik g'oyalari tahlil qilinib, muayyan xulosalar chiqariladi.

Kalit so'zlar: Jadid, ma'rifat, obrazli ifoda, kompleks, ramz, ohang, qo'shiq, xalq ohangi, lirika qahramoni.

ХАМЗА – ТАЛАНТЛИ ПЕВЕЦ ЖАДИДСКОЙ ПОЭЗИИ

Аннотация. Хамза – один из величайших авторов современной литературы, и это видно по его поэзии. Поэта “Йиғла, Туркистон” («Плачь, Туркестан»), “Кўзни очинг, қардошлар” («Открой глаза, родственники»), “Дармон истариз” («Мы хотим лекарства», «Миллат деганларнинг оқар кўз ёши» («Лекущие слезы призывающих народ»), “Яхши ҳолин йўқотган оқибатсиз Туркистон” («Туркен, потерянный Туркестан без последствий»), “Яшанглар, яшайлик, Турон” («Живи, будем жить, Туран»)) десятки стихотворений подтверждают наше мнение. Эти стихи отражают идеи национального возрождения и отличаются музыкальностью, богатством образов и символов.

Хамза Хакимзада Ниязи пополнил ряды просвещенных интеллектуалов и модернистов, выступавших за обновление сознания, мышления и отношения нации к людям и миру. Его вера ярко отражается в его литературных и эстетических взглядах, особенно в поэзии.

Лирический герой поэта, как дитя своего времени, борется с высокомерием и невежеством, мечтает о справедливом обществе и просвещенных людях. Поэтому всю свою жизнь он посвятил распространению знаний. Кажется, в стихах поэта выдвигались идеи пробуждения национального и общественного сознания народа, его объединения.

В статье рассматриваются стихи известного узбекского поэта Хамзы, вошедшие в сборник «Народные стихи на народные песни». Поезия поэта выражает идеи эпохи Просвещения, подчеркивается его вклад в современную поэзию. В статье также анализируются идеи национализма, свободы и свободы в стихах Хамзы и делаются определенные выводы.

Ключевые слова. Джадид, просвещение, образное выражение, комплекс, символ, мелодия, песня, народная мелодия, лирический герой.

HAMZA – THE TALENTED VOICE OF JADID POETRY

Annotation: Hamza is one of the great authors of modern literature, and this is evident in his poetry. Poet's "Yig'la, Turkiston" ("Cry, Turkestan"), "Ko'zni oching, qardoshlar" ("Open your eyes, brothers"), "Darmon istariz" ("We want medicine"), "Millat deganlarning oqar ko'z yoshi" ("The flowing tears of those who call the nation"), "Yaxshi holin yo'qotgan oqibatsiz Turkiston" ("Turken, the lost Turkestan without consequence"), "Yashanglar, yashaylik, Turon" ("Live, let's live, Turan") dozens of poems confirm our opinion. These poems reflect the ideas of national renaissance and are distinguished by their musicality, richness of images and symbols.

Hamza Hakimzada Niazi joined the ranks of enlightened intellectuals and modernists who supported the renewal of the nation's consciousness, thinking, and attitude towards people and the world. His faith is clearly reflected in his literary and aesthetic views, especially in his poetry.

The lyrical hero of the poet, as a child of his time, fights against arrogance and ignorance, dreams of a just society and enlightened people. Therefore, he devoted his whole life to spreading knowledge. It seems that the ideas of awakening the national and social consciousness of the people and unifying them were put forward in the poems of the poet.

The article examines the poems of the famous Uzbek poet Khamza, included in the collection "Folk poems on folk songs". The poet's poetry expresses the ideas of the Enlightenment, his contribution to modern poetry is emphasized. The article also analyzes the ideas of nationalism, freedom and freedom in Hamza's poems and draws certain conclusions.

Keywords. Jadid, enlightenment, figurative expression, complex, symbol, melody, song, folk melody, lyric hero.

Iste'dodli o'zbek shoiri, yozuvchisi, dramaturgi va pedagogi Hamza Hakimzoda Niyoziy [1889 - 1929] o'zining ko'plab asarlari bilan o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan.

XX asr boshlarida yashab faoliyat yuritgan ko'pgina ijodkorlarimiz singari Hamzaning adabiy va ijtimoiy faoliyati ham jadidchilik harakati bilan uzviy bog'lagan. Hamza xalqni ma'rifatli qilish maqsadida Qo'qon va Marg'ilonda yangi usuldagi maktablar ochadi va bu maktablar uchun darsliklar yaratadi. Uning «Yengil adabiyot», «O'qish kitobi» va «Qiroat kitobi» singari darsliklari bu jihatdan xarakterlidir.

Hamzaning katta yoshdagilar uchun "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar" majmuasi (1915 – 1917) jadid adabiyoti taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Ushbu majmua "Oq gul", "Qizil gul", "Yashil gul", "Sariq gul", "Pushti gul", "Safsar gul", "Atir gul" kabi she'riy kitoblardan tarkib topgan [9]. Ular o'z davridayoq "adabiyotdagi yangilik", "eski qayg'uli kuylarni jonlantirish" uchun yangi yo'llar qidirish tarzida baholandi [7. 21 b.].

Hamzaning ashulalar to'plamlaridagi she'rlari aruz va barmoq vaznlarida yozilgan bo'lib, ular xalq ashulalari kuylariga mosligi bilan ajralib turadi. Bu manzumalarda Hamza yashagan davrining muhim ijtimoiy-ma'rifiy, axloqiy-ta'limiy masalalari o'z ifodasini topgan. Mavzu nuqtai nazaridan mazkur asarlar xalq dardi va intilishlarini aks ettiradi, ilm-ma'rifatni ulug'laydi, xurofotni tanqid qiladi.

Jadid adabiyotining yetuk tadqiqotchisi filologiya fanlari doktori N.Afoqova Hamzaning “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar” majmuasiga kirgan she’rlar aruz va barmoq vaznida yaratilgan she’rlar o’rin olganini ta’kidlab shunday deydi: “Hamzaning barmoq vaznidagi she’rlari ohangning ravonligi, silliqligi, saktaliklarning deyarli uchramasligi bilan xarakterlanadi” [1. 16 b.]

Hamzaning lirik qahramoni davr va zamon farzandi o’laroq, razolat o’rnini adolat, jaholat o’rnini ma’rifat egallashini istaydi. Shuning uchun u kuch-quvvatini xalqqa ilmu urfon tarqatishdek xayrli ishga safarbar etadi. Demak, mazkur she’rlarda xalqimiz katta yoshdagi qatlaminig milliy va ijtimoiy ongini uyg’otish, ularni e’tiqod birligi negizida birlashtirish g’oyasi ustuvorlik qiladi.

Ashula to’plamlari muallifning 1914-1915 yillarda yaratgan “Yengil adabiyot”, “Boshlang’ich maktablar uchun o’qish kitobi” kabi dasrliklaridagi ma’rifatparvarlik g’oyalarini izchil davom ettiradi. Hamzaning qo’shiq janriga murojaat qilib, xalq qo’shiq va kuylarining poetik ohanglaridan barakali foydalanishi, to’plagan kuylardan o’ttiztasiga yangi she’rlar yozishi tasodifiy hol emas. Shoir ma’rifatparvarlik g’oyalarining xalqimiz orasida tez va salmoqli tarzda keng tarqalishini ko’zlagan. Shuning uchun elning orzu umdlari, fikr va tuyg’ulari, kurash va intilishlari aks etgan ashulalardan, kuylardan unumli foydalangan.

Muhimi shundaki, shoir ayrim ashulachilar tamonidan buzib aytilayotgan va so’zlari o’sha davr talablariga yetarli javob bermaydigan qo’shiqlarni yangi matnlar bilan boyitgan. O’zi muhim deb sanagan va kishilarga xushchaqchaq kayfiyat bag’ishlovchi qo’shiqlarning badiiy matnlarini yangilagan. Xalq kuylariga she’rlar yozib ularni to’plam holiga keltirarkan, “eng yaxshi, saralangan” ma’nosida to’plamlariga “Gul” nomini bergan. Jumladan, shoir: “Dilog’on”, “Eski Turon”, “Eski Xorazm”, “Kel menga, shohim, hay-hay”, “Gul-g’unchalar”, “Do’st mavlon-ey”, “Yalang davron-ey”, “Jon to’ralar-ey, Olloh”, “Jon Qo’zvoy”, “Voy, zolim”, “Aytaylik, o’rtoq”, “Laylixon, Anorxon yorim-yey”, “Dodimga yetsang-chi”, “Olma-anoringga balli” singari o’nlab ohanglardagi ashulalar poetik matnini o’zgartirgan. Hamza o’zining ijodiy niyati ijrosi xususida to’xtalib: “...milliy tabarruk ashulalarimizning o’rni yo’qolmasun uchun ba’zi kabih she’rlar o’rniga milliy she’rlar tartib berub hamma ohang va kuylarimizni topub, bir necha bo’limda nashr etmak niyatidamiz” [9. 7] - deb yozgan, shu boisdan o’z to’plamlarini “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar majmuasi” deb ataganini izohlagan edi.

Darhaqiqat, “Majmua”ga kirgan “Yig’la, Turkiston”, “Ko’zni oching, qardoshlar”, “Darmon istariz”, “Millat deganlarning oqar ko’z yoshi”, “Yaxshi holin yo’qotgan oqibatsiz Turkiston”, “Past ekanmu inqilobimiz muncha”, “Yashanglar, yashaylik, Turon” singari o’nlab she’rlar g’oyatda milliy va dardkashligi, musiqiy ohangdorligi bilan alohida ajralib turadi. Bu she’rlarda milliy uyg’onish g’oyalari aks etgan. Ana shunday she’rlar Hamzani milliy uyg’onish davri adabiyotining yirik narmoyondalaridan biriga aylantiradi. Mashhur rus tanqidchisi V. Belinskiy: “Poeziya hayot ifodasidir yoki yanada to’g’rirog’i, hayotning o’zidir. Bugina emas, poeziyada hayot chinakam voqelikdan ko’ra hayotiyroq namoyon bo’ladi” [2. 99], - deydi. Bu fikrlar tasdig’i uchun Hamza she’riyatidan ko’plab misollar keltirish mumkin.

Bu Nihon qon yig’layur millat uchun laylu nahor,
Yoz o’tub, qish keldi holo, bizga bo’lgan yo’q bahor,
Sarsari bodi jaholat qilmak istar toru mor,
Chora shul: maktab ochaylik, shoyad o’lsun sabzalar,
Ey musulmonlar, qachon bir darda darmon istariz?
Millata shavkat, taraqqiyy, sha’nu davron istariz? [9. 14].

Ushbu she’rda millat va xalq kelajagi uchun iztirob chekayotgan lirik “men”ning ichki kechinmalari shoirona ifoda etilgan. Unda shoir fikr qarashlari turli obrazli ifoda va ramzlar orqali tasvirlanadi. Adabiyotshunos H. Boltaboev ramz va ramziylikka xos belgilar to’g’risida shunday yozadi: “*Ramz mohiyatan allegoriyaga yaqin, undan farqi shuki, ramz kontekst*

doirasida ham o'z ma'nosida, ham ko'chma ma'noda qo'llanadi. Ramzning ma'nosi kontekst doirasida va shartdan xabardorlik bo'lganda reallashadi"[2.290]. Bu fikrlarni yuqoridagi misralarga tatbiq etadigan bo'lsak, unda yoz, qish, bahor so'zlari ramziy ma'noda qo'llanilgan. Adabiyotshunos T.Matyoqubovanning ta'kidlashicha: "Mumtoz shoirlar ijodida ko'pincha qish baxtsizlik va musibat, kulfat, bahor yoshlik va go'zallik, mehnat va farog'at ramzi sifatida ifodalansa, kuz - hazon fasli sifatida tushkun bir kayfiyatning, bo'lajak fojeaning darakchisi tarzida tasvirlanadi" [5. 90].

Darhaqiqat, Hamza o'z fikr-qarashlarini obrazli ifoda va ramzlar orqali talqin etadi. She'rdagi "yoz", "qish", "bahor" kabi yil fasllarini anglatuvchi so'zlar shoirning ijodiy niyatiga ko'ra ramziy ijtimoiy-ma'rifiy ma'no tashiydi. Nihon [Hamza] tunu kun qon yig'lashi zamirida qadimiy adabiy an'ana ["Alp Er To'nga" marsiyasi, "Qish va yoz" munozarasi, O'rxun-Enasoy toshbitiklari] da kuzatilgan Vatan va millat dardida chekilgan achchiq iztirob va alamli nolalar turadi. Bu hol bizga "Devonu lug'otit turk" [Mahmud Koshg'ariy], "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" [Beruniy], "Qisasi Rabg'uziy" [Rabg'uziy], "Saddi Iskandariy" [Navoiy] kabi asarlardagi yil fasllari, jumladan, Navro'z xususidagi zohiriy va botiniy ma'nolarga boy, bahorga intiq bo'lgan alohida bir mehrga to'la misralarni eslatadi. Pirovardida, shoir dunyoqarashi ko'lamli va tahayyul uqlari yuksak ekanidan ogoh etadi. Zotan, Hamzaning uyg'oq va yorug'likka talpinuvchi qalbi tabiatga har qancha hamohang bo'lmasin, zamoniy o'zgarishlar shiddati millatdoshlarini uyg'otmayotgani, muqaddas makonda hamon tutqunlik, zulm va istibdod hukmron ekanidan iztirob chekadi. Binobarin, shoir milliy jipslik, birdamlik va erkni sog'inadi.

Hamzaning "Salom ayting" nomli she'rida mashaqqatli mehnat ostida sog'ligidan ayrilgan, o'zi og'ir xasta bo'lsa-da, yiroqdagi yaqinlarini ayab, yertadan umidvorlik bilan ularga duoi salom yo'llayotgan mardikor yigitning tuyg'u-kechinmalari tasvirlanadi:

*Ag'o, sog' borsangiz, avval
Dadamlarga salom ayting.
Yugurib chiqqan ul mushfiq
Onamlarga salom ayting* [9. 90].

Hamza salom yo'llashda lirik qahramon duosi usuli hamda "Sardaftar" musiqasining debochasi bo'lmish "Savti Chorgoh" ohangidan foydalanadi. Ye'tiqodda sobit mardikor yigit dadasiga Ya'qub alayhissalom bardoshini tilaydi va o'zining chiroyli sabr sohibi yekanini namoyon yetadi.

Tabiiyki, bunday ishoraviylik Hamza "Qur'oni Karim"ning "Baqara", "Oli Imron", "Niso", "An'om", "Hud", "Yusuf", "Maryam", "Anbiyo", "Ankabut" va "Sod" suralarining o'n olti joyida keluvchi Allohning bandasi va payg'ambari Ya'qub alayhissalom haqidagi xabarlar bilan yaxshi tanish bo'lganini ko'rsatadi.

*Kelib qolgay, deng, albatta,
Ochilguncha gulu bog'lar.
Alar ko'ngliga ham betob
Debon solmang qora dog'lar.*

O'tinch qilayotgan mardikor yigit nazdida onasining ko'zi hamisha "judolig' dasdidan yoshlig'", aka va opalari "ko'zi qon", millatdoshlari yesa ilmsizlik, bid'at va jaholat girdobida. Shoir "qora dog'lar" ramzi orqali g'am, qayg'u, aziyat ma'nolarini ifodalaydi. Lirik "men"ning tushkun holatini tasvir yetadi.

Shoir nazdida, ayrim mahalliy ma'murlar yelni qo'rquv iskanjasida saqlashga ulush qo'shgan. Shu bois millat tiynatidagi qadimiy jasorat so'nib, birdamlik barham topgan. Hamza nazdida millat bunday "rasvo" holdan ilm-ma'rifat va ibratlanish orqaligini xalos bo'lishi mumkin. Shoir o'zining ana shu anglamlarini she'rning leytmotiviga olib chiqadi:

*Yesak donish yeli, o'lmas
Yedik biz buncha rasvolar.*

*Bu kunlar ibrat o'lsun, yey
Vatan ketuvchi hamrohlar.
Ilm tahsiliga qilsun,
Hama bir dam, davom ayting [9. 92].*

Hamza insoniyat jamiyatini yezgu ishlar va xayrli amallarga yetaklovchi ilohiy yo'l-
yo'riqlar, hukmlar majmui bo'lgan ma'naviy yehtiyoj – dinga alohida ye'tibor beradi. Shoir o'z
millatdoshlarini jamiyatda ilk kurtaklari namoyon bo'layotgan ateizm – dinga kufr keltirish, uni
inkor yetish yoki asl mohiyatini xalqdan bekritish harakati qanday kulfatlarga debocha
bo'lishidan ogoh yetadi. Islomning hukm va ta'qiqlar to'plami bo'lgan shariat hukmlariga amal
qilmay, bid'atga berilgan mahalliy hukmdorlar va ularga yergashuvchi ayrim yurtdoshlarini
ogohlikka chorlaydi. Zamonaga hamqadam bo'lishga da'vat yetadi.

Akademik N.Karimov ta'kidlashicha, "Hamza jadidchilik harakatiga kirib kelganida,
uning asosiy dasturi ishlab chiqilgan, jadid adabiyoti oldida turgan vazifalar esa oydinlashgan
edi. Lekin ijtimoiy ongi o'smagan, parokanda ommani uyg'otuvchi, uni o'zini anglashga
ko'mak beruvchi kuchlar hali yetarli emas edi. Hamza o'zbek jadidlari oldida turgan milliy
uyg'onish jarchisi bo'lishdek tarixiy vazifani his etish jarayonida o'z iste'dodining qirralarini
kashf etib bordi... "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar" turkumidagi she'rlarida milliy
uyg'onish g'oyalarini ilgari surdi." [4. 11]. Binobarin, Hamza o'zbek jadid ziyolilari safida faol
ishtirok etdi. O'z ijodining markaziga xalq manfaatini qo'ya oldi.

1918 yilga kelib Hamza ijodida jadidchilik qarashlaridan chekinish belgilari ham ko'zga
tashalana boshlaydi. Buning ob'ektiv va sub'ektiv sabablari bor edi. Zotan, shoir 1917 yilning
28 noyabrida tashkil topgan "Turkiston muxtoriyati"ga katta umid bilan qaragan. Turkistonning
tenglar ichra teng bo'lib yashashi, o'lkadagi barcha millatlarning huquqiy daxlsizligi
ta'minlanish, mamlakat demokratik asoslarda mustaqil taraqqiy qilishi haqidagi g'oyalar unga
juda ma'qul edi. Agar o'sha davr milliy matbuotini kuzatsak, Turkistonning taniqli
ma'rifatchilari, siyosat va jamoat arboblari o'z ijodlarida muxtoriyatdan mamnun ekanligini
samimiy izhor etganliklarini ko'ramiz.

Turksitonning o'z yeriga o'zi xo'jayin bo'lib, tarixini o'zi yaratish fursati kelganligini
yaxshi anglab yetgan Hamza 1917 yilning 25 aprelida "Ulug' Turkiston" gazetasida "Turksiton
muxtoriyatiga" nomli she'rini chop qildiradi. To'rt yuz yillik Romanovlar davlati tugatilib,
asorat va xo'rlik bitib, millat shavkati qaytganidan astoydil sevingan shoir Turkiston
muxtoriyatini olqishlaydi. Ko'ngil shodiligidan mamnun Hamza g'ofil qolib fursatni boy
bermaslik kerakligidan o'z eldoshlarini ogoh etadi.

Hamza Sohibqiron Temurning ruhi erk yo'lida jonini tikkan yurtdoshlarni toptalgan,
xo'rlangan o'lkani yashnatishga chaqirayotgani, birlashishga da'vat etajagini alohida
ta'kidlaydi. Din va millat nomidan so'zlagan shoir muborak onlarni qadramagan dindoshimiz
Muhammadning ummatlaridan emasdir, - degan keskin fikrlarni aytishgacha jur'at etadi.
Darhaqiqat, qo'lga kiritilgan yutuqni shoir tangrining rahmatidan deb biladi. Diniy
kelishmovchilik va mazhab bo'linishlarini bartaraf qilib el-yurt istiqboli yo'lida butun bir islom
millatini birlashishga, yakdil bo'lishga chorlaydi. Yangi bir zamonni muborakbod qilar ekan,
turkiy qavmni avlodlar yaxshi so'zlar bilan xotirlashlari uchun jahonga tanilgan ulug'
ajdodlarimizning qutlug' nomlari va azaliy qadriyatlarimizni ulug'lashga chaqiradi. Yoshlarga
alohida murojaat qilgan shoir muborak zafar yo'lida Erk, Ozodlik, Birdamlik uchun to'kilgan
qonlarni qutlug' sanaydi. Ozodlikning shonli kunlari o'z-o'zidan kelmagani, kurashlar va
qurbonlar evaziga erishgan yutuqlarimizni qayta-qayta qutlashdan zinhor charchamaydi:

*Bugun qaysi bir ko'ngul dilshod o'lmasun?!
Bugun qaysi mironshohlar obod o'lmasun?!
G'ofil qolmang bul fursat barbod o'lmasun?!
Qutlug' bo'lsun Turkiston muxtoriyati!
Yashasun endi birlashub islom millati!*

To‘qqiz band, 47 misradan iborat she‘rning har bandidan keyin keluvchi xor uchun mo‘ljallangan so‘nggi ikki misra takrorlanib, ma‘noni ta‘kidlashga, yetakchi fikrni yanada kuchaytirib, da‘vat ohangini oshirishga xizmat qiladi: Faqat oxirgi bandning so‘nggi misrasida naqorat turk o‘g‘illari qurayotgan davlatning mangu barqaror bo‘lishiga ezgu tilak bilan yakunlanadi:

*Qutlug‘ bo‘lsin, ey yoshlar, to‘kub qoningiz,
Bergan qurboningizga olg‘on shoningiz!
Mangu qoldi dunyoda xush unvoningiz,
Qutlug‘ bo‘lsun Turkiston muxtoriyati!
Yashasun endi birlashub islom millati!
Yashasun bu turk o‘g‘lini mangu davlati!*

Umuman, Hamza she‘riyatida yozma adabiyotdagi an‘anaviy she‘r tuzilishi shakli aruz bilangina cheklanib qolmay, xalq she‘riy tuzilishiga faol murojaat qildi. Uning boy ifoda vositalari va obrazlar olamidani keng foydalandi. U o‘z she‘rlarini xalq tili boyligi va og‘zaki ijodiga imkon qadar yaqinlashishga intildi. Adabiyotimizning g‘oyaviy-badiiy saviyasini kengaytirishga, ijtimoiy muammolarni kuyinchaklik bilan ko‘lamdor ifodalashga harakat qildi. Bunda u o‘ziga xos obrazli ifodalar va tasvir usullariga murojaat qilganki, bu shoirning o‘ziga xos iste‘dod egasi ekanligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Afoqova N. O‘zbek jadid adabiyotida she‘riy shakllar taraqqiyoti tamoyillari. Filologif fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T., 2005. – 281 b.
2. Belinskiy V. G. Adabiy orzular. –T.: G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1977. – 262 b.
3. Boltaboev H. Adabiyot ensiklopediyasi. – T.: Mumtoz so‘z, 2014. – 664 b.
4. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlari va milliy istiqlof mafkurasi. Filol. fan. d-ri ... diss. avtopef.– Toshkent, 1993. – 49 b.
5. Matyoqubova T. Poetik idrok va mahorat. – T.: Fan va texnologiya, 2010. – 160 b.
6. Matyokubova T. Philosophical-Aesthetic Conception: Community And Individuality // Texas Journal of Multidisciplinary Studies. 2024. № 29. – Pp. 120-122
7. Matyokubova T. The Expression Of The Poet’s Feelings In Gafur Gulam’s Poetry // American Journal of Advanced Scientific Research. 2024. № 1. – Pp. 62-64
8. Matyokubova T. G ‘afur G ‘ulom she‘riyatining poetik jozibasi (Shoirning “Kuzatish” va “Sog ‘inish” she‘rlari tahlili misolida) // Uzbekistan: yozuk i kultura . 2024. № 2. – B. 88-98
9. Hamza Besh tomlik to‘la asarlar to‘plamining ikkinchi tom. –Toshkent, Fan, 1988. – 562 b.
10. Yakubov I. Mustaqillik davri o‘zbek romanlari poetikasi: filol. fanlari dok... diss. – T., 2018. – 248 b.
11. Yakubov I. Socio-Genetic Factors Of Changes In The Character Of The Main Character // Texas Journal of Multidisciplinary Studies. 2024. № 29. – Pp. 123-126
12. Yoqubov I. Erkin A‘zamning “Zabarjad” kinoqissasida qahramon botinidagi evrilishlar tasviri // Uzbekistan: yozuk i kultura . 2024. № 2. – B. 66-77
13. Yokubova S.I. Jadid she‘riyatida peyzaj bilan bog‘liq poetik obrazlar tasviri // O‘zbekiston:til va madaniyat. – Toshkent, 2022, № 3. – B. 42-54.
14. Yokubova S.I. Jadid she‘riyatida ramzlar: semiotik va germeneytik talqin // O‘zbekiston: til va madaniyat. – Toshkent, 2023, № 3. – B. 79-90.

10.00.00 – Filologiya

**FUZULIYNING TURKIY DEBOCHASIDA ADABIY-ESTETIK QARASHLAR
TALQINI**

Karimova Faridaxon Isakovna
filologiya fanlari doktori, dotsent,
Namangan davlat universiteti
e-mail: faridaxonk@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada buyuk ozarbayjon shoiri Muhammad Fuzuliyning turkiy devoniga yozgan debochasi tadqiq qilingan. Debochaning mazmun-mundarijasi, undagi shoirning adabiy-estetik qarashlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: devon, debocha, hamd, na't adabiy-estetik qarashlar, an'ana va o'ziga xoslik..

**ЛИТЕРАТУРНО-ЭСТЕТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ВЗГЛЯДОВ В
«ТЮРКСКОМ ВВЕДЕНИИ» ФУЗУЛИ**

Аннотация. В статье исследовано предисловие к турецкому дивану великого азербайджанского поэта Мухаммеда Фузули. В частности, изучены содержание и литературно-эстетические взгляды поэта в предисловии.

Ключевые слова. Диван, предисловие, хамд(восхваление Аллаха), наът (восхваление пророка), литературно- эстетические взгляды, традиция и новаторства.

**THE LITERARY AND AESTHETIC INTERPRETATION OF VIEWS IN
FUZULI'S "TURKIC PREFACE"**

Annotation. This article analyzes preface written to the turkish divan of great Azerbaijani poet Mukhammad Fuzuli. Besides, it also highlights the meaning-contents and literary-aesthetic viewpoints.

Key words: divan, preface, hamd, na't, literary-aesthetic viewpoints, tradition and peculiarity.

Ozar xalqining otashin shoiri Muhammad Sulaymon o'g'li Fuzuliy o'zining jozibador g'azal va muxammaslari, murabballari, qit'a va ruboiylari, "Layli va Majnun" dostoni bilan jahon adabiyoti xazinasidan alohida joy oldi U nafaqat ozar xalqining, balki o'zbek xalqining ham sevimli shoiriga aylandi.

Fuzuliy she'riyati inson ruhiyatining nozik qirralarini o'ziga xos uslubda ifoda etishi, sehr-u jozibaga boyligi, ohangdorligi va musiqiyliги bilan alohida diqqatga sazovor. Buni adabiyotshunos olim T.Jalolov to'g'ri ta'kidlagan edi: "Muzika sadolari qalbimizda tug'yon urgan ruhiy holatni so'z bilan ifoda etib bo'lmaganidek, Fuzuliy g'azallari baxsh etadigan ma'naviy halovatni ham so'z bilan ifoda qilib bo'lmaydi. Mening nazarimda, Fuzuliyning aql-idroki, mushohada kuchi, nafosat hissi, shoirlik iste'dodi nihoyatda zo'r bo'lib, undagi bu fazilatlarini to'g'ri talqin qilish uchun yana bir Fuzuliy kerak" [1,5]. Darhaqiqat, maktab va madrasa ilmini chuqur egallagan, ilm-fanning inson hayotidagi o'rni yuksakligini chuqur anglagan shoir juda ko'p zahmat-u mashaqqat va sa'y-harakatlar natijasida o'z davrining yetuk faylasuf allomasi va iste'dodli shoiri sifatida shuhrat qozondi. Adabiyot tarixining boshqa davrlarida bo'lganidek, Fuzuliy yashagan davrlarda ham zullisonaynlik, ya'ni ikki tilda ijod qilish an'anasi mavjud edi. Shoir turkiy va forsiyda go'zal asarlar yaratish bilan birga arab tilida

ham ijod qildi. She'rlaridan har uch tilda devon tuzdi. O'zbek adabiyoti tarixida devon tuzish doirasidagi zullisonaynlik hodisasi Alisher Navoiy, Nodira, Ahmad Tabibiy, Mirzo Siddiq Tog'aymurod o'g'li Fano kabi shoirlar ijodida uchraydi. Muhammad Sharif Shavqiy esa arabiy, forsiy va turkiy tillarda yozilgan she'rlaridan devon tartib bergan. Uch tilda devon tuzish esa kam uchraydigan hodisa bo'lib, faqat Fuzuliy ijodidagina ko'zga tashlanadi. Alisher Navoiyning muhibi bo'lgan Fuzuliy shoirning devonchilik sohasidagi an'alaridan ilhomlanib, turkiy va forsiy devonlariga debocha yozdi. Xususan, shoirning turkiy devon debochasi nazm va nasrning uyg'unligi, fikrni murakkab, zanjirli jumlar bilan ifodalash, go'zal she'riy san'atlar bilan ziynatlash kabi jihatlari bilan Navoiy debochalari uslubiga yaqin turadi. Debochaning mundarijasi Allohga hamd, Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ga na't, shoirning hasbi holi tasviri hamda adabiy-estetik qarashlarining badiiy ifodasidan iborat.

An'anaga muvofiq, debocha Alloh hamdi bilan boshlanadi. "Hamd behad, ul Mutakallimi nutq ofarinaki, safinai ummid, sukkoni bihori-buhuri-nazmi, tamavvuji istig'roqi "vashshuarou yattabihum-ul-g'ovun" mustag'raqi girdobi xirman etmishkan, silsilai istisno "Illal-lazina omanu" buroqib shuaroysi islomi sahihu solim sohili najota chekmish. Va siposi beqiyos ul nozimi osmonu zaminaki, basmalayi nazmin, afsari farqi- firqon edib, mazraayi qulubi ahli irfona niholi mavaddati kalomi mavzun dikmish" [3,17].

Ma'lumki, Qur'oni karimning "Shuaro" surasida shoirlarga munosabat bildirilgan. Avvalo, shuni aytish lozimki, Qur'oni karimda shoirlar haqidagi alohida suraning bo'lishi ularning darajalari yuqoriligidan dalolatdir. Ikkinchidan, aynan Payg'ambarimiz s.a.v. davrida Arabiston yarim orolida qasidanavislik juda kuchli bo'lgan. Bu esa ularga qo'shni bo'lgan Yunoniston va Rim imperiyasi notiqlarining ta'siri edi. Zero, Rimda notiqlik san'atining mavqei baland edi. Aristotel "Poetika" va "Ritorika" asarlarida bu fanlarning yuqori darajada rivojlanganini ko'rsatib beradi. Demak, notiqlik san'atining yuksak namunasi bo'lgan "Ritorika" arablarga qasida tarzida kirib keldi va johiliyat davrida arablar orasida juda kuchli qasidanavislar yetishib chiqdi.

Ba'zi olimlar esa bu suraning nozil bo'lish sabablarini turlicha izohlashadi. Jumladan, "Bu sura Hazrati Muhammad(s.a.v.)ning payg'ambarliklari tan olinmagan, qiyinchilik davrida nozil bo'lgan edi. Sura qiyin pallada nozil bo'lganligi uchun o'sha davr ruhini ham aks ettiradi" [2,6]. Bu davrda arab shoirlarining obro'-e'tibori baland bo'lgan, tez-tez she'r o'qish, va'zxonlik musobaqalari o'tkazilib turgan, she'riyatda madhbozlik kuchaygan edi. Mushriklar Payg'ambar(s.a.v.)ni shoir, Qur'oni karimni she'r, deb tuhmat toshini otadilar. Suraning 224-, 225-, 226-oyatlari shu munosabat bilan nozil bo'lgan. "Vashshuarou yattabihum-ul-g'ofun"(Shoirlarga yo'ldan ozganlar ergashur) "Shuaro" surasining 224-oyati bo'lib, ana shunday madhboz shoirlarga qaratilgan edi. Suraning 227-oyati esa imonli, yaxshi amallarni bajaruvchi, she'r orqali ezgu g'oyalarni targ'ib etuvchi shoirlar haqidadir[4,260-261]. Ko'rinadiki, Qur'on oyatlarida ham shoirlarning ikki guruhi haqida so'z boradi.

Fuzuliy debochasi avvalidayoq Allohga hamd-u sanolar va Rasululloh madhi bilan uning she'r va shoirlar haqidagi qarashlari uyg'unlashib ketganligi kuzatiladi. Shoir fikrlarini dalillash uchun nafaqat Qur'on oyatlariga murojaat qiladi, balki uch tilda – turkiy, forsiy va arabiyda uch qit'a keltiradi va shoirlarga "kamoli she'r" va "tab'i nazm" Alloh inoyati bilan berilganligini ta'kidlaydi. Shundan so'ng "Ammo ba'd..." iborasi bilan shoir o'z sharhi holiga o'tadi. Ma'lumki, Fuzuliy Iroqning Karbalo shahrida Sulaymon ismli bir ziyoli oilasida tug'ilgan. Tabiiyki, yosh bo'lajak shoir shu yerdagi maktablarning birida tahsil olgan. Bu haqda shoir debochada shunday ma'lumot beradi: "...chun zavraqi vujudim, bodboni tabiat birla daryoi g'aflati tufuliyatdan sohili idroku ehsosa yetdi... Va matolei axtari husuli iqbolim bir maktabi muhazzab ediki, fazoyi sharifi sarvqad sanamlar birla jona jinon mujdasin yetirirdi. Qit'a:

Sahni latifu dar vay xo'bon nishasta saf-saf,
Diydori shon muborak hamchun suturi mus'haf.

Hurshudlavh chun mah har yak nihoda dar pesh,
Bargi kitob chun gul har yak girifta dar kaf.

(Mazmuni: Latif bir sahn, unda go'zallar saf-saf o'tiribdilar. Ularning ko'rinishlari Qur'on kabi go'zaldir. Har birisi lavha quyoshini oy kabi o'z qarshisiga qo'ymish, kitob varag'ini gul kabi qo'lida tutmishdir). Ko'rinadiki, shoir o'qigan maktabda qizlar ham tahsil olgan. Aytishlaricha, shoir ustozi Habibiyning qizini sevgan va unga bag'ishlab go'zal oshiqona she'rlar yozgan. Shoir fikrlarini davom etib, o'zi tahsil olgan maktabda o'smirlarning tabiatiga mos ravishda oshiqona g'azallarni o'qishga qiziqish kuchli bo'lganligini ta'kidlaydi: "Ammo hanuz ul navraslara nazokati tab'dan tobi iqtisobi daqoyiqi ulum va toqati-mashaqqati-ta'limi haqoyiqi hududi rusum o'lmomog'in mahfili behisht osolarinda hamisha ash'ori oshiqonadan g'ayri nasna o'qunmozdi. Va mutolia etdiklari avroqda jigarso'z g'azallardan g'ayri bir xat bo'lunmozdi" [3,18-19].

Shoirning e'tiroficha, she'r yozish ishtiyoqi uning qismatiga azal qalami bilan bitilgan. Tabiatidagi shoirlik iste'dodi, she'riyatga bo'lgan cheksiz muhabbat unda she'r zavqini uyg'otgan, maktabda o'qib yurgan chog'laridayoq dastlabki she'rlarni yoza boshlagan. Shoirning chuqur samimiyat va otashin ehtiros bilan bitilgan g'azallari olijanob sof sevgini, samimiy insoniy kechinmalarni tarannum etadi. Oshiqning ma'shuqaga bo'lgan cheksiz muhabbati, ehtirosli his-tuyg'ulari, vasl va hijron iztiroblari yuksak badiiyat pardalariga o'ralgan holda tasvir etiladi. Shu bois Fuzuliy oz vaqtda shahar-u viloyatlarda shoir sifatida mashhurlik kasb etadi. Bu haqda shoir debochada shunday yozadi: "Zamon-zamon savdoi she'r soir af'olima g'olib dushub va guruh-guruh laylivashlar Majnun kibi istimo'i she'r uchun boshima uyushib, shoirligim muqarrar o'ldi. Va ovoza'i nazmim ila olamlar do'ldi va shuhrati tom bo'ldi" [3,19].

Maktab tahsili davridayoq shoir sifatida mashhur bo'lgan Fuzuliy shoirlik uchun ham ilm-fanni o'rganish zarurligini angelaydi. Umrining katta qismini she'r yozish bilan birgalikda, ilmning turli sohalarini o'rganishga bag'ishlaydi: "Zero'ki, ilmsiz she'r asosi yo'q devor o'lur va asossiz devor g'oyatda bee'tibor o'lur. Poyai she'rini hil'yai ilmdan muarro o'lmog'i mujibi ihonat bilib, ilmsiz she'rdan qolibi beruh kibi tanaffur qilib, bir muddat naqdi hayotim, sarfi iqtisobi fununi ilmi aqli va naqli va hosili umrim, bazli iqtisobi favoidi-hikami va handasi qilmog'in murur ila laoliyi asnofi hunardan shohidi nazmima piroyalar murattab qildim" [3,20].

Fuzuliy ozarbayjon tilida she'rlar yozish bilan birga fors, arab tillarida ham asarlar ijod qilgan. Uning turli tillarda yaratgan asarlari Yaqin Sharq xalqlarining madaniyati bilan tanish bo'lganligini, tarix, tibbiyot, nujum, handasa, mantiq va falsafa kabi dunyoviy ilmlarni chuqur egallaganligini tasdiqlaydi.

Fanlarni o'rganish jarayonida mumtoz she'riyatning o'nlab janrlarida she'rlar bitgan shoirning ijodiy merosi har jihatdan mukammallashib, miqdor jihatidan ham ko'paydi. Har bir shoir ijodining ma'lum bir nuqtasiga yetganda, umri davomida yozgan she'riy merosini to'plab, devon tuzishi tabiiy. Lekin Fuzuliy hali devon tartib berishga kirishmagan edi. Kunlardan bir kuni "bir nigori mushkin xatt" (shoirning sevgan qizi) kelib, arabiy, forsiy, turkiy she'laridan devon tuzish vaqti kelganligini aytib, shoirni ogohlantiradi. Jozibador g'azallari sehridan oshiqnlarni bahramand etish lozimligini uqtirib, devon tartib berishga chorlaydi.

"Fuzuliy g'azal janrini kamolotga yetkazgan buyuk san'atkordir; Navoiydan so'ng bu janrda, eng ko'p, eng go'zal, eng nafis va eng ohangdor g'azallar yaratgan shoir Fuzuliydir. Fuzuliy – turkiy tillarda so'zlashuvchi barcha xalqlarning mushtarak sharafi, ularning mushtarak Hofiz Sheroziysidir" [1,5]. U umri davomida g'azal janriga alohida ahamiyat berdi va uning betakror namunalarini yaratdi. Shoir debochada keltirilgan qit'ada g'azalga shoirning iste'dodi qudrati va mahoratini belgilovchi mezonlardan biri sifatida yuksak baho beradi:

G'azaldur safobaxsh ahli nazar,
G'azaldur guli bo'stoni hunar.

Gʻazali – gʻazal saydi oson dagil,
Gʻazal munkiri ahli irfon dagil
Gʻazal bildurur shoirning qudratin,
Gʻazal ortirur noziming shuhratin.
Koʻngil garchi ashʻora choʻq rasm vor,
Gʻazal rasmin et jumladan ixtiyor
Ki, har mahfiling ziynatidur gʻazal
Xiradmandlar sanʻatidur gʻazal.
Gʻazal deki, mashhuri davron oʻla,
Oʻqumoq-da, yozmoq-da oson oʻla[3,20-21].

Fuzuliy gʻazallariga xos hayotiylikning siri ularning kuchli ehtiros bilan yoʻgʻrilganligidadir. Gʻazalda shu fazilat boʻlmasa, ilm va aql kuchi bilan yaxshi sheʼr dunyoga kelmaydi. Fuzuliy sheʼriyatida shoirlik isteʼdodi, turli fanlarni chuqur oʻrgangan olim va faylasufning teran mushohada kuchi uygʻunlashib ketgan.

Yuqoridagi goʻzalning devon tuzish haqidagi iltimosini oʻylab koʻrgan shoir sheʼrlarini toʻplab, ularni qayta tahrir qilib, devon tuzishga kirishadi va nihoyasiga yetkazadi: “Nochor mohmili eʼtiborida bu ibora lozimdur deyib, zamoni tufuliyatimda sodir oʻlub, mutafarriq oʻlan gʻazallardan bir muxtasar devon jamʼ etmak salohin koʻrdim. Va ul vaqtda mandan iltimosla olonlardan iltimosla olib, surati jami ixtisor uzra itmoma etirdim” [3,21].

Maʼlumki, Fuzuliy Bagʻdod adabiy muhitining vakili sifatida irod qilgan. XV-XVI asrlarda Bagʻdod va uning atrofidagi Karbalo va Najaf shaharlarida ozarbayjonliklar yashagan hamda mazkur hududdagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayot rivojida maʼlum rol oʻynagan. Shoirning asarlarida Bagʻdod, Hilla, Najaf kabi shaharlarida yashaganligi va keyinchalik tugʻilgan yurti Karbaloga qaytib kelganligi haqida maʼlumotlar uchraydi. Tavallud maskani “Iroqi arab” boʻlgan shoir turkiy – ozar tilida tartib bergan devonidagi sheʼrlarni “arbohi fasohat va asʻhobi balogʻat mushohida va mutoala” qilgan chogʻlarida uning ayrim qusurlariga eʼtibor qilmasliklariga umid bildiradi, bu boradagi fikrlarini faylasufona tarzda ifoda etadi: “Umiddurki, arbohi fasohat va asʻhobi balogʻat mushohida va mutoala qildiqa, manshaʼ va mavlidin iroqi arab oʻlub, tamomi umrda gʻayr mamlakatlara sayohat qilmodigʻimdan voqif oʻldiqa, bu illati mujibi suquti eʼtibor bilmayalar. Va mahalli maqomima koʻra rutbai isteʼdodima haqorat ila nazar qilmayalar. Zero, eʼtibori vatan, isteʼdodi zota tasir etmaz. Va tuproqda yotmoq ila tillodan jilo ketmaz” [3,21].

Shoir devonini maʼni javharlarini oʻzida jamlagan “Muhabbatnoma” deb ataydi va uni “jami ahli fasoddan, xususan, uch toifa badnihoddan” saqlashni soʻrab, Allohga iltijo qiladi. Shu asnda shoir noqobil kotiblar, shoirlikni daʼvo qiluvchi savodsiz “shoirilar” va hasadgoʻy shoirilar xususidagi qarashlarini bayon qiladi. Shoir, avvalo, noqobil kotiblar haqidagi mulohazalarini nasr va nazm uygʻunligida goʻzal tasvirilaydi: “Biri ul kotibi noqobil va mumliyi johilki, xomayi muxolif tahriri teshayi bunyodi maorifdur va kilki kudurat taʼsiri, meʼmori binoi zaxorifdur. Goh bir nuqta ila muhabbati mehnat goʻstarar va goh bir harf ila neʼmati naqamat oʻqudar. Qitʼa:

Qalam oʻlsun ali ul kotibi bad tahriring –
Ki, fasodi raqami soʻzimizni shoʻr aylar.
Goh bir harf suqutla qilur nodiri nor,
Goh bir nuqta qusur ila koʻzi koʻr aylar” [3,22].

Shoirning fikricha, noqobil kotib qalami bilan meʼmor qurgan binoni – devondagi sheʼrlarni vayron qiladi. *Muhabbat* soʻzidagi nuqtani notoʻgʻri qoʻyganligi uchun *mehnatga*, *neʼmat* soʻzi esa *naqamatga* aylanadi yoki *soʻz shoʻrga*, *nodir norga*, *koʻz koʻrga* aylanib, maʼnoga putur yetadi.

Fuzuliy ikkinchi toifa haqida esa shunday yozadi: “Va biri ul noqisi bad savodki, tab’i nomavzunila majlisu mahofilda istidoi iste’dod qilib she’r o’quduqcha, nazmdan nasri sechilmaya va adoyi susti ila shohidi ma’ni jamolindan niqob ochilmaya.

Kam min lisonin saqimin min tasarrufihi

Sorat laoli – iqulin – nazmi mansura.

A’ral qazoyo anil antoji mantuquxu,

Tasrifihu qallabal – mazmuma maksura.

(Ma’nosi: O’rinlanmagan she’r aytganning tili lol bo’lsinki, undan she’r injulari sochilmagandir. Uning mantiqiy hukmlari to’g’ri natija bermabdi, uning tasrifi zammali so’zlarini kasrali (zer) qilmish)

Burida bad zaboniki, dar fazoi suxan

Az o’ maboniyi afkor munhadim kardad.

Zi inqilobi tasorifi lahjai badi – o’

Vujudi husni iborat mun’adim kardat.

(Ma’nosi: U til kesilsinki, so’z fazosida undan fikr saroylari o’chiriladi, uning yaramas ifodasi – shevasining o’zgarishidan iboralar go’zalligidan vujudi mahv bo’ladi).

Benasib o’lsin naimi – xulddan ul zishtkim,

Nomuloyim lahjasi mavzuni nomavzun edar.

Teshai lafzi binoi nazmi vayron aylayub,

Sust guftori fasohat ahlini mag’bun edar” [3,23].

Ma’lumki, shoirlik uchun iste’dodning o’zigina yetarli emas, balki shoir ilmi aruz, ilmi bade’, ilmi qofiya borasida ham mukammal bilimga ega bo’lmog’i, o’z ustida tinimsiz mehnat qilmog’i lozim. Aks holda, shevaga xos so’zlarni noo’rin qo’llab, mavzun she’rning vaznini buzadi, “teshai lafzi” bilan nazm binosini vayron qiladi. Fuzuliyning arab, fors-tojik, xususan, ozar tili va uning lahjalarini yaxshi bilganligi, lahjalarga xos so’zlarni ham she’rlarida mahorat bilan qo’llay olganligini nazarda tutsak, shoirning fikrlari yanada oydinlashadi.

Shu o’rinda ta’kidlash kerakki, shoir, garchi ozar millatiga mansub bo’lsa-da, Iroqning Karbolosida tug’ilganligi uchun arab tili ham o’z ona tilisidek bo’lgan, ko’p hududlarda fors-tojik tili adabiy til sifatida shuhrat qozonganligi bois forsiy tilni mukammal bilgan, Ozarbayjon adabiy muhitining vakili sifatida ozar tilida ajoyib she’rlar yozgan. Shoir ikki til emas, balki uch til sohibi sifatida g’oyaviy-badiiy jihatdan yetuk asarlar ijod qildi. Bu jihat debochada ham yorqin namoyon bo’lgan, ya’ni shoir o’z fikrlarini dalillash maqsadida o’rni-o’rni bilan bir yo’la uch tildagi she’riy parchalarni keltiradi.

Shoir nazarda tutgan uchinchi guruh hasadgo’y shoirlardir. Ular haqidagi fikrlarni shoir shunday bayon qiladi: “Biri ul hosidi jafopesha va muonidi xato andishaki, tab’i nomavzunila davoyi she’r eda, ammo haqoiqi ash’ora sohib shuur o’lmaya va idroki rakikla lofi nazm ura, ammo haqoiqi guftora rohi tasarruf bo’lmaya. Lojaram, hasad diydai insofing ko’r edib, idrokina e’timod edan johillar huzurinda behuda-behuda taarruzlar eda va harza-harza dahllar aylaya, toki she’rdan zavqi istimo’ keda.

Oh az on bodiyapaymoi biyoboni hasad

Ki, nadorad dili zulmoniyash az irfon nur.

Chun anokib be do bayti ki, baham mebofad –

Xishra diyda beh az boniyi bayt-ul - ma’mur.

Ayb boshad hamajo matrahi maddi nazarash,

Gardad az gardi hasad diydai insofash ko’r” [3,23-24].

(Ma’nosi: Ma’nosiz hasad cho’llariga boruvchilardan dod, uning qorong’i yuragida irfon nuri yo’qdir. O’rgimchak kabi bir-ikki bayt to’qigach, o’zini baytul-Ma’murni bino qilgan kishidan ham usta hisoblaydi. Uning dunyoga qarashi tamomila xatodir. Baxillik gardidan uning insof ko’zi ko’r bo’ladi)

Yuqorida ta'kidlanganidek, iste'dodli shoir ilmi aruz, ilmi bade', ilmi qofiya borasida ham mukammal bilimga ega bo'lgandagina, mazmun va shakl uyg'unligidagi haqiqiy she'r dunyoga keladi. Lekin bu toifa vakillari ilmu irfondan bexabar bo'lib, o'zlarining nomavzun she'rlari bilan fasohat ahliga zavq-shavq ulasholmaydi. Shu bois ularning yuragida go'zal asarlar bituvchi she'r sohiblariga nisbatan hasad o'ti alangalanadi. Shoir ilmu irfon bilan vobasta she'riyat gulshanini xazon qilish payida bo'lgan, amali ma'rifat ahliga ozor berishni maqsad qilgan hosidlardan panoh tilash mazmunidagi she'r bilan debochani yakunlaydi.

Umuman, Muhammad Fuzuliyning turkiy devoniga yozgan debochasi yosh shoirning maktab tahsili davridagi ijodiy jarayonlarning boshlanishi, oz vaqtda otashin g'azallari bilan shuhrat qozonishi, ilm tahsiliga bo'lgan munosabati, boshqalarning iltimosi bilan devon tuzishga kirishuvi, g'azal janri borasidagi, noqobil kotiblar, iste'dodsiz va hasadgo'y shoirilar xususidagi adabiy-estetik qarashlarini ifoda etishi bilan e'tiborlidir. Shuningdek, shoirning debochaning hamdu na't qismidagi fikr-mulohazalari Kalom ilmining ham bilimdoni ekanligini namoyish qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Badoe' ul-bidoya. MAT, 20-jildlik, 1-jild. –Toshkent: Fan, 1987.
2. Alisher Navoiy. G'aroyib us-sig'ar. MAT, 20-jildlik, 3-jild. –Toshkent: Fan, 1988.
3. Alisher Navoiy asarlari lug'ati. / Porso Shamsiev tahriri ostida. – Toshkent: Fan, 1971.
4. Alisher Navoiy: qomusiy lug'at. 1-2-jildlar. / Mas'ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent: Sharq, 2016.
5. Karimova F. O'zbek adabiyotida debocha. Monografiya – Toshkent: Mumtoz so'z, 2008.
6. Jalolov T. Fuzuliy .So'zboshi. Devon. – Toshkent: Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1961.
7. Jalilov B. Mumtoz adabiyotda diniy-ma'rifiy mavzular. – Toshkent: Movarounnahr, 2010.
8. Muhammad Fuzuliy. Asarlar. Ikki jildlik. Birinchi jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1968.
9. Qur'oni karim. O'zbekcha izohli tarjima. Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur. – Toshkent: Sharq, 1992.

10.00.00 - Filologiya

FUZULIYNING UVAYSIYGA ADABIY TA'SIRI

Nusratullo Jumaxo'ja

Filologiya fanlari doktori,

Alisher Navoyi nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti professori

Annotatsiya: Ushbu maqola shoira Uvaysiyga buyuk ozarbayjon xalq shoiri Fuzuliyning adabiy ta'siri masalasini yoritishga bag'ishlangan. Maqolada Uvaysiyning ikki nazira (o'xshatma) g'azali tahlil etilgan. Uvaysiy Fuzuliy ijodiyotini sevib o'rgangan va uni o'ziga ustoz darajasida qadrlagan. Fuzuliyning ijodi va badiiy mahoratidan ibrat olgan. Uvaysiy Fuzuliy adabiy maktabida kamol topib, yuksak badiiy mahorat qozongan va ustozning yetuk g'azallari darajasida nazira g'azallar yaratishga muvaffaq bo'lgan.

Kalit so'zlar: Adabiy ta'sir, badiiy mahorat, lirik kompozitsiya, badiiy obraz, janr, lirika, nazira, g'azal, muxammas, tasavvuf, pir, murid.

ЛИТЕРАТУРНОЕ ВЛИЯНИЕ ФУЗУЛИ НА УВАЙСИЙ

Аннотация: Данная статья посвящена освещению вопроса литературного влияния великого азербайджанского поэта Фузуди на творчество поэтессы Увайсий. В статье проводится анализ двух назира (ответных) газелей Увайсий. Увайсий с любовью изучала творчество Фузуди и считала его своим духовным наставником. Она вдохновлялась его поэзией и художественным мастерством. Воспитавшись в литературной школе Фузуди, Увайсий достигла высокого художественного мастерства и сумела создать назира, сопоставимые с лучшими газелями её учителя.

Ключевые слова: Литературное влияние, художественное мастерство, лирическая композиция, художественный образ, жанр, лирика, назира, газель, мухаммас, суфизм, пир, мюрид.

THE LITERARY INFLUENCE OF FUZULI ON UVAYSIY

Annotation: This article is dedicated to exploring the literary influence of the great Azerbaijani poet Fuzuli on the works of the poetess Uvaysiy. The study analyzes two *nazira* (response) ghazals written by Uvaysiy. Uvaysiy deeply admired and studied Fuzuli's poetry, regarding him as her spiritual mentor. She was inspired by his creativity and artistic mastery. Raised within the literary tradition of Fuzuli, Uvaysiy achieved a high level of poetic skill and successfully composed *nazira* ghazals that rival the quality of her mentor's masterpieces.

Keywords: Literary influence, poetic mastery, lyrical composition, artistic image, genre, lyric poetry, nazira, ghazal, mukhammas, Sufism, pir, murid.

Jahon otin Uvaysiy o'zbek mumtoz adabiyoti an'alarini munosib davom ettirgan ulkan iste'dodli shoiradir. Biroq uning adabiy merosi oziqlangan manba faqat o'zbek mumtoz adabiyoti bilangina chegaralanmaydi. Uning badiiy yuksak asarlarida umumsharq va qardosh xalqlar adabiyotining adabiy ta'siri yaqqol sezilib turadi.

Uvaysiy ta'sirlangan va ilhomlangan qardosh shoirlar orasida, ayniqsa, buyuk ozarbayjon xalq shoiri Muhammad Fuzuliy alohida ajralib turadi. Uvaysiy Fuzuliy lirik she'riyatining mazmuni va ruhiyatidan juda ta'sirlangan. Fuzuliy lirikasining mazmuni va ruhiyatigina emas, balki badiiy tilining o'ziga xos xususiyatlari ham Uvaysiy she'riyatidan sado berib turadi.

Fuzuliyning “G‘amzasin sevdin, go‘ngul, joning kerakmazmu sanga, Tig‘a urding, jismi uryoning kerakmazmu sanga” matlali g‘azaliga ko‘plab o‘zbek shoirlari, shu jumladan, Munis, Ogahiy, Amiriy, Uvaysiy va boshqalar nazira bog‘laganlar. Uvaysiy Fuzuliyning ushbu g‘azaliga bir emas – ikki nazira bog‘lagan. Ular “Yor, man’ etma meni, Majnun kerakmazmu sanga” va “Yozma tumoringni, ey, gul kerakmazmu sanga” satrlari bilan boshlanadi. G‘azal va naziralarni qiyosiy tahlil etmoq uchun asarlar matnlari to‘lig‘icha ko‘z oldimizda turmog‘i lozim. Nashrlarda xatolar ko‘p, biz ularni mumkin qadar tuzatib keltirdik. Fuzuliy g‘azali matni quyidagicha:

G‘amzasin sevdin, ko‘ngul, joning kerakmazmu sanga?

Tig‘a urding, jismi uryoning kerakmazmu sanga?

Otashin ohim-la aylarsan manga taklifi bog‘,

Bog‘bon, gulbargi xandoning kerakmazmu sanga?

Yela verma dog‘idub har yon, ayoqlardin ketur,

Ey pari, zulfi parishoning kerakmazmu sanga?

Ey kamonabro‘, raqiba verma g‘amzangdin nasib,

O‘q otarsan tosha, paykoning kerakmazmu sanga?

Yondirub jonim, jahonso‘z etma barqi ohimi,

Osmon, xurshidi raxshoning kerakmazmu sanga?

Kufri zulfindin mani man’ aylamak loyiqmudur,

So‘fiy, insof ayla, iymoning kerakmazmu sanga?

Tutalimkim, ashk selobina yo‘qdur e‘tibor,

Ey Fuzuliy, chashmi giryoning kerakmazmu sanga? (1.34)

Shu g‘azalga Uvaysiy birinchi nazira g‘azalining matni:

Yor, man etma meni, Majnun kerakmazmu sanga?

Ol ashkim, xirqai gulgun kerakmazmu sanga?

Xudnamolig‘din agar nomus etar ahvolima,

Bizni xalq etgan o‘shal bechun kerakmazmu sanga?

Sochma hasrat tuxmini, ey majnuni sahronishin,

Shahr rasvoi esang, Homun kerakmazmu sanga?

Istasang yor ila o‘zluk, zohido, ko‘p yig‘lag‘il,

O‘zlugung g‘arq etmag‘a Jayhun kerakmazmu sanga?

Solsa har nomard ko‘ngliga muhabbat nash‘asin,

Vahki, haq asrorig‘a maknun kerakmazmu sanga?

Xuni nohaq qildi ul ko‘z, ey jahongiri zamon,

Izlag‘il la‘li labini, xun kerakmazmu sanga?

Yod qilmassen duo vaqtida Vaysiyi hazin,

Iltofoti quvvati mahzun kerakmazmu sanga? (2.44)

Nazira yozish an‘anasiga ko‘ra, unga asos bo‘lgan g‘azaldan iqtibos olinardi. Ya‘ni, asos g‘azalning vazn, qofiya va radif xususiyatlari saqlangan holda, uning ayrim misra yoki baytlari ham olinib, ular ijodiy davom ettirilar edi. Uvaysiy ushbu nazirasini bog‘lashda o‘zgacharoq ish tutgan. Fuzuliy g‘azalining faqat vazn va radif xususiyatlarini saqlagan. Fuzuliy g‘azalining oshiqona g‘azal xususiyatini ham ijodiy davom ettirgan. Umuman, g‘azalda Fuzuliy ruhiyatini ham saqlagan desak bo‘ladi. Biroq, mazmunan Uvaysiy butunlay yangi va mustaqil asar yaratishga muvaffaq bo‘lgan. G‘azallarning mazmuni va ruhiyatida mualliflar jinsiyatining turlichaligi ham ayon ajralib turadi. Asar mazmuni va ohangidan asos g‘azal lirik qahramoni erkak, tatabbu g‘azal lirik qahramoni esa ayol kishi ekanligi yaqqol anglashilib turadi. Fuzuliy lirik qahramoni baralla, mag‘rur, jarangdor na‘ra tortadi. Uvaysiy lirik qahramoni esa nazokatli, nolavor, shikasta nido chekadi.

Uvaysiy nazirasining, ayniqsa, quyidagi baytlari juda dardli va ta‘sirchan.

Istasang yor ila o‘zluk, zohido, ko‘p yig‘lag‘il,

O'zlugung g'arq etmag'a Jayhun kerakmazmu sanga?

Nazirada mumtoz adabiyotimizdagi ishq haqiqiy bilan ishq majoziy uyg'un ifodalangan. Undagi mazmunni dunyoviy yorga ham, ilohiy ma'shuqqa ham murojaat sifatida qabul qilaverish mumkin. Mazkur baytda shoiraning an'anaviy zohid obraziga murojaati mujassamlashgan. Shoira zohidga aytmoqchiki: *"Ey zohid, agar muhabbating samimiy bo'lsa, xudnamolik va mutaassiblik qilmayotgan bo'lsang, Yor bilan o'zlik, ya'ni birlik – vahdat istayotgan bo'lsang, bu sen o'ylaganingchalik sodda va oson a'mol emas, buning uchun qurbon bo'lmoq lozim, o'zdan o'zligingni mosuvo etmog'ing kerak. Ammo sen o'zingni sevasan, senda xudparastlik va g'urur ustuvor. Ulkan o'zligingni butkul g'arq etish uchun Jayhunday muazzam daryo kerak emasmikin?!"* Uvaysiyning ushbu nidosi zaifalarga xos zaif emas, balki chinakam oshiq'larga xos mardonavor mag'rur jaranglaydi. Bu baytdagi tanqid ob'ekti bo'lgan zohid alohida bir shaxs emas, balki fidoyilikni zimmasiga olmay soxta ishq da'vo qiluvchi oshiq'larning umumlashma obrazidir.

Solsa har nomard ko'ngliga muhabbat nash'asin,

Vahki, haq asrorig'a maknun kerakmazmu sanga?

Ushbu baytdagi fikr va mazmun mantiqan oldingi baytning mantiqiy davomidir. Unda shoira ishq sirlaridan, muhabbat qonuniyatlaridan saboq beradi. Ishq-muhabbatdan lof-qof uruvchi, Olloh ko'ngliga solgan ishq sirrini pinhon saqlayolmaydigan, ko'ksiga urib, muhabbat haqida quruqlanuvchi kimsalar lirik qahramon nazdida nomard. Bunday sodda va go'l oshiq'lar hayotda ko'p uchraydi. Shu bois, shoira saboq beradiki: *"Ilohiy qudrat har nomard ko'ngliga muhabbat nash'asini solgan ekan, ya'ni o'z ishqidan bir laxcha cho'g' in'om etgan ekan, ey vohki, ilohiy ishq sirlarini qalbida pinhon saqlashi kerak emasmikin?!"* Darvoqe, ishq asrorini pinhon saqlash muhabbatning azaliy qonuniyati ekanligi Sharq adabiyotida minglab baytlarda rang-barang talqin etilgan. Hatto, muqaddas ishq sirrini pinhon saqlash irodasiga ega bo'lganida, naqshbandiya tariqatining "xufya zikr" ta'limotiga amal qilganida, Mansuri Halloj ham dor ostiga bormagan bo'lishi to'g'risida mag'zi to'q tasavvufiy, falsafiy baytlar bitilgan.

Yod qilmassen duo vaqtida Vaysiyi hazin,

Iltofoti quvvati mahzun kerakmazmu sanga?

Mazkur maqta baytda Uvaysiy o'z muhabbatining ob'ekti va g'azalxon muxlisga murojaat etadi: *"Duo vaqtida hazin Uvaysiyni hamisha yod etishni unutmagin. Uvaysiy muhabbatining mahzun, ya'ni g'amgin quvvatidan iltifot kerakmasmikin senga?"* Bu nazira g'azalning yuqoridagi baytlar mazmuniga muvofiq, juda go'zal tugallanmasidir.

Uvaysiyning Fuzuliyga ikkinchi nazira g'azali quyidagicha:

Yozma tumoringni umr, ey, gul kerakmazmu sanga?

Berma ko'p xoringga yo'l, bulbul kerakmazmu sanga?

Berma har mashshota ilkiga soching andishasin,

Ojiz o'lg'ay shonasi, kokil kerakmazmu sanga?

G'o'ta ur bahri tavakkul ichra, ey g'avvosi dil,

Ishq baxti ichra aqli kul kerakmazmu sanga?

Qovlamoliq ixtiyor etti, dedim men yalbarib:

Dargahing jorub etarg'a qul kerakmazmu sanga?

Soqiyo, qildur manodi, yetti jon labg'a yaqin,

Tashna o'lsang, kelki, sog'ar mul kerakmazmu sanga?

Fasberu keldi nidosi, qo'ymag'il sog'arg'a lab,

Muntazir bo'lg'on, sochi sunbul kerakmazmu sanga?

Vaysiy, gul qon bag'rini yozdiyu, uzdi bog'bon,

Yozma tumoringni umr, ey, gul kerakmazmu sanga? (2.45)

Ushbu asar misolida ham Uvaysiy Fuzuliy g'azalining vazni, radifi, oshiqona mazmuni va ruhiyatini saqlab qolgan va mustaqil g'azal yaratishga harakat qilgan. Asos sifatida Fuzuliyning biror misra yoki baytini iqtibos qilib olmagan. Ushbu asar irfoniy mazmundagi

oshiqona g‘azaldir. U falsafiy-tasavvufiy mazmun bilan yo‘g‘irilgan. G‘azalning, xususan, quyidagi baytlari diqqatga sazovordir.

Berma har mashshota ilkiga soching andishasin,
Ojiz o‘lg‘ay shonasi, kokil kerakmazmu sanga?

Ma‘lumki, Uvaysiy va Nodira hamda boshqa shoiralar lirikasi ayollarning o‘ziga xos obrazlari bilan ajralib turadi. Bu ayollar she‘riyatida xususiyat emas, balki fazilatdir. Ayollar she‘riyati poetikasidagi bu xos fazilat haqida biz doktorlik dissertatsiyamizda, 10-sinflar uchun yozilgan “O‘zbek adabiyoti” darsligimizda, oliy o‘quv yurtlari uchun yozilgan “O‘zbek adabiyoti tarixi (XVI-XIX asr I yarmi)” darsligimizda va qator maqolalarimizda ham batafsil to‘xtalganmiz. Mazkur baytda ham mashshota (pardozchi), soch va shona (taroq) obrazlari borki, ulardan badiiyat ifodasi uchun foydalanish faqat ayol adiblar uslubida mavjuddir.

Baytda: *“Sochingni har qanday mashshota, ya‘ni pardozchi qo‘liga parvarishlash va shakl berish maqsadida topshirma, uning shonasi, ya‘ni tarog‘i sen umid qilgan maqsadni amalga oshirishga o‘zlik qilishi muqarrar. Oqibatda, sog‘lom va ziynatli sochingdan ayrilib qolishing mumkin. Mashshotaning qo‘lida xazon bo‘lishi mumkin bo‘lgan kokil kerakmasmi sanga?”*, degan zohiriy mazmun ifodalangandek tuyuladi. Ammo mashshota, soch, kokil ramziy obrazlardir. Bizningcha, bayt mazmuniga murid tarbiyasini har qanday pirga ishonib topshirmaslik haqidagi tasavvufiy tanbeh singdirilgan bo‘lishi kerak.

Keyingi baytda *“tavakkul”* nomli diniy-falsafiy tushunchaga urg‘u beriladi:

G‘o‘ta ur bahri tavakkul ichra, ey g‘avvosi dil,
Ishq baxti ichra aqli kul kerakmazmu sanga?

Tasavvuf ta‘limotida *“tavakkul”* Ollohga tavakkal qilishni anglatadi. Shunga binoan, baytdan quyidagicha mazmun anglashiladi: *“Ey ko‘ngilni kashfetuvchi inson, Ollohga tavakkal qilish ilmiga g‘avvos singari sho‘ng‘i, ishq baxtiga doir yetuk aqlu zakovat shunda kamol topadi. Senga shunday komil aql kerakmasmi?”* Matndagi *“ishq baxti”* iborasi aslyatda *“ishq bahri”* ham bo‘lishi mumkin. Nashr – nuqsonli. Biz hozircha matnni qo‘lyozma manbalar bilan solishtirib o‘rganishga ulgurmadik. Lekin mantiqan birinchi misradagi *“bahri tavakkul”* obrazi *“ishq baxti”*dan ko‘ra *“ishq bahri”* obrazi mutanosib keladi. Agar matn aslyatda shunday bo‘lsa, baytdan boshqacha ma‘no chiqadi. Unda shoir ko‘ngil g‘avvosini tavakkul dengizi ichra sho‘ng‘ishga da‘vat etar ekan, ishq dengizida suzib, izlanib, asl maqsadga muvaffaq bo‘lish uchun *“aqli kull”* ham kerakligini uqtiradi. Aslida, Sharq adabiyoti ishq falsafasida aksariyat hollarda ishq bilan aql qarama-qarshi, hattoki, ishq aql dan ustun qo‘yiladi. Masalan, Munis bir misrasida *“Aql ila ishq ixtilofidin xarob bo‘ldi ko‘ngul”* deya, bu ziddiyatni yorqin ifodalagan. Lekin Uvaysiy baytida oddiy aql haqida emas, balki *“aqli kull”* haqida fikr yuritilgan. *“Aqli kull”* mumtoz adabiyot lug‘atlarida *“Buyuk Aql”*, *“Katta Aql”*, *“Ilohiy Aql”* ma‘nolarida izohlanadi. Uvaysiy bayti mazmuniga *“Ilohiy Aql”* ma‘nosi muvofiq keladi. Demak, tavakkul dengizida oshiq ko‘ngil muddaosi uchun faqat majnunvor ishqiy hissiyotlar, ehtirolargina emas, balki Ilohiy aql ham hamroh bo‘lishi lozim ekan.

Navbatdagi baytda pir va murid, oshiq va ma‘shuq munosabatlari ifodalangan:

Qovlamoqliq ixtiyor etti, dedim men yalbarib:
Dargahing jorub etarg‘a qul kerakmazmu sanga?

Pir muridni o‘z dargohidan chetlatmoqchi. Lekin murid pining muhabbati, muruvvatidan mosuvo bo‘lmaslik uchun har qanday riyozat tortishga rozi. U hatto pining ostonasida farroshlik qilishga ham tayyor. Shuning uchun: *“Pir meni dargohidan quvlamoqqa ixtiyor etdi. Men ersam, dargohingni supurgi bilan supurib turuvchi qul kerak emasmi senga, deya yolvordim”*, deyapti lirik qahramon. Muridning pirga bu tarzda sadoqati ifodasi mumtoz adabiyotda ko‘p uchraydi. Hazrat Alisher Navoyining pirlar maqbarasida farroshlik qilishni Husayn Boyqarodan yolvorib so‘raganlari ham shunday munosabatga mansubdir.

Fuzuliydan farqli o'laroq, Uvaysiy nazira g'azali kompozitsiyasi, ya'ni badiiy qurilmasini raddul matla san'ati bilan bezagan. *"Yozma tumoringni umr, ey, gul kerkmazmu sanga"* shaklidagi matlanning birinchi misrasi ramziy ma'noga ega. *"Tumor"* obrazi inson umrining yoshlik, g'unchalik davrini aks ettiradi. Tumorning shakli ham g'unchaga o'xshaydi. Shoirira lirik qahramonga *"tumoringni yozma"*, deb murojaat qiladi. Bu g'unchangni ochib, gulga aylantirma, degani. Chunki umr g'unchaligida, yoshligida go'zal. Agar g'uncha gulga aylansa, xazon bo'lishi muqarrar. Gulni yo uzib olib xazon qilishadi yoki o'zi so'lib, gulbarglari xazon bo'ladi. Shuning uchun shoirira *"gul kerakmazmi sanga"*, deya nido chekadi. Bu umringni, yoshligingni asra, degani. *"Tumor"* obrazi – mavhum. Uni ishq siri deb tushunish ham mumkin. Unda shoirira ishq sirini pinhon saqlash haqida saboq bergan bo'ladi. Matladagi ushbu purhikmat misra maqtaning ikkinchi misrasida yana takrorlanadi:

Vaysiy, gul qon bag'rini yozdiyu, uzdi bog'bon,
Yozma tumoringni umr, ey, gul kerakmazmu sanga?

Maqta baytda endi yuqoridagi mazmun badiiy sharhlanadi va yanada qat'iylashadi. Shoirira aytadiki: *"Ey Uvaysiy, gul g'uncha holatida bag'ri to'la qip-qizil qon edi, lekin butun va omonda edi. Biroq g'uncha bag'rini yozdi, ya'ni qip-qizil gul bo'lib ochildi va bog'bon uni uzib oldi, ya'ni gul o'z husnu jamolini namoyon qilgani uchun ham o'limga mahkum bo'ldi. Tabiatdagi bu foje sir-sinoatdan saboq ol. Umring tumorini yozma, gullab-yashnagan yoshliging kerak emasmi senga?"* Matladagi hayot falsafasiga oid hikmat maqtada ikki hissa kuchliroq bayon etildi. Mana raddul matla san'atining xosiyati va Uvaysiyning yuksak badiiy mahorati.

Uvaysiy Fuzuliyning bir necha g'azallariga muxammas bog'lagan. Ushbu muxammaslar Uvaysiy she'riyatining qator nashrlaridan o'rin olgan. *"Mehrining o'lsa, soqi, bir daf'i xumor etmazmidim"*, *"Ey, ziyonu suddin ixroj majnunvor lafz"*, *"Istasang ishq, etma ey dil, sabru somondin tama"*, *"Dilo, maqrubi jonon o'lma, uldur kori so'zonlig"* misralari bilan boshlanuvchi muxammaslar shular jumlasidandir. Ularni tadqiq etish yana bir ilmiy maqola vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Fuzuliy. Qalb gavhari. "Hilol-nashr", Toshkent, 2014.
- 2.Uvaysiy. Devon. "Fan", Toshkent, 1959.
- 3.N.Jumaxo'ja, I.Adizova. O'zbek adabiyoti tarixi (XVI-XIX asr I yarmi). "Innovatsiya-ziyo", Toshkent, 2022 yil.
- 4.I.Adizova. Uvaysiy she'riyatida poetik tafakkurning yangilanishi. T. 2020.

10.00.00 - Filologiya

OYBEK SHE'RIYATIDA VAZNNING FUNKSIYASI

Sabirdinov Akbar Gofurovich

Farg'ona davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori,
ORCID: 0000-0002-5137-1763
a.sabirdinov@pf.fdu.uz

Annotatsiya: Maqolada Oybekning poetik mahorati uning she'rlari vazn xususiyatlarini tadqiq etish orqali yoritilgan. Oybek XX asr o'zbek lirikasi poetik tafakkuri taraqqiyotida muhim o'ringa ega bo'lib, uning she'riyatiga xos xususiyatlarni tadqiq etish keyingi davr lirikasining taraqqiyot bosqichlarini belgilashda ahamiyatli ekanligi bilan dolzarbdir. Maqolani tadqiq etishda struktural-poetik, tarixiy-qiyosiy, tarixiy-madaniy kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi. She'rni shakl jihatdan mukammallashtirish borasida muttasil ijodiy izlanishlar olib borgan Oybek vazn, band va qofiyaning turli kontekstdagi keng imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda ham katta muvaffaqiyatlarga erishganligi yortildi. Shoir she'riyatidagi shakliy o'ziga xosliklar g'oyaviy ta'sirchanlik va mazmundorlikka, obraz va obrazli ifoda jozibadorligiga xizmat qiladi. Oybek inson va tabiat go'zalliklaridan, tilsimotlari va murakkabliklaridan tug'ilgan hayratini besh bo'g'indan o'n besh bo'g'ingacha bo'lgan turli xil turoqlanishli vaznlarda ifodalashi tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek she'riyati, poetik tafakkur taraqqiyoti, shakl va mazmun, g'oyaviy ta'sirchanlik, obraz va obrazli ifoda, vazn, ritm, musiqiylik, kompozitsiya.

ФУНКЦИЯ РАЗМЕРА В ПОЭЗИИ АЙБЕКА

Аннотация. В статье освещено поэтическое мастерство Айбека через исследование особенностей метра в его стихах. Айбек занимает важное место в развитии поэтического мышления узбекской лирики XX века, и исследование характерных черт его поэзии имеет актуальное значение для определения этапов развития лирики последующего времени. В процессе исследования использовались структурно-поэтический, историко-сравнительный и историко-культурный методы. Отмечается, что Айбек, ведя постоянные творческие поиски в направлении совершенствования формы стиха, добился значительных успехов в раскрытии широких возможностей метра, строфики и рифмы в различных контекстах. Формальные особенности поэзии поэта способствуют идейной выразительности, содержательности, образности и художественной выразительности. В статье исследуется, как Айбек выражал своё восхищение красотой человека и природы, её тайнами и сложностью через различные ритмические формы от пяти до пятнадцати слогов.

Ключевые слова: узбекская поэзия, развитие поэтического мышления, форма и содержание, идейная выразительность, образность и художественное выражение, метр, ритм, музыкальность, композиция.

THE FUNCTION OF METRE IN OYBEK'S POETRY

Abstract. This article explores Oybek's poetic mastery through the study of metrical features in his poetry. As a significant figure in the development of 20th-century Uzbek lyrical poetic thought, analyzing Oybek's poetic characteristics is crucial for understanding the progression stages of later lyricism. The research employs structural-poetic, historical-comparative, and historical-cultural methods. The article highlights Oybek's continuous

creative endeavors to perfect poetic form and his success in effectively utilizing the diverse contextual capacities of metre, stanza structure, and rhyme. The poet's formal uniqueness enhances ideological expressiveness, meaningfulness, and artistic imagery. The study also examines how Oybek conveyed his admiration for the beauty, mysteries, and complexities of human nature and the natural world through rhythmic patterns ranging from five to fifteen syllables.

Keywords: Uzbek poetry, development of poetic thought, form and content, ideological expressiveness, imagery and figurative language, metre, rhythm, musicality, composition.

KIRISH

She'riyatning janr xususiyatlariga, so'zning satrlardagi o'rniga e'tiborini qaratgan Oybek: "... poeziyada o'rinli-o'rinsiz har qanday terminlarni marjon qilib tizish asarni badiiy sifatdan mahrum qiladi. Poeziya maxsus janr, uning xususiyatlari bor. Buni shoir unytishi kerak emas"[1; 110], deya yozgan edi. Darhaqiqat, "She'r - so'z bilan aytib bo'lmaydigan hissiyot. Unda musiqa bor, aql bovar qilmas sehr bor" [2; 227]. Ana shu so'z bilan aytib bo'lmaydigan hissiyot, aql bovar qilmas sehr vaznning ulkan imkoniyatlarini yuzaga keltirgan ritm va musiqiylik orqali namoyon bo'ladi.

"Ritm - bu tartib, uyg'unlik, bir xil o'lchamdagi va izchillikdagi harakat" [3; 58] ekan "She'r tabiiy ravishda, ma'noni hisobga olgan holda talaffuz etilsagina haqiqiy hayotini yashay boshlaydi" [4; 36]. Musiqiylik she'rning joni bo'lsa, vazn ana shu jonning qon tomiridir. Vazn "...ritmning she'riy asardagi ko'rinishi yoki she'riy nutq o'lchanadigan mezon" [5; 406] dir. "Vazn - she'rning ilk tashkillanishi. U she'r motori, til material, yonilg'isi" [6; 188]. Vaznning musiqiy izchilligini, ohangdorlikning tadrijiy takomilini, ma'no bilan talaffuz o'rtasidagi uyg'unlikni ta'min etishdagi muhim o'rnini yaxshi anglagan shoir muttasil ijodiy mehnat orqali she'r ta'sirchanligiga erishdi. Ma'noni harakatlantiruvchi va inson borlig'ini sehlrab, ohanrabo yanglig' rom etuvchi she'riy tilsimotning ochqichi vazn ekanligini to'g'ri anglagan Oybek qator uslubiy izlanishlarida uni mukammallashtirishga e'tibor berdi. Ma'lumki, she'rda ritm, aksariyat, doimiy bo'lib, asardagi tuyg'u-kechinmalar, obrazlar harakati birligi va uyg'unligini ta'minlaydi. Prozada esa ritm o'zgaruvchidir, u ma'no harakatiga bog'liq bo'ladi. Ritmning barqarorlashgan ko'rinishi bo'lgan vazn esa she'rda musiqiy va tasviriy izchillikni yuzaga keltiradi. Mazmunning maroqli ifodasini ta'min etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Oybek ijodi hamisha ilmiy-adabiy jamoatchilik ardog'ida. Butkul ijodi qatori she'riyati tahliliga bag'ishlangan monografiyalar, qator maqolalar nashr etildi, dissertatsiyalar himoya qilindi. Taniqli adib M.Osimning "Oybek va uning she'rlari" [7; 42] nomli maqolasida ilk bor shoir asarlaridagi tuyg'u-kechinmalar tasviri, uslubidagi betakror qirralar nozik kuzatishlar asosida yoritiladi. Jumladan, professor S.Mirvalievning "Hayot va kurash poeziyasi" [8; 173] kitobi ustoz olim nomzodlik dissertatsiyasining monografik holatidir. Unda Oybek dostonlarining til qurilishi, tasviriy vositalardan foydalanish mahorati birinchi bor monografik yo'sinda tahlil etiladi, umumlashtiriladi. Atoqli adabiyotshunos, professor H.Yoqubovning "Oybek lirikasida g'oyaviylik va mahorat" [9; 188] nomli monografiyasi doktorlik dissertatsiyasiga asos bo'lgan edi. Unda Oybek she'riyatida g'oyaviylik va mahorat, lirik xarakter va konflikt, lirik tasvir va uslub, lirik obraz va peyzaj masalalari ilk bora atroflicha tadqiq etilgan. "Adibning mahorati" [10; 310] nomli salmoqli monografiyasida esa professor H.Yoqubov buyuk Oybek nasri bilan dostonchiligini, epik janrdagi badiiy mahorati sirlarini umumlashtirishga muvaffaq bo'ladi.

Akademik M.Qo'shjonovning "Oybek mahorat" [11; 355] kitobida adib romanlari va ba'zi dostonlarida obraz yaratish masalasi, professor L.Qayumovning "Olmos iste'dod" [12; 36] risolasida esa adib romanlari va dostonlarining mavzui, g'oyaviy yo'nalishi orqali badiiy dunyosi yoritiladi. Folklorshunos O.Sobirovning "Oybek ijodida folklor" [13; 104] kitobida

adib romanlari hamda dostonlarida xalq og‘zaki ijodi an‘analari kuzatiladi. Akademik B.Nazarovning “Bu sehrli dunyo” [14; 104] kitobida Oybekning adabiy-tanqidiy hamda estetik qarashlari tahlil doirasiga tortilgan. Atoqli adabiyotshunos, akademik N.Karimovning “Ilhom chashmasining ajib mavjlari” [15;56] risolasida adib ijodxonasiga – ba’zi dostonlari va prozaik asarlarining yaratilish tarixiga nazar tashlanadi. Taniqli olim I.G‘afurovning “Yurak – alanga” [16; 294] kitobidagi “She’rga sochilgan yulduzlar” maqolasida esa shoir she’riyatida badiiy talqin jozibasi, ifoda xillarining o‘ziga xosliklari yoritiladi.

Adib va adabiyotshunos U.Hamdovning “30-yillar o‘zbek she’riyatida “sof lirika” muammosi” (Oybek she’riyati asosida) [17; 142] mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida tuyg‘u va kechinmalarining obraz va mavzu talqinidagi estetik qimmatini tadqiq etiladi. A.Sabirdinovning “Oybek she’riyatida so‘z va obraz” [18; 138] mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasida esa g‘oyaviylik va obrazlilik masalasi tahlil markazini tashkil etadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Oybek ijodining deyarli ellik yilini she’riyatga bag‘ishladi. Uning yigirma jildlik “Mukammal asarlar to‘plami”ning birinchi va ikkinchi jildlarini kuzatadigan bo‘lsak, ijodining 1932, 1938, 1940, 1952, 1953, 1954, 1956, 1958, 1966-yillar sahifalari bo‘shligini ko‘ramiz. Ammo bu ushbu yillarda Oybek she’r ijod etmagan, degan xulosa chiqirishimizga asos bo‘la olmaydi. Chunki shoir xayolida charx urgan, tutqich bermay va qog‘ozga qo‘nmay uchib ketgan rangin she’r kabutarlari ham talaygina bo‘lganligi shubhasizdir. Shunisi haqiqatki, Oybek og‘ir xastalik yillarida ham ijod bilan muttasil mashg‘ul bo‘ldi. Adabiyotimizni she’riy javohirlar bilan boyitishda davom etib, ulkan adabiy meros qoldirdi.

Oybekning ilk she’rlari to‘g‘risida so‘z yuritgan aksariyat munaqqidlar ularda “sababsiz mung”ning ko‘pligini ta’kidlaydilar. Bizningcha, bunday holning jiddiy sabablari bor. Bu izchil olib borilgan mustamlakachilik siyosati, urushlardan vayron bo‘lgan yurt, och-yupun xalqning og‘ir ahvoli bilan bog‘liq edi. Odatda, og‘ir, g‘amgin kechinmalar, aksariyat o‘n bo‘g‘indan yuqori bo‘lgan vaznlarda ifodalanadi. Shoir mahorati shundaki, u “Qushlar ucharkan”(1923) she’ridagi yengil vaznga asoslangan besh bo‘g‘inli satrlarda hazin kechinmalarini ifodalashga muvaffaq bo‘ladi. “Qushlar uchdingiz, Erkni quchdingiz. Qalbimga oqdi Totli she’ringiz” (1.13) satrlarida shoir yengil vaznni qo‘llashi bejiz emas. Bu, erkni quchgan qushlar parvozidagi yengillikni ifodalashga ham bir qadar yordam beradi. Oybek ushbu she’rda vaznni ohang va mazmun talabi bilan emas, balki obrazlarga muvofiq tanlagan. Misralari ikki so‘zdan tuzilgan va har bir so‘z alohida turoqni tashkil etuvchi yuqoridagi bandning birinchi, ikkinchi va to‘rtinchi satrlaridagi (2+3 tarzidagi) turoqlar izchilligi saqlangan. Uchinchi satrda uch bo‘g‘inli turoq birinchi, ikki bo‘g‘inli turoq undan so‘ng kelganligini ko‘ramiz. She’rning birinchi bandi qushlar tasviriga bag‘ishlangan bo‘lsa, keyingi banddagi lirik chekinishda shoir “men”ining erkinlikka chiqolmaganidan, xasta holatdan qutulolmaganidan iztiroblari o‘rin olgan. Garchand, Oybek buning sabablarini ochiq bayon etmasa-da, satrlarda yurtning vayrona tutqun holatiga ishora borligi anglashilib turadi. Bu turoqlanish yanada rang-baranglik kasb etgan quyidagi misralarda namoyon bo‘ladi:

1	4	=	5
Men II ucholmadim, I			
1	4	=	5
Gul II kucholmadim. I			
2	3	=	5
Xasta II holatdan I			
5		=	5
Kutulolmadim.II			

Bir bo‘g‘inli turoqlanishning she‘rdan o‘rin olishi, so‘z urg‘usini, ritmni, lirik “men” tuyg‘u-kechinmalarining o‘ziga xos to‘lqinini ta‘minlagan. Bir so‘z besh bo‘g‘inli turoqlanishni tashkil etuvchi so‘nggi misra ikkinchi band tasviridagi ohang va mazmunni xulosalagandek va yakunlagandek bo‘ladi. Obrazlar (qushlar, lirik “men”) tasvirida harakat asosiy o‘rin tutgani bois she‘rda aksariyat, fe‘l qofiyalar yetakchilik qiladi. Bu agglyutinativ tillar oilasiga mansub bo‘lgan tilimizning tabiatiga xos jihatlar bilan ham bog‘liqdir. Dastlabki bandda uzun pauza (bosh ritmik pauza) **qushlar, erkin, qalbimga, she‘ringiz** so‘zlaridan so‘ng keladi. Keyingi bandda **men, gul, xasta, qutulolmadim** so‘zlaridan keyindir. Agar she‘rdagi misralarni birlashtiradigan bo‘lsak, mazmun va ohangda katta o‘zgarish ro‘y berganligini ko‘rmaymiz. Ammo ritmik pauzalardagi, tuyg‘ulardagi izchillikka putur yetadi.

Qushlar uchdingiz, erkni quchdingiz.

Qalbimga oqdi totli she‘ringiz.

Men ucholmadim, gul qucholmadim.

Xasta holatdan qutulolmadim, -

tarzdagi birlashtirish natijasida asosiy turoq 5+5, ichki turoq 2+3, 1+4, 5 shaklida ekanligi ayon bo‘ladi. So‘nggi bandning birinchi va uchinchi satrlari 2+3 bo‘g‘inlanishli turoqlangan bo‘lsa, ikkinchi va uchinchi satrlar 3+2 shaklidagi turoqlanishga ega.

O‘tdi, ketdi yoz.

Qo‘limda bir soz.

Dardim anglatay,

To‘xtangiz, bir oz! –

satrlarida lirik “men” qushlarga murojaat qilarkan, ularning jonli tasvirini yaratadi. Shu tariqa o‘zining nozik tuyg‘u-kechinmalarini ifodalashga erishadi. Bandlardagi yengil vazn obrazlarga xos muhim jihatlarning yoritilishiga hamda o‘ziga xos falsafiy fikrlar guldastasining yaratilishiga asos bo‘ladi.

Har bir bandning uchinchi va to‘rtinchi satrlaridagi ko‘chuv vazn orqali yuzaga kelgan ohangdorlikning o‘ziga xos tulqinini ta‘min etgan. Iztirobli og‘ir kechinmalarning yengil vazndagi o‘ziga xos talqini erksiz, vayrona holatdagi yurti ozod ko‘rish haqidagi shoir orzulari bilan uyg‘unlashib ketadi. Lirik “men” esa mustamlaka yurtida erksiz. Shu bois u qushlar kabi ucha olmaydi. Yurtning ozod, erkin kunlari - yozi ortda qolgan. She‘rdagi erkin qushlar bilan hassos “men” tasviridagi qarshilantirish she‘r dramatzimini yanada kuchaytiradi. Ozodlikni ulug‘lovchi g‘oyaviy pafosning yuqori ohanglardagi talqinini ta‘min etadi.

Yu.N.Tinyanov “Shakl+mazmun=stakan+vino” [19; 37] degan ekan. Garchand, stakan vinoning sifatiga ta‘sir eta olmasa-da, uning narsa sifatida mavjudligidagi va foydalanish imkoniyatining yuzaga chiqarishdagi o‘rni kattadir. Demak, shakl mazmunning buy-bastini ko‘rsatuvchi vosita. Oybek she‘rlarida vazn mazmun va g‘oya, obraz va ifodaviylik talablaridan kelib chiqadi. Shuningdek, vazn turli xil badiiy tasvir vositalari, so‘z va tovush takrorlari izchilligidan, ba‘zi hollarda esa ana shu izchillikning “buzilishi”dan yuzaga keladi. “She‘r - bu harakat: obraz va vaznlar, g‘oya va ohang takroriga qaytishlikdir”.

Ko‘z yoshim II tinmas bu chog‘, I

Ona, menga II bir oz boq! I

Hasratingda II ezildim, I

Yuzlarim II kuzgi yaproq. I (1,30)

Sevinchlari yo‘qolib, ko‘nglini qayg‘u olgan, yoshlik chog‘i hijronga cho‘lg‘angan lirik qahramon kechinmalari tasvirida dastlabki bandning birinchi va to‘rtinchi satrlari 3+4, ikkinchi va uchinchi misralari 4+3 turoqlanishli yetti bo‘g‘inli vazn muhim o‘rin tutgan. So‘nggi bandda qofiyadosh so‘zlar tarkibidagi “oh” undovi baralla yangrab, iztirobli tuyg‘ular shalolasi yanada kuchayadi. Ushbu bandning, birinchi, ikkinchi va to‘rtinchi satrlarida 3+4, uchinchi satrda esa 4+3 tarzidagi turoqlanish saqlanib qoladi. “Labimda // bir o‘tli oh, / Xayolim // ufqi siyoh./ Mozoringga // yiqildim, / Istadim // totli nigoh” tarzida ona mozorida yig‘layotgan shoir

tasvirida i tovushiga xos takrorning ham ma'lum ma'noda o'rni bor. Ushbu tovush talaffuzidagi cho'ziqlik iztiroblardagi so'ngsizlikning ham ifodalanishiga xizmat qilgan. Shuningdek, dastlabki bandedagi **yoshim, menga, hasratingda, yuzlarim**, keyingi bandedagi **labimda, xayolim, mozoringga, istadim** so'zlaridan so'nggi bosh ritmik pauza she'r ohangidagi izchillikni, ushbu so'zlarning kontekstdagi o'ziga xos urg'usini yuzaga chiqarish bilan birga nozik tuyg'u va kechinmalarining xalq og'zaki ijodi an'analarga xos yengil vazndagi ifodasini namoyon etadi.

“She’rda ritm deyarli doimiy bo’ladi. U asarning yagona va bir butun harakatini ta’minlaydi; prozada esa ritm beqarordir. U ma’noning o’zgaruvchan harakatiga bo’ysungan bo’ladi” [20; 91], deya yozadi rus adabiyotshunosi V.V.Kojinov. Darhaqiqat, she’rda ritm obraz tasviri va qiyofasini gavdalantirishga, prozada esa ritm qahramon faoliyati orqali yuzaga chiqqan voqelikni aks etirishga xizmat qiladi, uning rivoji bilan o’zgarib boradi. Tuyg’u va kechinmalarining she’rda misradan misraga uyg’unlashib va yaxlitlashib borishi natijasida vazn va ohang mushtarakligi paydo bo’ladi. Quyidagi kompozitsion xalqaga asoslangan bandlardagi izchil ritm va yengil vazn lirik “men” nozik kechinmalarining o’ziga xos ohang bilan uyg’unlashgan ifodasini namoyon etgan:

Ko’rdim II cho’pon qizini I
Baland II yashil tog’larda, I
Shafaq II kulgan chog’larda. I
Totdim II sevgi sirini, I
Ko’rdim II cho’pon qizini. I (1,179)

Har satri uch so’zdan iborat ushbu bandlarda nozik kechinmalar yetti bo’g’inli (2+5 tarzidagi turoqlanishli) vazn orqali tasvirini topgan. “*Ko’rdim cho’pon qizini*” satri takroridan yuzaga kelgan kompozitsion xalqa Oybek poetik mahorati va uslubiga xos muhim jihatni - tuyg’u va kechinmalarining izchil ohangdorlik bilan uyg’unlikdagi namunasini namoyon etadi.

Ikkinchi bandeda “*Dilbar oqshom yulduzi*” satrlari asosidagi xalqa yor sajiyasiga xos jihatlarning batafsil yoritilishiga yordam beradi. Natijada yor qiyofasiga xos yorqin tasvir qabartma shaklda yuz ko’rsatadi. Yetti bo’g’inli vazn keyingi bandeda ham saqlangani holda, u 4+3 shaklidagi turoqlanishning o’ziga xos ritmik jilolari bilan almashadi:

Ko’zlarida II porlaydi I
Dilbar oqshom II yulduzi, I
Qalbni silar II gul yuzi. I
Salom bersam II olmaydi, I
Uzoqlarga II qaraydi I
Dilbar oqshom II yulduzi...

“Ko’rdim cho’pon qizini” shaklidagi anafirik kompozitsiya lirik qahramondagi ilk sevgi kechinmalarini aks ettiradi. Bu sevgining sababchisi tasvirini izchillashtirish barobarida “*Dilbar oqshom yulduzi*” satrlari takrori asosidagi kompozitsion zanjir go’zal chizgilardagi cho’pon qizi qiyofasini namoyon etadi. Endi u she’rning dastlabki bandeda tasvirlangan cho’pon qizidan farqlanib, shoir qalb osmonida qo’l yetmas dilbar oqshom yulduziga aylangan obraz shaklida ko’rinadi. Ana shu tarzidagi kompozitsion anaforalar vositasidagi bandlanish she’rni go’yo ikki mustaqil bo’lakka bo’lib tashlaydi. Har bir band o’ziga xos tasviriylikka ega bo’ladi. Bu esa vazndagi, ohangdorlikdagi va obrazlar talqinidagi mukammallikni ta’minlaydi. Shuningdek, misralarni ikki bo’lakka bo’lib, o’ziga xos ritm izchilligini ta’min etgan *sezura* (// belgisi bilan ifodalgan - S.A.) yuqoridagi bandlarda o’zidan oldingi so’zlar urg’usini oshirish bilan birga ma’no va ohang ta’sirchanligini orttiradi. Zero, “Ayrim tadqiqotchilar

turoq(stopa)lar oʻrtasidagi barcha pauzalarni ham sezura deb ataydilar. Ular turoqlar oʻrtasidagi pauzalarni kichik sezura, turoqlarni ikki guruhga ajratuvchi asosiy pauzani esa bosh sezura deb ataydilar. Biroq turoq(stopa)larni ikki guruhga ajratuvchi asosiy pauzani sezura deb atash tugʻriroqdir”. Ushbu sheʼrda sezura tufayli yuzaga kelgan izchil musiqiy toʻlqin vaznning ohang tovlanmalarini yanada yorqin yuz koʻrsatishiga yordam bergan. Izosillabizm - teng hijolilikning oʻziga xos namunasi boʻlgan yuqoridagi sheʼrlarda turoqlanish, ritmik pauzalar hamda evfonik vositalar ohangdorligi vazn opqali yuz koʻrsatadigan taʼsirchanlikka xizmat qiladi. Oybek sheʼrlaridagi izosillabizm vaznning ohang izchilligini va taʼsirchanligini taʼmin etadi.

“Ritm - matn elementlarining maʼlum masofada izchil takrorlanishi” ekan, Oybek ham takror asosida vazn salmogʻini oshirishga, ohang izchilligini yuzaga chiqarishga erishadi. Goh tovush va soʻzlar, goh ibora va misralar takroridan foydalanib, yuksak ifodaviylik va maʼnodorlikni namoyon etadi. Shoir fikricha, soʻz ulkan salmoqqa ega boʻlmogʻi, har bir misraning tovush, ritm va vazn jilolariga mos kelmogʻi shartdir. “Lirikada soʻz ritmli, ohangdosh qatorlarni tashkil etadi. Soʻz yolgiz mazmunni ifoda qilish vositasi emas, maʼlum tovush, ohang kompleksi kabi badiiy element boʻlib xizmat etadi”. Ayniqsa, “Kech kuzda” sheʼridagi ritmik jilolarning oʻziga xos falsafiy fikrlar ifodasida oʻn toʻrt boʻgʻinli vazn ohangdorligi muhim oʻrin tutadi. Muttasil harakatdagi olam, umrning oʻtkinchiligi, abadiylik haqidagi nekbin tuygʻular ifodasida parallelizm orqali yuzaga kelgan musiqiylikning ahamiyati kattadir. Asosiy turoqlar 7+7 tarzida boʻlgan birinchi satr 4+3+5+2 shaklda, ikkinchi va toʻrtinchi satrlar 4+3+4+3 tarzda, uchinchi satr 4+3+3+4 shaklda ichki turoqlanib, chuqur falsafiy mushohadalar bayoniga xizmat qilgan:

Havo bulut...1 Shamollar II yana yigʻlaydi I sekin, I

Boʻsh dalalar I koʻksida II alam mudrab I yotadi. I

Eshagiga I yuk ortib, II bir bola I oldin ketin I

Ufq-lar-la I oʻpishgan II yoʻlda ketib I boradi. (1,176)

Oybek mahorati shundaki, ramziy ishora va obrazlar orqali olamning muttasil aylanma harakati hamda borliqning bir shakldan ikkinchi shaklga oʻtib turishi muqarrarligini, avlodlar almashinuvi tabiiy hol ekanligini hayotiy tafsillar vositasidagi sheʼriy kartinada ifodalashga erishadi. Shoirning oʻtkinchilik va abadiylik, hayot va borliq, inson va olam haqidagi falsafiy oʻy-kechinmalari ifodasida kuz manzaralari tasviridan foydalanishi bejiz emas. Chunki u umrlar shomini eslatadi. Kuzda olamning abadiy harakati, jumladan, inson ham tabiatning zarrasi ekanligi yaqqolroq koʻzga tashlanadi. U yigʻlayotgan shamollarda oʻt-oʻlanlari qovjirab, hosili yigʻib olingan boʻsh dalalarning alamli holatini chuqur his etadi. Abadiylik timsoli – “ufqlar-la oʻpishgan yoʻl”, toʻxtovsiz almashinuvdagi avlodlar – “eshagiga yuk ortib borayotgan bola” tasvirlari bir qarashda juda oddiy tuyulgan, ammo chuqur falsafiy fikr va tuygʻular singgan satrlarning yaratilishiga asos boʻladi. Ushbu oʻrinda Xondamirning “Vaznli va qofiyali soʻz toza va porloq bir gavhardir”, degan soʻzlarini Oybekning yuqoridagi satrlariga ham bimalol qoʻllash mumkin. Undagi vazn izchilligi nafaqat soʻzlarni oʻziga xos tovlantirgan, balki borliqning abadiy muttasil harakati tasviriga ham yordam bergan.

Vazn xilma-xilligi va mukammalligini taʼminlash borasida tinimsiz ijodiy izlanishlar olib borgan shoir ilk toʻplami “Tuygʻular»dayoq katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Ushbu toʻplamdan joy olgan qirq uch sheʼridan eng koʻpi sakkiz (14 sheʼr), yetti (11 sheʼr), besh (8 sheʼr) boʻgʻinli vaznlarda, besh sheʼr 11 boʻgʻinli vaznda, qolgan besh sheʼr (bittadan) olti, toʻqqiz, oʻn. oʻn ikki boʻgʻinli va erkin vaznda yozilgandir. Tabiiyki, turli vaznlardan foydalanish borasidagi ushbu miqdor shoir mahoratini belgilovchi oʻlchov emas. Balki ularning ijodkor uslubiga xos jihatlardagi oʻrni va ahamiyati muhimdir. Ushbu xilma-xillikni oʻrganish esa Oybekning sheʼr tuzilishini takomillashtirish, vaznning mazmun, gʻoyaviy pafos va obrazli ifoda bilan mushtarakligini taʼminlash borasidagi tinimsiz ijodiy izlanishlari haqida maʼlum tasavvur hosil qilishimizga yordam beradi. “Sheʼr ritmi, odatda vazn, boʻgʻin, turoq, pauza,

band, qofiya, intonatsiya, badiiy figuralar, badiiy fonetika bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi... barmoq vaznidagi she‘rlarda ritm misralardagi bo‘g‘inlarning miqdor jihatidan bir tekisda, turoqlarning bir tartibda, bandlarning bir xilda takrorlanishidan, qofiya, radif, refren, naqoratlar sistemasidan kelib chiqadi”. Oybek she‘riyatining vazn tovlanishlari ham ana shu jihatlardagi o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rinadi. Furqatning “Sayding qo‘yaber, sayyod” musaddasiga o‘xshatma tarzida yozilgan “Oltin qo‘ng‘izga” (1924) she‘ri 4+4+3 tarzidagi turoqlanishning o‘n bir bo‘g‘inli vaznida. Asosan, fe‘l va ot qofiyalaridan tuzilgandir. She‘rdagi “*oltin qanotlar*”, “*olti yuz*”, “*oltin qo‘ng‘iz*” birikmalari vositasida yuzaga kelgan kompozitsion bog‘lama erkinlik haqidagi g‘oyaviy pafos ta’sirchanligini, bandlararo ohang va vazn uyg‘unligini yuzaga chiqaradi. Dastlabki “Quying, oltin qanotlarin bog‘lamang, Erka ko‘ngil chechaklardek yashnasin. Tutqunlikda uning qalbin dog‘lamang, Bo‘stonlarda bir oz kulib yayrasin!”(1,17) tarzidagi lirik da‘vat bilan boshlangan satrlar keyingi bandda “oltin qo‘ng‘iz”ga qaratilgan lirik murojaat bilan almashadi. Ko‘klam go‘zalligi va sevgining totli damlaridan bahramand bo‘lishga undash g‘oyasi bilan uyg‘unlashib ketadi. Ko‘klam tasviri esa qiyoslashlar va jonlantirishlar, istioraviy so‘z va birikmalar vositasidagi o‘n bir bo‘g‘inli vazn ohangdorligida namoyon bo‘ladi. Ushbu ohangdorlik keyingi misralardagi “**uch-kuch**” qofiyalaridagi **ch** tovushi musiqiyliги bilan qo‘shilib ketadi. Alohida tovlanmalarning, intonatsion ko‘tarinkilikning, erkinlik haqidagi nekbin tuyg‘ularning ifodalanishiga olib keladi: “Oltin qo‘ng‘iz, ipni uzdim, ko‘kka uch! Sevganingning yuzlaridan o‘pib, quch!”. Uchinchi va to‘rtinchi bandlardagi “**qayrilmish - ayrilmish**”, “**kuylaysen - so‘ylaysen**”, “**uzay – tuzay**”, “**yayra – sayra**” tarzidagi fe‘l qofiyalar tarkibidagi **a, y** tovushlari takroridan tug‘ilgan alliteratsion ohangdorlik nozik kechinmalar ifodasiga yordam bergan.

Ma’lumki, “She‘rning ohang tuzilishida tovush takrorlari muhim bo‘lib, musiqiy tizimning asosi hisoblanadi. U orqali she‘r badiiy ifodaviy ahamiyat kasb etadi”. Satrlari 4+4+3 tarzidagi turoqlanishga asoslangan she‘rning vazn barqarorligi keyingi misralarda ham saqlangan. Erkinlikni ulug‘lovchi, ozodlikka chorlovchi nekbin da‘vat yuz ko‘rsatadi: “Oyog‘ingga ip taqilmish, kel, uzay! Sen-da bir oz yaproqlarda kul, yayra. Erkinlikning yo‘llarini, kel, tuzay, Ruhim uchun sen nag‘ma chal, bir sayra!”, Tabiatning har bir narsa-hodisalari va jonivorlaridan ruhiy yuksalish ola bilgan shoir yurtimizning betakror manzaralaridan beqiyos go‘zallik topa biladi. Uning o‘n bir bo‘g‘inli sodda vazn(4+4+3 tarzidagi turoqlanish)ga asoslangan “Quyosh yo‘li” she‘ridagi qiyoslashlar va leksik - morfologik parallelizm asosidagi satrlarda hayrat tuyg‘usi balqib turadi. Yurtimiz betakror manzaralarining keng, izchil ifodasida vaznning o‘rni katta bo‘lganligini ko‘ramiz. “O‘zbekiston - paxta yurti, bog‘lar diyori, O‘zbekiston - sevinch, gullar o‘sgan chamanzor. O‘zbekistan - go‘zal bir yurt, yangi mazmuni Yangi zafar tog‘larini oshar purviqor” (2,77) satrlaridagi **a,b,v,b** tarzidagi qofiyalanishdan yuzaga kelgan musiqiylik, birinchi turoq tarkibidagi **o‘** tovushiga xos ohangdorlikning boshqa turoqlarda ham (faqat birinchi satrdagi ikkinchi va uchinchi turoq bundan mustasno) izchil takrorlanishi o‘ziga xos ritm va vazn izchilligidagi musiqiylik bilan mushtaraklik kasb etadi. Yuqoridagi bandning birinchi, ikkinchi, to‘rtinchi satrlari leksik-morfologik, uchinchi satri intonatsion parallelizm asosida tuzilgan. Dastlabki satrlarda bosh turoq birinchi turoqlar bo‘lib, ulardan so‘ng bosh ritmik pauzalar mavjud. Ular tufayli misralar ikki nisbiy mustaqil bo‘laklarga ajraladi. Dastlabki uch satrning ikkinchi va uchinchi turoqlari hamda to‘rtinchi satrning birinchi va uchinchi turoqlari esa kichik turoqlardir.

Oybekning tasvir predmeti bilan mazmunning uyg‘unligini ta’minlashda vazndan foydalanish mahorati “Quyosh va suv qo‘ynida” (1928) she‘rining qo‘shma vazn asosidagi satrlarida ko‘rinadi. She‘rning birinchi bandi o‘n misradan, ikkinchi bandi yetti misradan, uchinchi bandi sakkiz misradan tashkil topgan. Anhorning o‘ynoqi holati qo‘shma vaznning ohang jilolari orqali namoyon bo‘ladi. Unda shoirning xilma-xil turoqlanish va qofiyalanishdan foydalana bilish mahorati ham ko‘zga tashlanadi:

3	2	=	5
Feruza I anhor -11			
3	2	=	5
O'ynoqi I bir qiz, 11			
2	3	=	5
Ko'ngil I ochilar I			
5			
Quchoqlarinda, 11			
5	5	=	10
Gullardan uqa I qirg'oqlarinda. 11			
2	3	=	5
Suvlar 11 qitiqlar, I			
3	2	=	5
Cholg'usin I chalar. I			
2	3	=	5
Birga I kuylaymiz, I			
2	3	=	5
Birga I o'ynaymiz... I			
5	5	=	10
Kumush suvlarning II yotoqlarinda. II (1.140)			

She'ning birinchi va ikkinchi satrlaridagi turoqlanishda bir xillik saqlangani holda uchinchi misrada turoq o'rinlari almashadi. To'rtinchi satrda esa turoqlanish bir so'zda, ya'ni besh bo'g'inli ichki turoqda ifodalanadi. Beshinchi satrda o'n bo'g'inli (har bir turog'i besh bo'g'indan iborat) turoqlarga birlashadi. Oltinchi, sakkizinchi, to'qqizinchi satrlar 2+3 tarzda turoqlangan. Yettinchi satrda 3+2 bo'g'inli turoqlanish, o'ninchi satr esa 5+5 tarzda bo'g'inlar turkumidan tuzilgandir. O'ninchi satr bilan beshinchi misra o'zaro ohang uyg'unligiga kirishib, turoqlanishdagi so'zlarning son jihatidan o'zaro mutanosibligi intonatsion va ohang izchilligini ta'minlagan. She'rda beorom anhor holatining **o'ynoqi qizga qiyoslanishi** o'ziga xos tasviriy ifodani yuzaga keltirgan. "Yotoqlarinda" *istorasi* suvlar og'ushining orombaxshligini, "**suvlar qitiqlar**", "**cholg'usin chalar**" *jonlantirishlari* o'ynoqi to'liqlar va ular ovozdagi yoqimlilikni ifodalaydi. Shuningdek, **feruza**, **kumush** *sifatlashlari* anhor suvlaridagi rangin tovlanishlarning rassomona chizgisini ta'min etadi.

"**Qirg'oqlarinda-yotoqlarinda**" qofiyalaridagi "**lar**" qo'shimchasi erkalovchilik xususiyatlarini, "**kuylaymiz-o'ynaymiz**" qofiyalaridagi "**miz**" qo'shimchasi ohangdorlikni ham namoyon etib, nozik tuyg'ularning satrlarga singishiga yordam beradi. Tabiat va jamiyat, borliq va inson hayoti izchil takroriy harakatlardan, muayyan qonuniyatga bo'ysunuvchi ritmlardan tashkil topgan. Bizning mavjudligimiz, hayotimiz, kundalik turmushimiz ana shu ritmlar asosidadir. Hatto "Arablar o'z she'rlarining vaznini boshlab tuya yurishining "ritmi"dan olgani haqida ba'zi afsonalarni rivoyat qiladilar. Tuya yurishini tezlatish uchun arab tuyachilarining maxsus ashulalari bor. Bu ashulalardagi ritmni tuya yurishiga yaxshi ta'sir qilg'onini ko'rgan sayyohlar xabar beradilar". Binobarin, «She'rdagi har bir bo'g'in, har bir so'z va har bir gap ritm qonuniyatlariga bo'ysungani holdagina yashay oladi". She'r davomida kesma va ortirma satrlarning turoqlarga bo'linish jarayoni mazmun talabi bilan yanada maydalashadi. Natijada, o'ziga xos vazn yuz ko'rsatadi.

Birinchi bandning dastlabki misrasidagi "*anhor*", "*bir qiz*", "*ko'ngil*", "*gullardan uqa*", "*suvlar*", "*cholg'usi*", "*kumush suvlarning*" so'zlari vositasidagi turkumlanish **bosh turoqlarni**, "*quchoqlarinda*" so'zi vositasidagi turkumlanish **ichki turoqni**, "*qirg'oqlarinda*", "*yotoqlarinda*" so'zlari vositasidagi turkumlanish **oxirgi turoqni**, "*feruza*", "*o'ynoqi*", "*ochilar*", "*qitiqlar*", "*chalar*", "*birga*", "*kuylaymiz*" so'zlari asosidagi turkumlanish **ichki turoqni** tashkil etadi. Oybek she'rlarining asosini, aksariyat, voqeabandlik tashkil etadi.

Akademik N.Karimov “Uning qariyb barcha she’rlaridagi tabiat va inson tasviri nozik kuzatishlarga boy. Hayotiy detallar tizmasi uning she’rlariga voqeabandlikni olib kiradi. Voqeabandlik esa Oybek she’rlarini harakatga keltiruvchi kuchga aylanadi”³ deya to’g’ri ta’kidlaydi. Voqeabandlik asosidagi yuqoridagi she’rda ham obrazlar tasviriga xos mukammal ifodaviylikda vazn, ritm jilolarining ahamiyati kattadir. Dastlabki satr so’ngidagi *katta ritmik pauza zangori* sifatlanishiga bo’lgan urg’uni kuchaytirib, osmonning go’zal chizgisida malum o’rin tutsa, keyingi satrdagi *katta ritmik pauza* porloq nurlar og’ushidagi **quyosh** obrazining o’ziga xos qabartma talqinini ta’minlagan. Uchinchi, to’rtinchi va beshinchi satrlardagi katta ritmik pauzalar quyosh nurlarining suvlarga singish jarayonidagi izchil tasvirga yordam berayotir. Oltinchi satrdagi katta ritmik pauza quvnoq anhordagi shiddatkorlikning urg’u yordamidagi kuchaytirilgan tasvirini yuzaga chiqargan. Tasvirdagi “o’ynoqi qiz”dek “feruza anhor”ning rangin jilvalari ritmik pauzalar orqali yuzaga kelgan ohangdorlikda namoyon bo’ladi.

Shuningdek, “...she’riy so’zlar ma’lum vaznga tushirilib, she’riy bo’laklarga bo’linsagina aytilgan so’zlar she’r bo’la oladi”. Abu Nasr Forobiyning ushbu fikrlarida musiqiylikni ta’minlash, ritmik izchillikni yuzaga keltirish, cheklangai so’zlar vositasida ta’sirchanlikka erishish poeziya uchun xos jihatligi ta’kidlanadi. Qo’shma vazn asosidagi satrlarni “Qish kechasi”, “Abadiy yo’lchilar”, “Sevgi qurboniga”, “Balkonimda”, “Tovshim”, “Samarkand oqshomi”, “Bulutlar kuldi porloq...”, “Afrosiyob yo’lida”, “Qish kuylari”, “Chechaklar siri”, “Yalta kechasi”, “Sochlarningning, ey yosh qiz...”, “Qora dengizga”, “Og’ochlarning orasidan...” kabi she’rlarda ham uchratish mumkin.

XULOSA

Oybekning vazn orqali shakl va mazmun, ma’no va ohang, ifoda va kompozitsion birlikni yuzaga chiqarish borasidagi poetik mahorati hamda uslubiy izlanishlari:

- birinchidan, she’riyatdagi mavjud barcha vaznlarda poetik fikr va tuyg’ular ta’sirchanligidan, obrazli ifoda jozibadorligidan, ohangning xilma-xil ifoda tovlanmalaridan foydalana bilganligida;
- ikkinchidan, vaznning musiqiy jilolari obraz va mazmunni, evfonik kontekst va g’oyaviy pafosni yoritishga xizmat ettirilganligida;
- uchinchidan, obrazli ifodaning ritm bilan, tuyg’u-kechinmalar tasvirining ohangdorlik bilan uyg’unligi vazn orqali yuzaga kelganligida;
- to’rtinchidan, qofiya va bandlanishning, ritm va alliteratsion vositalarning poetik kontekstdagi muhim o’rnini vazn ta’minlaganligida;
- beshinchidan, she’riy ifodaning shoir uslubiga xos namunalarini yaratishda vazn ohangdorligi ulkan ahamiyat kasb etganligida ko’rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oybek. Mukammal asarlar to’plami. –T. 14. –B. 110.
2. Vohidov E. Iztirob. –T.: O’zbekiston, 1992. –B. 227.
3. Medvedov V.P. Izuchenie liriki v shkole. –M.: Prosvetnenie, 1985. –S. 58.
4. Shervinskiy S.V. Ritm i mysl. –M.: Nauka. 1961. –S. 36.
5. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. –T.: O’qituvchi. 1980. –B. 406.
6. Ognev V. Kniga pro stixi. –M.: Sov.pisatel. 1963. –S. 188.
7. Osim M. Oybek va uning she’rlari // O’zbekiston adabiyoti va san’ati. -1989. - 11 avgust.
8. Mirvaliev S. Hayot va kurash poeziyasi. – T.: O’zdavnashr, 1962. – 173 b.
9. Yoqubov H. Oybek lirikasida g’oyaviylik va mahorat. – T.: O’zfanakadnashr, 1963. – 188 b.
10. Yoqubov H. Adibning mahorati. - T.,1966. – 310 b.
11. Qo’shjonov M. Oybek mahorati. –T.: Badiiy adabiyot, 1965. – 355 b.
12. Qayumov L. Olmos iste’dod. –T.: O’zbekiston, 1965. – 36 b.

13. Sobirov O. Oybek ijodida folklor.– T.: Gʻ.Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1975.– 104 b.
14. Nazarov B. Bu sehrli dunyo. –T.: Gʻ.Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1980. – 173 b.
15. Karimov N. Ilhom chashmasining ajib mavjlari. – T.: Fan, 1982. – 56 b.
16. Gʻafurov I. Yurak – alanga. – T.: Gʻ.Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1985. – 294 b.
17. Hamdamov U. “30-yillar oʻzbek sheʼriyatida “sof lirika” muammosi” (Oybek sheʼriyati asosida).: Filol.fanlari nomzodi ... dis. – T., 1997. – 142 b.
18. Sabirdinov A. Oybek sheʼriyatida soʻz va obraz.: Filol.fanlari nomzodi ... dis. – T., 1993. – 138 b.
19. Tinyanov Yu. Problema stixotvornogo yazyka. -L., 1924. -S. 8 // Lotman Yu.M. Analiz poeticheskogo teksta. L., 1972. -S. 37.
20. Kojinov V.V. Kak pishut stixi. O zakonax poeticheskogo tvorchestva. -M.: Prosveshchenie, 1970. - S. 90-91.

10.00.00 - Filologiya

SHE'RIYATDA FALSAFIY MUSHOHADAKORLIK

Soatova Nodira Isomitdinovna

JDFU, professor, filologiya fanlari doktori

nodira.soatova@list.ru

ORCID: 0000-0002-4310-6011

Annotatsiya: Ushbu maqola ko'pqirrali ijodkor Shuhrat lirikasi adabiy jozibasini shakllanishining muayyan qirralari: she'riyatdagi samimiyat, mushohadakorlik, hissiy jo'shqinlik, lirik qahramonning ko'ngil tuyg'ulari, qalb iztiroblarini badiiy inkishof etish, inson va umr mazmuni bilan bog'liq masalalarni falsafiy teranliklik bilan ifodalash kabi jihatlarini yoritishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: samimiyat, mushohadakorlik, hissiy jo'shqinlik, ko'ngil tuyg'usi, qalb iztirobi, falsafiy teranliklik.

ФИЛОСОФСКОЕ НАБЛЮДЕНИЕ В ПОЭЗИИ

Аннотация: В данной статье рассматриваются отдельные аспекты формирования литературного обаяния лирика Шухрата: искренность, наблюдательность, эмоциональная восторженность в поэзии, чувства лирического героя, художественное развитие душевных страданий, вопросы, связанные со смыслом человека и жизни. посвящен прояснению таких аспектов, как выражение философской глубины.

Ключевые слова: искренность, наблюдательность, эмоциональное возбуждение, сердечное чувство, душевная боль, философская глубина.

PHILOSOPHICAL OBSERVATION IN POETRY

Abstract. This article focuses on certain aspects of the formation of the literary charm of the lyricist Shuhrat: sincerity, observation, emotional enthusiasm in poetry, the feelings of the lyrical hero, the artistic development of heartaches, issues related to the meaning of man and life. is dedicated to clarifying such aspects as expressing with philosophical depth.

Key words: sincerity, observation, emotional excitement, heart feeling, heartache, philosophical depth

KIRISH. XX asrning to'fonli, ziddiyatli muhitida qalam tebratgan, Vatan urushida qo'liga qurol olib, qonli janglarga kirgan, shaxsga sig'inish davrida millatimizning faxri bo'lgan jadid ijodkorlar asarlarini o'rganishga chaqirganligi uchun jazolanib, "xalq dushmani" tamg'asi ostida besh yil umrini qamoqlarda o'tkazgan, shunda ham o'zidagi "...ijod mas'uliyatini unutmaydigan halol... kattakon adabiyotimizning zargar ijodkori"[1; 99-101] Shuhrat she'riyati bo'yicha o'zbek adabiyotshunosligida bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Maqsud Shayxzoda shoirning she'riy ijodini birinchilardan bo'lib o'rganib, yirik hajmli maqola yozgan bo'lsa, O.Sharafiddinov, J.Hojimatov, Jamol Kamol singari olimlarning maqolalari va "Adib ijodiga bir nazar", "Shuhrat zamondoshlari xotirasida", "Ozod qalb kuychisi"da ijodkor asarlarining ba'zi qirralari yuzasidan muayyan fikrlar bayon qilingan. Adabiyotshunos olim U.Normatov Shuhrat to'g'risida ilk adabiy portret yaratib, ijodkorning doston va she'rlaridagi urush va inson, vatan va xalq mavzularini o'rgangan va ular yuzasidan o'z xulosalarini bildirgan.

Adabiyotshunos olimi Sh.Aldashevaning dissertatsiyasida Shuhrat adabiy merosidagi to'rtliklar tahlilga tortilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Shuhrat lirikasi adabiy jozibasini shakllanishining muayyan qirralari: *birinchidan*, shoir she'riyatdagi samimiyat, mushohadakorlik, hissiy jo'shqinlik; *ikkinchidan*, lirik qahramonning ko'ngil tuyg'ulari, qalb iztiroblarini badiiy inkishof etish; *uchinchidan*, inson va umr mazmuni bilan bog'liq masalalarni falsafiy teranliklik bilan ifodalash; *to'rtinchidan*, she'riy san'atlardan mohirona foydalanishida ko'rinadi. Shoir she'rlarini tadqiq qilish jarayonida bu qirralar naqadar to'g'ri ekanligini kuzatdik. Masalan: "Haq so'z" she'rida ham shoir chuqur ko'tarinkilik, samimiyat bilan:

*Sen o'zing yonmasang hayotda, shoir,
O'zgalar qalbini yondira olmaysan.
Sen o'zing qonmasang hayotdan, shoir,
O'zgalar qalbini qondira olmaysan [2;50],*

deya, baralla bong uradi. Chunonchi, she'r inson qalbining zarbidan, hayot zarbidan iborat ekan, shoir bu zarbni tinglamasdan va izhor etmasdan tura olmaydi va unga munosib javob berishga harakat qiladi. Shunday insondagi, lirik qahramondagi ruhiy holatni, shoir quyidagicha tasvirlaydi:

*Sen hayot bag'riga javlon urib kir,
Baxt topsang quvonib, xandon solib kul.
Haqiqat bo'ynida gar ko'rsang zanjir,
Yuraging o'rtanib, sochlaringni yul!
Lekin sen hayotga qarama loqayd,
Xaspo'shlab yashirma nursiz ustini.
Dadil tur, oshkora o'z so'zingni ayt,
Haq so'zdir dunyoning sinchi, ustuni! [2;50].*

Shuhrat she'riyatidagi insonni qurshagan sirli olam va shu borliqdagi inson taqdiri haqidagi o'ylar, mushohadalar ko'pni ko'rgan kishilarga xos falsafiy xulosalar, umumlashmalar, hikmatlar ummoniga borib quyuladi. Shuhrat ana shu ijodiy jarayonda o'zligini saqlab qoladi, shu xulosa va umumlashmalarga o'z hayotiy tajribasini, o'zi bosib o'tgan va bosib o'tayotgan hayot yo'lini tahlil qilish orqali keladi. Ko'pincha shunday falsafiy fikr bilan sug'orilgan fikr va mushohadalar shoir lirik qahramonining qaynoq hayotdan olisda yashagan chog'larida, oila va do'stlarning issiq bag'ridan mosuvo bo'lgan kezlarda xayolga keladi. Shunday ruhiy holat falsafiy fikrlar ustivorlik qilgan she'rlarning tug'ilishida doya vazifasini bajaradi. Shoir shunday ruhiy kechinmalar og'ushida yashagan soatlarida ham o'zidagi go'zallikka, ezgulikka, munavvar ertaga bo'lgan ishonchini yo'qotmaydi. Shuning uchun ham uning lirik qahramoni doim hayotbaxsh g'oyalar bo'stonida nafas olib yashaydi.

*Onasini unutmanning,
Ona tili bo'lmaydi.
Ona tilin unutmanning,
Ona eli bo'lmaydi.
Ona tiling unutmangmi?
Eling unut, ona unut,
Xo'sh, hayotdan ne umid!
Na odamsan, na farzand,
Odam nusxa vujudsan.
Yer yuzida daydib yurgan,
Bir jonzotday mavjudsan [2;190].*

Shuhratning ushbu she'rini o'qir ekanmiz, she'rda insoniylikni ulug'lovchi o'quvchi uchun muhim faylasufona fikr – ona, ona til, ona yurtga muhabbat va uni e'zozlash kabi xalqimizning ruhi, tabiati, odatiga mos fazilatlar ifodasi mavjud. Shoir lirik qahramoni

ma'naviy dunyosida uning o'ziga xos xarakter jihatlarini ko'rsatib bera oladi. Ijodkor she'rda har bir so'zga mas'uliyat bilan yondoshgan. U o'zi aytmogchi bo'lgan g'oyaga befarq emas, aksincha, qalbidagi uni ezuvchi iztirobni kengroq ochish, xalqning bir munosib farzandi sifatida ona, ona tili va ona eliga doim sadoqat saqlashni maqsad qilishga lirik qahramonni undaydi. Yo'qsa, u bir manqurt mavjudotga aylanib qolishi mumkinligini uqtiradi. Demak, shoir lirik qahramoni ma'naviy dunyosida uning o'ziga xos xarakter jihatlarini ko'rsatib bera oladi. "Bu xarakterda esa biz ham o'zimizga xos xislatlarning ko'pginasini ko'ramiz". Shoirning "*She'r nima, deysanmi?*" she'riga e'tiborni qaratamiz:

*She'r nima? Shu ona tuproqning rangi,
Shu ona qirlarning ko'rki, chiroyi.
Ko'klarga o'ralgan baxting ohangi,
Suvlarga liq to'la bulutlarning soyi [2;196].*

She'r haqida fikr yuritar ekan shoir, uni go'yoki uchqur xayol kabi, bir nafasda insoniyat vujudga kelgan uzok asrga boshlashini, bir zumda kelajakka yo'llashini, kichik tomchida keng olamni aks ettira olishini, shu bilan birga inson qalbining ich-ichiga kirib borib, unga cheksiz kuch, ilhom, shijoat baxsh etishini, ona tuproq, qir, ko'k, suvlarda, deya xitob qiladi.

Ijodkor so'z – she'r chashmalariga va ular oqimi, to'lqiniga befarq qarab turmasligi, aksincha, bu chashmalarning ko'zini kengroq ochish, ularni maqsad daryosi sari yetaklash, uning avji va mavjidan hayot kemasini yurgazishga lirik qahramonni undaydi. She'riyat tarixiy, ilmiy kitoblar u yokda tursin, hatto badiiy prozadan ham o'zining dunyoni idrok etish va tushuntirish, ifodalash yullari bilan farq qiladi. Hamma narsa shoirning qalbi, uning hissiyoti, kechinmasi orqali beriladi. She'riyatda hayot, voqelik zarbi bilan tebrangan shoir qalbining ohangi ifodalanadi.

*Tong otayapti, tongni kutib ol,
Tong zavqida kun bo'yi qol!
Tongni bergan kunni olqishla,
Kun chiqayapti nurli boqishla!*

Shuhratning "*Tong otayapti*" she'rining falsafiy g'oyasi nihoyatda teran: ijodkor kitobxon qalbida musaffo tong tasviri ila inson hayotining tongini uyg'unlashtiradi. Voqelikni badiylashtirar ekan, kitobxonga nozik did ila yashash mazmun-mohiyatini singdirishga harakat qilgan va ma'lum darajada shoir bunday muvaffaqiyatga erishgan. She'rdagi har bir yangilikning ildizi ana shularga borib taqaladi. Shoir she'rlaridagi badiiy kashfiyot mana shu voqelikdan yangi g'oyalarni fahmlab olishi va uni o'ziga xos yo'sinda ifodalashdan kelib chiqqan. Badiiyat, ijod hech qachon uydirma, to'qib chiqarilgan, asossiz gapni sevmaydi. Qaysi she'r shoirning hayotdagi biror aniq voqea, hodisa asosida yoki biron sabab, turtki tufayli, yo bo'lmasa shoirning hayoti va taqdiri bilan bevosita bog'langan biror hayotiy epizod natijasida vujudga kelgan bo'lsa, shunda hayotiy, o'tkir jozibali va ta'sirli chiqadi. Bilamizki, Shuhratning hayoti va ijodi bir tekis, silliq kechmagan. Qamoq azoblaridan tashqari yon-atrofidagi "do'stlari" ham ulkan ijodkorga goh oshkora, goh pinhona tuhmat toshlarini otib borgan. Alalxusus, "She'r – shoir qalbining avtobiografiyasidir.... Garchi she'r inson tarjimai holidan farqlansa-da, lekin unga shu tarzda yondashish ijodkor poetik mahoratini oydinlashtirish uchun qulaylik yaratadi"[4;33]. Shuhrat tarjimai holiga oid xotiralarni o'z qatiga singdirgan avtobiografik xarakterdagi "*Ta'na toshlari*" she'ridagi tasvir shoir poetik mahoratining hayotiylikni ta'minlagan. Mard va bag'ri keng shoir hamma-hammasini yaxshilik bilan, yaxshi asarlari bilan yengib yashagan:

*Sha'nimga otilgan ta'na toshlari,
Oxiri yig'ilib ulkan tog' bo'ldi.
Men uning ustiga chiqqanim sari,
G'ururim oshdi-yu, ko'nglim chog' bo'ldi.
Men uning ustidan mag'rur, tik boqib,*

*Hayotning ufqini yorqinroq ko'rdim.
Barimga ilashgan chang-chungni qoqib,
Shu ufq – manzilga mardona yurdim*[5;132].

Shoirning shaxsiy hayotidagi, ijodiy taqdiridagi murakkab, qiyin, noqulay vaziyatlar, bo'lib o'tgan to's-to'polonlar, tabiiy uning she'riyatida ma'lum darajada o'z izini qoldirgan. Shuhratning ijodini kuzatganimizda, ko'pgina she'rlarida uning yuragiga nishtar bo'lib sanchilgan, uni azobl原因agan xoinlik, xudbinlik kabi holatlari qalamga olingani holda, lirik qahramonni bir lahza bo'lsa ham ijodkorning o'zi ekanligini his etdik. Bil'aks, shoir "...eng yuksak insoniy fazilati shundaki, ijodkor har qanday malomat, xo'rlik, bo'htonlar changalida, ha xuddi shunday, qaddini xam qilmadi. Dardkash izlab, har ko'ringanga taqdiridan nolimadi. Metin iroda o'z insoniyligini yo'qotmay ijod qildi"[6;152]. Shoirning she'rlari dard va ehtiros bilan yozilgani uchun diqqatni tortadi. "*Ta'na toshlari*" she'rida shoir o'ziga nisbatan bo'lgan zulm va adolatsizlikni, umr davomida kechirgan tahlikali onlarini qalamga olib, "o'ziga ayon, boshqalarga qorong'u" bo'lgan qirralarini yoritadi:

*O, ta'na toshlari, ta'nam yo'q sizga,
Siz sabab bo'ldingiz, boqdim uzoqroq,
Hayotni qadrlab chiqdim keng izga.
Ey, umid! Mash'aling baland tutib yoq,
Ey, ta'na toshlarin otgan kishilar,
Sizni ham yuragim bugun olqishlar!* [2;132].

So'z badiiy adabiyotdagina o'zining asliga – obrazli tabiatiga qaytadi, olamni to'laqonli aks ettirish, tasavvurimizda uni qayta yaratishga xizmat qiladi[7;70]. "*Ta'na toshlari*" she'rida davr voqeligi, qalb xotiralari o'zgacha ohang, o'zgacha ranglarda ifodalangan, shoir armonli hayotining butun ma'no va mazmunini, iftixor va armon tuyg'ulari go'zal yaratiq sifatida namoyon bo'lgan.

Shoir she'rlaridagi lirik qahramonda doimo his-tuyg'u birlamchi, kuchli bo'lib, qahramonning murakkab xarakteri, katta, lekin nozik qalbi mohirlik bilan ochilganligini kuzatdik. Shuhrat she'rlari, uning o'zligi, orzu-umidlari, zamon haqidagi qaydlari, tengdoshlariga aytgan xitobi, o'quvchiga murojaati, o'rtoqlari va ustozlariga bildirgan samimiyati, chuqur fikrlar va badiiy o'xshatishlar orqali berilishi bilan xarakterlidir. "G'oyaning chinakam estetik, emotsional kuch sarf etishida konkret kechinmalar formasidagi obrazlilik muhim rol o'ynaydi"[8;294]– ekan, shoir kechinmalari natijasida obrazning to'laqonli o'ziga xos belgilari kitobxon ko'z o'ngida bor bo'y-basti bilan gavdalanadi. Shuhrat she'rlarining barchasi lirik qahramon kechinma o'ylari, hayotiy voqelik asosiga qurilgan bo'lib, ijodkor qalbining eng teran torlaridan taralgani uchun g'oyat hayotiy va samimiydir.

Insoniyatni ezgu niyatlar sari yetaklagan va kelajakni yaqinlashtirish uchun kurashmagan she'riyat sust va sayozdir. Albatta, ijodkorga mavzu va materialni ham, fikr va g'oyalarni ham, qahramonlarni ham, obraz va tasviriy vositalarni ham, ruhiy parvoz va ilhomni ham – hamma narsani xalq, hayot, qaynoq voqelik hadya etadi-yu, ammo bularni badiiy haqiqatga almashtirish faqat shoirning o'ziga bog'liq bo'ladi. She'rida poetik obraz ba'zan birdaniga, g'oyibona, goh uzoq izlanishlar, ijodiy qiynoqlar jarayonida tug'ilishi mumkin. Tabiat bilan g'oyatda yaqindan bog'lanish tabiatga intilish, tabiat bilan hamnafas bo'lishda psixologik va axloqiy bir qonuniyat bor. Chunki inson doimo tabiatga intilgan, tabiatni kuzatgan, tabiatdan o'rgangan, ilk bilimlarini tabiatdan olgan, tabiat insonni dono qilgan. She'riyat ham azaldan tabiatga intilgan va ergashgan, uning qoshida doimo hayratlanib turgan, undan aql bovar qilmas musiqa, ohang, aql bovar qilmas ranglar olgan. She'riga tabiat kirmagan, tabiat tasvirlari berilgan manzara bo'lmagan bironta ham shoir yo'q. Shuhrat ham bundan mustasno emas. Shunday she'rlaridan biri:

*Shudring yonar quyosh chiqquncha,
Tomchi-tomchi marvarid dona.*

*Sen turibsan hayron boqqancha,
Deysan:- Quyosh chiqyapti, ana,
Hali zamon erib ketadi,
Hali zamon qolmaydi bori.
Go'yo quyosh uni yutadi.
Buncha qisqa bo'lmasa umri!
Sen achinib qarab turgandan,
To'yib-to'yib qarab qolsang-chi!
Mamnun bo'lib shuni ko'rgandan! [5;218].*

Lirik qahramondagi ruhiy holatga nisbatan, muallif o'z adabiy-estetik qarashlarini she'riy misralarda namoyon qiladi. Ya'nikim, inson hayotga, go'zallikka mehr-muhabbat bilan boqishi, har bir go'zallikdan zavqlanib yashash kerakligini uqtiradi. Bir lahzalik shudring tomchisi insonga quvonch bag'ishlar ekan, demak uzoq yashashlik emas, mazmunli yashashlik baxt ekanligini satrlar silsilasiga shoir *shudring* misolida singdiradi. Shuhrat she'rlarida tasvirlangan lirik qahramon qiyofasida faqat o'z dardi bilan emas, balki xalq dardi, taqdirini o'ylayotgan ma'nan boy, ruhan kuchli, metin irodali inson turadi. Bu esa Shuhrat she'rlarida qalb iztiroblari aks etganidan dalolat beradi. Aytilgan kuzatishlarimizni isbotlash uchun uning "Nimani yozibman" she'riga murojaat qilmoqni lozim topdik:

*Nimani yozibman – qalbim amridir,
Nimani yozibman – qalbim javobgar.
Nimani istasang, qalbindan qidir,
Qalbiga vujudim, orzuim bo'y egar [5;188].*

Shuhrat she'rlaridagi har bir misra pishiq-puxta: takrorlanmas poetik obrazlar, yangi detallar topishga harakat qilgan. Shuning barobarida uning she'rlari tag zamirida nasihatimiz, ibratga to'liq ma'no mujassam:

*Maqtovg'a uchmadim chiqarib qanot,
So'ksalar turmadim yoshimni to'kib.
Bildimki, bir xilda o'tmaydi hayot,
Na unda, na bunda ketmadim cho'kib[5;420].*

Shuhrat ijodida hayotga chanqoqlik, optimizm ruhining chuqurligi ham uning she'riyatiga kelajakni qanot qilib olishida ko'rinadi. Shoir poetik obrazlar orqali hayot haqiqatini boshqa bir muhitga, san'at olamiga yangi ma'no va zamon doirasiga olib boradi. Yuqori bosqichga ko'taradi, unga o'zgacha jilo, sifat beradi. Shoirning tasvir ob'yektida kim turishidan qat'iy nazar uning his-tuyg'ulari, kechinmalari inson quvonchi yo dardi sifatida qabul qilinadi. Shuning uchun uning she'rlari kitobxonning kechinmalarini goh iztirobga keltiradi, goh mahzunlikka toldiradi:

*Pul bilan tiklangan izzatu ikrom,
Yo amal tufayli topilgan obro'y.
Go'yoki muz uzra yozilgan bir nom.
Go'yoki qarz olib qilingan bir to'y [5;22].*

Ijodkorning keng qamrovli she'riyati shoirning shaxsiy tuyg'ulari bilan birga jo'shqin sevgi hissiyoti jiddiy motivlar ila yaxlit bir tarzda, go'zal bir butunlik, originallik yaratib g'oyani o'ziga xos poetiklashtiradi. Shoir tomondan yaratilgan poetik obraz inson umri mazmun-mohiyatini badiiy bo'yoqlarda, rangin misralarda namoyon etadi, goh ruhiy olam-odamlar shuuriga, hissiyotiga ko'chgan olamni go'zallik qonunlari nuqtayi-nazaridan qaytadan kechirishi, yangidan inkishof qilishi tarzida yuz beradi:

*Qanchalik pok bo'lma sen tuhmatdan qo'rq,
Bu ojiz kishilar to'qigan tuzoq.
Ba'zida qiladi sayoz joyda g'arq,
Ba'zida qop-qora bo'lib qolar oq! [5;26].*

Shoirning she'rlarida faqat Shuhrat yuragiga xos samimiy tuyg'uni tuyish, xalqona sodda ohangni uqish yoki chuqur falsafiylikni his qilish mumkin. Sababi shundaki, shoir shiddatli hayot haqiqatiga, mohiyatiga sinchkov razm soladi, she'rdagi lirik qahramon uchun asos bo'lgan voqelik bilan hamohang bo'lgan o'zga kishilarning hayotidagi voqealarni umumlashtiradi, hattoki kichik bir hodisa ham shoir nazaridan chetda qolmaydi. She'rdagi adabiy qahramon timsolida tom ma'noda umuminsoniyatga xos xarakter-xususiyatlarni mujassamlantiradi va badiiy obrazda jamlashtirib beradi. Shu boisdan muayyan obrazga asos bo'lgan badiiy haqiqat hayot haqiqatiga nisbatan ko'p qirrali, umumlashma xususiyat kasb etadi, bu shoirga chuqur botiniy lirik ma'noga ega bo'lgan obrazlar yaratishga imkoniyat beradi.

Inson aql, his-tuyg'u egasi. U hayotdan, ona yurt tabiatidan, ma'naviy-moddiy narsalardan lazzat va faxr tuyg'usini his etib yashaydi. Ruhidagi shu tuyg'ularning xalqda o'zidan keyin ham yashashini istaydi. Bu orzu istak ona yurtning, xalqning abadiyligini ta'minlaydi. Olam va odamning yaxshi tomonga o'zgarishi oson bo'lmasligini anglab yetgan shoirning lirik qahramoni ruhiy jarayonni boshdan o'tkazadi:

*Tiriklar safida o'liklar ham bor,
Nafas ham oladi so'z ham qotadi.
Ba'zida tirikka o'q ham otadi,
Ba'zida topadi obro', e'tibor [5;142].*

Shuhrat o'zini xalqning bir parchasi deb his qiladi, shuning uchun xalqning tuyg'ulari, shodliklari, g'ururi, orzu-umidlari, dard va tashvishlarini o'ziniki deb biladi, xuddi shuningdek, o'z hayot yo'llarining his-tuyg'ularini ham, xalq taqdiriga ham bevosita aloqadorligiga alohida e'tibor beradi. Uning she'riyatida xalq hayoti, orzu-intilishlari bilan uning "o'ziniki" go'yo qo'shilib, uyg'unlashib ketadi. Natijada she'rlarida yorqin va go'zal ma'naviy muhit vujudga keladi. Bu muhit shunchalar sof va go'zalki, shu boisdan uning she'rlari ehtirosli, hayajonli, tasvir ko'lami qamrovining parvozi baland bo'lib, o'qirmanni beixtiyor o'ziga tortadi.

*Ruhimga hamisha uch narsa yaqin:
Osmoniy yuksaklik, ko'lam va kenglik,
Daryoning beto'xtov oqishi, to'lqin,
Dengizga teranlik, asovlik, cho'nglik! [5;420].*

Shuhrat she'rlari mazmun - mohiyatidan, shoirning zalvordor shaxsiyati, yetuk talanti qirralari yaqqol namoyon bo'lganiga guvoh bo'lamiz. Shoirning o'ziga xos uslubi, musiqiy ritmikasi, go'zal poetik mulohazalari bor. Shuhratda mas'uliyat tuyg'usi juda baland bo'lib, bu tuyg'u uning she'rlarida ham o'z aksini topgan:

Ko'ramizki, Shuhrat ijodiga xos bir fazilat ko'zga tashlangan: u o'z she'rlarini ham, ballada va romanlarini ham, poemalarini ham o'zi bilgan, ko'rgan, chuqur va hayajonlangan yoki shaxsan o'z boshidan kechirgan voqea, hodisalar, fikr va kechinmalarga suyanib yozadi. Uning hayot yo'li, hayotiy tajribalari voqelikdagi va xalq hayotidagi muhim, bosh yo'nalishni chuqur izlanib va falsafiy aspektda badiiy tahlil etishda faol xizmat qiladi. Bil'aks, "She'rning obrazlar dunyosi o'z qonunlariga asosan harakat qiladi, yashaydi. Predmetlar dunyosi emas, fikr, hayajon lirikada yashaydi voqelikka aylanadi"[9;116]. Ana shunday fikr va tuyg'ularning voqelikka aylanishi Shuhrat she'riyatining asosini tashkil etadi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, a) Shuhratning she'rlarida butun jahon taqdirini o'ylayotgan, muttasil inson hayotining ma'nosini izlovchi va bu izlanishda muhim haqiqatlarni kashf etuvchi, ruhan boy inson qiyofasi mavjud. b) Ijodkor she'rlarida she'riy san'atlar mohirona qo'llangan: bu san'atlar badiiylikning oshishiga, lirik ifodaning chuqur emotsional tus olishiga xizmat qilgan. Bunday san'atlar vositasida lirikada so'zning ayricha o'rin tutishi yaqqol ko'zga tashlangan. Bu xususiyat shoir she'riyatining abadiyligini ta'minlovchi omillardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ahmad S. Uch mungli qo‘shiq so‘ngsiz imtihon / Shuhrat. Adib hayotiga bir nazar.–T.: Sharq 1998.–B.99-101.
2. Shuhrat. Sening sevging. Saylanma. – T.: Sharq, 2003.
3. Sharafiddinov O. Yakun va debocha // Sharq yulduzi, 1962. №2. –B.133.
4. Hasanov Sh. Iste‘dodning rangin jilolari / Badiiylik va mahorat. – Samarqand.: SamDU, 2018. –B.33.
5. Shuhrat. Tanlangan asarlar. 3 jildlik, 1-jild. –T.: Adabiyot va san‘at, 1978. – B.132
6. Shukurullo. Ijodkor matonati / Shuhrat. Xotiralar.–T.: Sharq, 1998.–B.152.
7. Quronov D. Nazariy qaydlar. –T.: Akademiknashr, 2018. –B.70.
8. Adabiyot nazariyasi. 2 tomlik, 1 tom. –T.: Fan, 1978. –B.294.
9. Владимиров С. Стих и образ. –Л.: Сов. писатель, 1961. – С.116.

13.00.00 - Pedagogika

“SOVG‘A” ALIFBO KITOB

Abduvali Abdumutalibovich Yo‘ldashev

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

O‘zFA Tarix instituti

kichik ilmiy xodimi

Annotatsiya: «Sovg‘a» alifbo kitobi maktabgacha yoshdagi bolalar va boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, bolalarning savodxonlikka bo‘lgan ilk qadamlarini qulay va qiziqarli tarzda amalga oshirishga yordam beradi. Ushbu kitob orqali bolalar harflarni tanish, to‘g‘ri talaffuz qilish, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Darslik tarbiyaviy ahamiyatga ham ega bo‘lib, bolalarning axloqiy qadriyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: alifbo, savodxonlik, harf, o‘qish ko‘nikmasi, yozish mashqlari, bolalar kitobi, tarbiyaviy ahamiyat, maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim.

«ПОДАРОК» — БУКВАРЬ

Аннотация: Букварь «Совга» предназначен для детей дошкольного возраста и учащихся начальных классов. Учебное пособие способствует формированию первых шагов в грамотности у детей в доступной и увлекательной форме. С помощью данного букваря дети учатся распознавать буквы, правильно их произносить, а также развивают навыки чтения и письма. Кроме того, пособие имеет воспитательное значение и способствует формированию моральных и нравственных ценностей у подрастающего поколения.

Ключевые слова: букварь, грамотность, буква, навык чтения, упражнения на письмо, детская книга, воспитательная ценность, дошкольное образование, начальное образование

"GIFT" – ALPHABET BOOK

Abstract: The “Sovg‘a” Alphabet Book is designed for preschool children and primary school students. This textbook supports children's early steps in literacy in an engaging and accessible way. Through this book, children learn to recognize letters, pronounce them correctly, and develop essential reading and writing skills. In addition, the textbook carries educational value by fostering moral and ethical values in young learners.

Keywords: alphabet book, literacy, letter, reading skills, writing exercises, children's book, educational value, preschool education, primary education

Turkiston jadidchilik harakatida Shokirjon Rahimiyning o‘ziga xos o‘rni bordir. U 1898 yili Toshkentning “8-Taxtapul” mahallasida tug‘ilgan. Otasi Rahimjon ziyoli inson bo‘lib farzandlarining tarbiyasi va ta’limiga jiddiy e’tibor bergan. Ammo kasallik bois erta vafot etgan. Onasi Sharofatxon farzandlari Sobirjon, Shokirjon va G‘ofurjonni keyingi tarbiyasi bilan o‘zi shug‘ullangan. Tikuvchilik qilib oila turmushini tebratgan.

Shokirjon Rahimiy dastlabki ta’limni otasining maktabida olgan. U 1903 – 1909 yillari madrasa tahsilini ko‘rgan. Shuningdek, kechki rus-tuzem maktabida o‘qigan. Shokirjon Rahimiy 1919 – 1921 yillari Toshkentdagi maorif institutini tamomlagan.

U faoliyatini maktabda muallimlikdan boshlangan. Toshkentning “Taxtapul” mahallasida otasi ochgan “Rahimiya” maktabida 1909 – 1919 yillari muallimlik qilgan.

O'quvchilarga o'qish va yozishni o'rgatar ekan, Shokirjon Rahimiy maktabdagi ta'lim jarayoni mohiyati haqida: "Maktab bolalarni faqatgina o'qitib qolmay, ularning ma'naviy dunyosini va jismoniy quvvatini rivojlantirishi, dunyoqarashini milliy qadriyatlar, tarixiy an'analar ruhida shakllantirishi, o'z Vatanini yurakdan sevgan faol fuqarolarni tarbiyalab yetishtirishi zarur", deb yozadi. Jadid namoyandalari bilan doimo aloqada bo'lib maktablar uchun 1912 yili o'zining dastlabki darsligini yaratgan. Jadid ziyolilari tashabbusi bilan 1914 yili tashkil etilgan "Turon" teatrida sahna asarlarini yaratish ishida ishtirok etgan. U teatrdagi sufliyorlik vazifasini bajargan. Shu bilan birga, 1914 – 1915 yillari Toshkentda nashr etilgan "Sadoyi Turkiston" gazetasining adabiy xodimi bo'lgan. 1916 yil Rossiya imperiyasining mardikorlikka olish va unga qarshi xalqning norozilik chiqishida faol ishtirok etgan. 1917 yili "Fuqaho" jamiyatining kotibi bo'lgan. Jamiyat nashri afkari bo'lgan "Izhor ul haq" jurnalida o'zining maqolalari bilan ishtirok etgan.

Mustamlaka zanjiri ostida bo'lgan Turkistonning maorifi XIX asr oxir – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi hukumatining ruslashtirish siyosati bilan olib kirgan rus-tuzem maktablari va avvaldan mavjud xalq orasida "eski maktab" deb atalgan milliy maktablar asosiga qurilgan edi. Katta shaharlar va ba'zi qishloqlarda alohida binoga ega bo'lgan rus-tuzem maktablari ta'lim ko'rinishida bo'lsa ham aslida bir qancha yashirin maqsadlar berkitilgan maskan bo'lgan. Shokirjon Rahimiy ushbu maktablar faoliyatiga shubha bilan qarar ekan, ularning soni 92 ta atrofida bo'lsa-da ta'limdagi xizmatlari juda oz ekanligini yozadi.

Xalqning o'z mehnatiga bitgan masjid va madrasa o'quv muassasalari mustamlakachilik siyosati bilan ta'minoti yo'qotib borildi. Ularning ta'lim berish doiralari ham o'z qobig'iga o'ralib, islohotni o'ylamay, Shokirjon Rahimiy tili bilan aytganda: "maqsadlari hammalari oxirat va hammasi "u dunyo" ni qo'lg'a olish uchun tirishmakdan iborat", bo'lgan maktablar edi. Qo'shimchasiga imperiya hukumatining Ostroumovlari, gubernatorlari, jandamlari bu maktablarni qattiq taftish va tahqiq qilib, ularning yo'q bo'lib ketishi uchun kecha-kunduz tinmasdan kurashganlar.

Shunday bir davrda o'lkaning ma'rifatparvar kishilari gazeta va maktab ochib xalqni islohot sari boshlayotgan edi. Ular yangi usul maktablari ochib bolalarga ta'lim bergan. Ular 1905 yilga qadar pinhona ish ko'rgan bo'lsa, shu yildagi voqealardan keyin biroz erkinlashib saflari ham kengayib borgan. Ularning boshida turgan taraqqiyparvarlar 1917 yilga qadar turli nomlarda milliy gazeta va jurnallar nashr etib gubernatorlik hukumatining zulmiga qaqarshi kurashdi. Ushbu gazetalar bu kurashda xalqning ongini uyg'otuvchi shula bo'lgan. Yangi usul maktablari o'lka bo'ylab yoyilib o'quvchilarni fanlardan: o'quv, yozuv, hissoob, jug'rofiyaga yaxshi o'rgatgan.

U nafaqat boshlang'ich ta'limda, balki o'lka yoshlarining oliy ta'lim olishi uchun imkoniyat yaratish ishlarida ham jadidlarining faollaridan bo'ldi. Toshkentda 1918 yili tashkil etilgan Musulmon Xalq dorilfununida ko'plab jadid namoyandalari qatorida muallimlik qildi. U 1919 yili nashr etila boshlangan "Ishtirokiyun" gazetasi faoliyatida ham ishtirok etgan. Shuningdek, Abdurauf Fitrat tomonidan 1919 yili tashkil etilgan "Chig'atoy gurungi"ning a'zosi bo'lgan. Ammo bu jamiyatning faoliyatiga sovet hukumatining mustahkamlanib borish jarayonida to'siq qo'yilgan.

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida maorif sohasi juda ko'plab o'zgarishlarga uchradi. Bolsheviklar maorif tizimini nazoratga olish va mafkuraviy siyosatini singdirib borishga harakat qilib dastlabki davrda xalq maktablarini yo'lga qo'ydi. Bu urinishlar rus-tuzem, yangi usul maktablarini sovet maktablariga aylantirib borishga qadam edi. Ammo qancha maktablar ochilmasin shunga yarasha muammolar ham ortib bordi. Maktablarning binosi, moddiy texnik ba'zasidan tortib, ularga o'qituvchilarning yetishmasligi ham shulardan xisoblangan.

Shu jarayondan maktablar uchun darslik kitoblar yetishmasligi alohida masala bo'lib, bu maorif sohasidagi jiddiy muammolardan edi. Turkiston bolalarini savodsiz qolmasligi

ularni, o'lk taraqqiyoti uchun tarbiyalash kelajakda malakaliy milliy kadrlarni shakillantirish lozimligi sovet mafkurasi kuchayib borayotgan zamonda ham jadid ziyolilarining e'tiboridan qolmagan. Darsliklar masalasini hal etishda ham jadid ziyolilari tashabbus ko'rsatib oldingi vaqtlarda bo'lgani kabi, o'zlari maktablar uchun darsliklar yaratdilar. Shu jarayonda Shokirjon Rahimiy ham o'z zimmasiga shunday mas'uliyatli vazifani olib, o'quvchilarga harflarni tanish va yozish uslublari uchun sodda hamda oson bo'lgan alifbo kitobini yaratishga kirishgan. Bu haqida jadid ma'rifatparvarlaridan biri tilshunos Qayum Ramazon: "Maktablar uchun o'zbekcha darsliklar qoniqarsiz ahvolda ekanligi, xususan, til saboqliklari haligacha yaratilmaganligini, bu hol maorif ishchilarining boshida turgan Respublika o'zbek bilim kengashining kamchiligi ekanligini tanqid qiladi. Bu orada Fitrat, Shokirjon Rahimiylarning maktablar uchun darsliklar yozishayotgani haqida gap so'zlar tarqaldi", deb yozadi. Shokirjon Rahimiyning "Sovg'a"lar takomil qiladir" nomli maqolasida: "Bolalarning ongida milliy ruh alifbo orqali singdirilishi kerak" deb yozgan edi. U maktabda muallimlik qilish jarayonida ta'limdagi muammolarga juda kimp uchragan. Shu bois ham ularning yechimi uchun o'zi ziyolilar qatorida kamarbasta bo'lgan.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, o'sha davrda o'zbek tilining qonun-qoidalari yuzasidan jiddiy ilmiy tadqiqotlar yaratilmagan edi. Turkiston ziyolilari orasida til-imlo masalasida munozaralar avj olib, muhokamalar kuchaygan. Chunki, ona tila va adabiyotning ahvoli ham og'ir holatda bo'lgan. Davr matbuotida til-imlo masalasi hamda maorif sohasidagi bu kabi kamchiliklar tanqid qilinib, bir qator maqolalarda fikrlar bildirilgan.

O'zbek xalqi ana shunday og'ir ahvolni boshidan kechirayotgan bir davrda Shokirjon Rahimiy jonkuyar jadid ziyolilari qatori ushbu muammoni hal qilish yo'lida izlanishlar olib bor. U 1919 yili "Sovg'a" nomli alifbo kitobini yaratdi. Kitobda imkon qadar turkiy so'zlarni qo'llashga urindi. Darslik soddaligi va bolalar uchun tanish so'zlardan foydalanib harflarga misollar berildi. Masalan, "N" harfi uchun **non**, **qanot** kabi so'zlar misol qilinib, mashqlarida ushbu harfning so'z boshida, o'rtasida va oxirida kelishiga oid sodda misollar keltirilgan.

